



A.R.MATNIYAZOV, B.YUSUFOV

O'ZBEK TILINING SHAKLLANISH VA  
RIVOJLANISH TARIXI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
DAVLAT TILINI RIVOJLANТИRISH DEPARTAMENTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

A.R.MATNIYAZOV  
B.YUSUFOV

## O'ZBEK TILINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

SamDTU  
axborot-resurs markazi

Toshkent – 2023

Ushbu monografiya birlamchi yozma manbalar asosida o'zbek tilining ko'p ming yillik tarixiy rivojlanishini yoritib beruvchi ilmiy asardir. Unda miloddan oldingi davrlarda hozirgi O'zbekiston hududida yashagan, o'zbeklarning ajdodlari hisoblangan turkiy xalq vakillarining eng qadimgi yozma manbalarda keltirilishi bayon etilgan, ularning boshqa xalqlar tillariga ko'rsatgan ta'siri, ilmiy faktlar asosida o'zbek tilining tarixan shakllanish davrlari hamda rivojlanish bosqichlari tadqiq qilingan.

Monografiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2020-2022-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi"da belgilangan ustuvor vazifalari asosida nashrga tayyorlandi.

**Mas'ul muharrir:**

R.B.Mahmudov – filologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Taqrizchilar:**

I.J.Yo'ldoshev – filologiya fanlari doktori, professor,  
Q.Sh.Omonov – filologiya fanlari doktori, professor,  
B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor.

**A 17 A.R.Matniyazov, B.Yusufov. O'zbek tilining shakllanishi  
va rivojlanishi tarixi. – Toshkent, 2023. – 136 b.**

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashining 2022-yil oktabr oyi yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.  
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.**

© Matniyazov A.R., Yusufov B. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2023 (2022).

## MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....	4
<b>1-BOB. O'ZBEK TILINING SHAKLLANISHI TARIXI: MILODIY XI ASRGACHA BO'LGAN DAVR.....</b>	<b>10</b>
1.1. O'zbekiston hududida yashagan turkiy xalqlar haqida ma'lumot beruvchi manbalar.....	12
1.2. Turon va Xorazmda yozuv madaniyatining paydo bo'lishi.....	14
1.3. Til va yozuv masalasi.....	20
1.4. Chuvash tili va o'zbek shevalari orasidagi leksik parallelellar.....	28
<b>2-BOB. O'ZBEK TILINING RIVOJLANISHI TARIXI: MILODIY XI ASRDAN XV ASRGACHA BO'LGAN DAVRDA YARATILGAN ADABIY MANBALARNING O'ZBEK TILI RIVOJIDAGI O'RNI .....</b>	<b>48</b>
2.1. O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti va o'zbek etnonimi.....	48
2.2. Qarluq-xorazm adabiy tilida yaratilgan asarlar.....	54
2.3. Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari va xorazm turkchasi manbalari....	87
2.4. O'zbek shevalari: substrat qatlami.....	92
<b>Xulosa.....</b>	<b>97</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>101</b>
<b>Shartli qisqartmalar.....</b>	<b>125</b>

## SO‘ZBOSHI

Hozirgi o‘zbek tili uchta – qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq hamda o‘g‘uz lahjalaridan tarkib topgan. O‘zbek tili genealogik jihatdan turkiy tillar qarluq guruhining qarluq guruhchasiga mansub deb qaraladi. Hozirgi o‘zbek tili – turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub tillardan; yangi uyg‘ur tili bilan birgalikda qarluq guruhchasini tashkil qiladi<sup>1</sup>.

Ilmiy adabiyotlar, qomus va ma‘lumotnomalarda qayd qilinishicha, hozirgi o‘zbek tiliga qarluq va qipchoq lahjasining Toshkent va Farg‘ona shevalari asos qilib olingan. Tarixan hozirgi O‘zbekiston hududida qadimdan turkiy xalqlarning eng yirik bo‘g‘inlari bo‘lmish qarluq, qipchoq va o‘g‘uz qabilalari yashab kelishgan. Ushbu qabilalar pirovardida o‘zbek xalqi va o‘zbek tilining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Ammo o‘zbek tilining shakllanish ildizlari juda qadim zamонларга borib taqaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydag‘i PF-4797-sonli Farmonida ta’kidlanganidek, “O‘zbek tili qadimiylari va boy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so‘g‘diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi”<sup>2</sup>.

Eng qadimgi davrlarda tarixan O‘zbekiston hududida yashagan, asosan, turkiy tilli o‘troq, yarim o‘troq va ko‘chmanchi qabila va elatlarning o‘zbek xalqi va tilini shakllanishiga qo‘sghan hissasini birlamchi moddiy manbalar asosida tadqiq qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma‘lumki, til tarixan o‘zi mansub bo‘lgan xalq, elat, qabila va urug‘lar tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi – tarixan O‘zbekiston hududining lingvogeografik areallari bilan bog‘liq. Shu

<sup>1</sup> Узбекистон Миллий энциклопедияси. – 10-жилд. – Т.: “Узбекистон Миллий энциклопедияси”, 2005. – 555-бет.

<sup>2</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг 2016-йил 13-майдаги “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиши тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи. – 2016. – 13 май.

ma'noda o'zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi tarixini Xorazm jingvogeografik areali doirasida tadqiq qilish yangi ilmiy natijalarni berishi mumkin.

O'zbek tili o'tmishda yaqin aloqada bo'lgan tillardan biri xorazm tilidir. Xorazm tili va yozuvi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ma'lum rol o'ynagan. Ammo, qadimgi xorazmliklar va xorazm tili, uning turkiy tillarga ta'sirini, undan o'zbek tili leksikasiga kirib qolgan elementlar fanda deyarli o'rganilgan emas. Biroq, o'zbek tili leksikasida, ayniqsa, xalq shevalari lug'at tarkibida bu tilning ayrim unsurlari saqlangan<sup>1</sup>. Bu jarayonda, albatta, o'zbek tiliga boshqa tillarning bir tomonlama mutlaq ta'siri istisno qilinadi, hududda tillar va ellar o'zaro muloqot natijasida bir-birlariga ta'sir qilgani shubhasiz. Shu ma'noda, miloddan oldingi davrlarda O'zbekiston hududida yashagan turkiy tili xalqlarning boshqa el va elatlар tiliga ko'rsatgan ta'sirini yozma manbalar asosida tadqiq qilish fursati yetib keldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi arafasida qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi qonunning 16-moddasi sharhida Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining asrlar davomida arab alifbosi asosidagi yozuvdan soydanib kelgani va bu yozuvda ko'plab ilmiy-tarixiy va badiiy asarlar bitilganini hisobga olib, ana shu yozuvni o'rganish uchun qanday shart-sharoitlar yaratilishi, hamda xalqimizni o'z tarixiy xazinasidan bahramand etish madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan yirik ijtimoiy, siyosiy omil ekanligi bayon etilgan edi<sup>2</sup>. Vatanimiz mustaqillikka erishgach, moddiy-ma'naviy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan qadimgi yozma yodgorliklar – tarixan O'zbekiston hududida muomalada bo'lgan qadimgi til va ko'hna bitiklar, epigrafik, numizmatik va qo'lyozma manbalarni o'rganishga sharoit yaratildi. Shuningdek, oldingi ayrim fikrlarga tanqidiy yondashish, yangi aniqlangan ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish, o'tmishga saqat tarixiy va ilmiy nuqtayi nazardan xolisona baho berish bu borada ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zaruriyatini belgilaydi.

<sup>1</sup>Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: «Фан», 1981. – 95-бет.

<sup>2</sup>Аблумажидов Г.А., Шохназаров Т. Ўзбекистон ССРининг Давлат тили хакилаги конунига шархлар. – Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 1990. – 20-бет.

Jahon turkiyshunosligida o'zbek tili tarixiga oid bir necha tadqiqotlar olib borilgan. A.N.Samoylovich<sup>1</sup>, E.D.Polivanov<sup>2</sup>, S.E.Malov<sup>3</sup>, A.K.Borovkov<sup>4</sup>, N.A.Baskakov<sup>5</sup>, A.M.Sherbak<sup>6</sup> singari olimlar o'zbek tili tarixi va tasnifi, adabiy til tarixi, jumladan adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishiga doir tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Ular amalga oshirgan aksar ishlarda o'zbek tili tarixi turkiy tillar tasnifi doirasida ko'rib chiqiladi. Ayrim ishlardan o'zbek shevalari tasnifiga bag'ishlangan bo'lsa, ba'zi ishlarda o'zbek adabiy til tarixi o'rjanilgan. Bunda adabiy tilning shakllanish jarayoni turli tadrijiy davrlarga ajratilib, rivojlanish bosqichlari qayd qilinadi.

O'zbekistonda o'zbek tili tarixini o'rjanish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Bugunga qadar o'zbek tili tarixi va o'zbek adabiy tilining shakllanishiga doir qator monografiya va kitoblar, oliv ta'lim muassasalarini uchun o'quv qo'llanmalari nashr qilingan. Bu ishlardan sirasiga G'.O.Yunusov<sup>7</sup>, O.Uemonov<sup>8</sup>, G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov<sup>9</sup>, U.Tursunov, B.O'rinoev, A.Aliev<sup>10</sup>, N.Rahmonov, Q.Sodiqov<sup>11</sup>, G'.Boboyorov<sup>12</sup>lar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni kiritish mumkin. O'zbek tili tarixini davrlashtirishda tadqiqotchilarning deyarli barchasi o'zbek tilining eng qadimgi, qadimgi va qisman eski davrlarini umumturkiy kesimda ko'rib chiqadilar. Bunga sabab,

<sup>1</sup> Самойлович А.Н. Некоторые дополнения к классификации турецких языков. – Петроград, 1922; ўша муалл. К истории литературного среднеазиатско-турецкого языка. – Сборник «Мир-Али-Шер». – Л., 1929. – С. 1-23.

<sup>2</sup> Поливанов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков, выпуск 1. – Происхождение и наименование узбеков. – Ташкент, 1926. – 31 с.; ўша муалл. Материалы по грамматике узбекского языка, выпуск 1. – Введение. – Ташкент, 1935. – 48 с. (с приложением схемы классификации узбекских говоров)

<sup>3</sup> Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М.-Л., 1951.

<sup>4</sup> Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских говоров. – Известия АН Узбекской ССР. – 1953. – №5; ўша муалл. Лексика среднеазиатского тифсира XII-XIII вв. – Москва, 1963.

<sup>5</sup> Баскаков Н.А. Тюркские языки. – Москва, 1960. – 248 с.; ўша муалл. Введение в изучение тюркских языков. – Москва, 1969. – 384 с.

<sup>6</sup> Щербак А.М. К истории узбекского литературного языка древнего периода. – Сборник «Академику В.А.Гордеевскому», – Москва, 1953; его же. Грамматика староузбекского языка. – М.-Л., 1962.

<sup>7</sup> Prof. Qazi Alim Junus. Ozbek lahhalarini tasnidida bir taçriba. – Toşkent: "Ozdavnaşr", 1935. – 66 b.

<sup>8</sup> Усмонов О. Ўзбек тили масалалари. – Ўрта Осиё Давлат университети илмий асрлари тўплами. – Тошкент, 1957.

<sup>9</sup> Абдурахмонов Е., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973.

<sup>10</sup> Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. Дорулфуонлар ва педагогика иинтичтиларининг филология факультетлари талабалари учун дарслар. Кайтга ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1995.

<sup>11</sup> Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek til tarixi: filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.

<sup>12</sup> Boboyorov G'. O'zbek til tarixi – I (Eng eski chog'lari). – Toshkent: "Fan", 2022. – 176 b.

o'sha davrlarga oid yozma manbalar, asosan, toshbitiklar hozirgi O'zbekiston hududidan ancha olis bo'lgan hududlardan topilganligi sabab bo'lsa, ikkinchidan, turkiy tilli xalqlarning ko'plab yangi-yangi hududlarga uzoq davom etgan migratsiyasi sabablidir. Shuning uchun tadqiqotchilar toshbitiklarni umumturkiy yozma manbalar sifatida qayd etadilar. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'ot ut-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yughnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari Markaziy Osiyoda yaratilganligi va bu asarlar tilining o'zbek tiliga yaqinligi o'sha davrlardayoq o'zbek tili shakllanishning yuqori bosqichida bo'lganligidan darak beradi. Turkiyshunoslar tomonidan o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi tarixi yaxshi o'r ganilgan va o'r ganilmoqda. Ammo, o'zbek tilining shakllanishi va rivojlanishining eng qadimgi va qadimgi tarixini yetarli darajada o'r ganilgan deb bo'lmaydi. Shu sababli biz o'zbek tili tarixini uchta katta davrga ajratgan holda o'r ganishni taklif qilamiz:

Birinchi davr: O'zbek tilining shakllanish davri (miloddan oldingi qadimgi davrlardan milodiy XI asrgacha bo'lgan davr);

Ikkinci davr: O'zbek tilining rivojlanish davri (milodiy XI asrdan XV asrgacha bo'lgan davr);

Uchinchi davr: O'zbek tilining taraqqiyot davri (milodiy XV asrdan hozirgacha bo'lgan davr).

Bunda har bir davr o'zbek tilining muayyan shakllanish, rivojlanish va taraqqiyot bosqichlarini qamrab oladi.

Mazkur monografiyadan ko'zlangan asosiy ilmiy maqsad birlamchi moddiy va yozma manbalar asosida o'zbek tilining ko'p ming yillik tarixini Xorazm lingvogeografik areali doirasida yoritib berishdan iborat.

Shu maqsadda biz o'zbek tilining ikkita muhim davrini Xorazm lingvogeografik areali doirasida o'r ganishni maqsad qilganmiz:

I. O'zbek tilining tarixan shakllanish davri (miloddan oldingi davrlardan milodiy XI asrgacha);

2. O'zbek tilining tarixan rivojlanish davri (milodiy XI-XV asrlar oralig'i).

Dastlabki davr o'zbek tilini shakllanishiga tarixan bugungi O'zbekiston hududida yashagan xalqlar, elatlar hamda qabila va urug'larning ta'sirini ochib beruvchi manbalar tadqiqidan iborat miloddan oldingi davrlardan to milodiy XI asrgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Keyingi davr bevosita arab yozuvi orqali o'zbek tilida yozilgan ilk yozma manbalar tadqiqidan tashkil topgan XI-XV asrlar oralig'idagi davrni o'z ichiga oladi.

Monografiyada quyidagi ilmiy muammolar atroflicha yoritilishi ko'zda tutilgan:

- o'zbek tilining tarixiy bosqichlarini davrlashtirish muammosi;
- miloddan oldingi va milodning boshlarida tarixan O'zbekiston hududida yashagan turkiy xalqlarni ilk yozma manbalardagi ma'lumotlar asosida o'rghanish;
- miloddan oldingi davrlarda O'zbekiston hududida yashagan turkiy xalqlar tilining shumerlar tiliga ko'rsatgan ta'sirini ochib berish va O'zbekiston hududida yashagan turkiy xalqlar (o'g'uzlar va xorazm sheva vakillari) tili bilan bulg'or (chuvas) tili orasidagi munosabatni tadqiq qilish;
- qoraxoniylardan keyin yuzaga kelgan qarluq-xorazm tilining chig'atoy tiliga ta'sirini o'rghanish hamda o'zbek tilining shakllanishida Alisher Navoiy gacha bo'lgan davrdagi mahalliy til modifikatsiyalarini tahlil qilish.

Mazkur monografiyaga asos sifatida tarixan O'zbekiston hududida kechgan lingistik jarayonlar, o'zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar hamda Xorazm lingvogeografik arealida yaratilgan ilk yozma manbalar keng tahlil qilindi va ular atrofida yaratilgan tadqiqotlar hamda ular haqidagi ilmiy ma'lumotlar umumlashtirildi, tanqidiy o'rghanib chiqildi va tegishli xulosalar bilan umumlashtirildi.

Albatta, bu borada qilinadigan ishlar, amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar ko'lami juda keng, qo'lingizdagagi ushbu ilmiy monografiya dengizdan tomchi desak xato bo'lmaydi. Shu bois, undagi ilmiy xulosalar ham

o'zbek tili tarixida mavjud bo'lgan muammolarga oid so'nggi nuqta degan nuqtayi nazardan yiroqmiz.

## 1-BOB. O'ZBEK TILINING SHAKLLANISHI TARIXI: MIODDAN OLDINGI DAVRLARDAN MIODIY XI ASRGACHA BO'LGAN DAVR

Turkiy xalqlarning kelib chiqishiga oid ma'lumotlarni mazmunan ikkiga ajratish mumkin: mifologik ma'lumotlar va tarixiy ma'lumotlar. Mifologik ma'lumotlar xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan dostonlar, payg'ambarlar tarixiga oid qissalar ichida kelgan ma'lumotlardir. "Avesto" kitobi, "O'g'uzxon" dostoni kabi yozma manbalar ham shular jumlasidandir. Tarixiy ma'lumotlar sirasiga toshbitiklar, podshohlar tarixiga doir nasabnomalar, xronologiyalar va tarix kitoblarida kelgan ma'lumotlar kiradi. O'rjun va Enasoy yodgorliklari, Behustun qoyatoshlari va Naqshi Rustam qabrtoshlaridagi bitiklar, shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asari, Alisher Navoiy, Munis va Ogahiylarning tarix kitoblari o'zlarida tarixiy ma'lumotlarni jamlagan.

XII asrda yashab ilm-fan bilan shug'ullangan qomusiy olim Faxriddin Rozijining xorazmshoh Takashga bag'ishlab yozgan "Jomi' ul-ulum" asari "Ilm at-Tavorix" qisimining birinchi bo'limi "Ajam mulkining podshohlari tarixida" deb nomlangan. Unda to'rt sulolaga mansub hukmdorlarning ismi va podshohlik muddati keltirilgan. Birinchi sulola, ya'ni peshdodiy larga 9 nafar podshoh mansub bo'lib, ularning yettingchisi Afrosiyobi turk hisoblangan. U Ibrohim alayhissalom tug'ilganidan 470 yil o'tgach, taxtga o'tirgan va 12 yil hukmronlik qilgan. To'rtinchi tabaqaga mansub sosoniy podshohlarning soni 30 nafardir. Ro'yxatda yigirma to'rtinchi podshoh Turon binti Parviz ismli ayol bo'lgani, u 1 yil va bir necha kun hukmronlik qilgani qayd qilinadi. Rozijining o'zi ushbu ma'lumotlarga shunday fikr bildiradi: "Ajam podshohlari tarixi agarchi har bir yerida xilof bisyordir...".<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Roziy Faxriddin. Jomi' ul-ulum. – Toshbosma. – Toshkent, 1897; Matnijozov A.R., Avazbayeva U.O., Ismailova G.V. XII asr xorazmshohlar davlatida Tarix ilmi // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – 2017. – №3. – 65-73 B.

“Ma’orif un-nasab” kitobida yozilishicha, “...Hazrati Nuh alayhissalom to‘fondin so‘ng uch o‘g‘lig‘a olamni uch qism qilib berdi. Andog‘kim, Yofasg‘a Turon zaminni berdi. Bu jihatdin Yofasni Abut-turk derlar. Va Eronni Somg‘a berdi. Bu sababdin oni Abul-a‘jam derlar. Va Hindustonni Xomg‘a berdi. Ul vajhdin oni Abul-hind derlar”<sup>1</sup>.

Yana qayd etiladiki, “Yofas alayhissalomni ba‘zilar payg‘ambari mursal derlar. Va hazrati Nuh alayhissalomning ulug‘ o‘g‘li derlar. Chun Judiy tog‘ida hazrat Nuhning kemasi qaror tutdi. Hazrati Nuh Yofasni kun chiqar tarafning tamomi mamlakatlarig‘a podshoh qilib yiborur bo‘ldi. Yofas atosidin bir du‘o tiladikim, har qachon yog‘mur istab, avval ul du‘oni o‘qusa, yog‘mur yog‘g‘ay. Nuh alayhissalom haq ta‘olog‘a o‘g‘li uchun munojot qildi. Darhol Jabroil kelib, “ismi a‘zam”ni bir toshg‘a yozib, Yofasg‘a berdi. Ul toshni yada toshi va “hajar al-matar” derlarkim, turklar orasida holo ham ko‘b bo‘lur”<sup>2</sup>. “...Oning sakkiz o‘g‘li bor erdi. Har o‘g‘lining avlodlari ko‘b bo‘lub, har qaysi o‘z avlodni birla Turon zaminning bir tarafig‘a borib, shaharlar bino qildilar. Yofasning o‘g‘ullarining otlari bu tururkim: Turk, Xazar, Suqllob, Chin, Kaimori, Ming, Rus, Torx.

Muhammad bin Xovandshoh “Ravzat us-safo”ning beshlanji daftarida G‘uz, Xalax, Sudsonni ham Yofasning o‘g‘lonlaridin debdur. Bu uch o‘g‘ul birla o‘n bir o‘g‘ul debdur. Ammo bu muxtasar torixni ko‘rgan va o‘quq‘on va eshitgan kishilarga arzimiz budurkim, Rivoyat qilurlarkim, Turk birlan G‘uzkim, ikkilari birodar va oqo-ini erdilar. Yada toshi uchun orolarida kina va urish va bir-birlarin o‘lturmak va qirmoq oshkorbo bo‘ldi<sup>3</sup>.

## **1.1. O‘zbekiston hududida yashagan turkiy xalqlar haqida ma’lumot beruvchi manbalar.**

Qadimdan Markaziy Osiyo hududlarida turkiy urug‘ va qabilalar istiqomat qilishgan. Ular Xitoy, Eron, Hindiston va boshqa hududlarda yashovchi xalqlar bilan savdo, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy

<sup>1</sup> Sanoij Bobojon. Ma’orif un-nasab. – qo‘lyozma. – Germaniya (Staats bibliothek zu Berlin). – 23a varaq.

<sup>2</sup> Sanoij Bobojon. Ma’orif un-nasab. – qo‘lyozma. – Germaniya (Staats bibliothek zu Berlin). – 24b varaq.

<sup>3</sup> Sanoij Bobojon. Ma’orif un-nasab. – qo‘lyozma. – Germaniya (Staats bibliothek zu Berlin). – 25-26a varaqlar.

aloqlarni o'rnatganlar. Bu aloqalar turkiy xalqlarning etnografiyasi, lug'at tarkibi, madaniyati va boshqa sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buning natijasi o'laroq turkiy xalqlar tillari lug'at tarkibiga xitoy, fors, hind boshqa til guruhlariga oid so'z va birliklarning o'zlashishi, ayni damda, ushbu tillarga turkiy so'z va birliklarning kirib borishi jadallahshgan. Bu tabiiy holat, chunki hech bir til mustaqil va ma'lum qobiqqa o'ralgan holda rivojlana olmaydi. Shu sababli turkiy tillarning substrat qatlami muammosi eng muhim masalalardan biridir. Biz ushbu tadqiqot jarayonida substrat qatlam masalasiga ham biroz bo'lsa-da, o'z mulohazalarimizni ifoda qildik.

Turkiy xalqlarning paydo bo'lishi, o'zbek tilining eng qadimiy davrlari va turkiy tilning tarixiy qatlami, unga xos birliklar haqida bizga ma'lumot beruvchi birlamchi manbalar juda oz, mavjudlari ham qadimgi fors, so'g'diy tildagi matnlar, bitiklar va ayrim manbalar. Turkiy tildagi birlamchi manbalar, asosan, tahlil manbalar asosida tahlil qilish imkoniyatini kamaytiradi va faqat birlamchi manbalar asosida tahlil qilish imkoniyatini kamaytiradi va faqat qo'shimcha manbalardagi ayrim so'zlar (asosan, onomastik birliklar)ningina tahlil qilish imkoniyatini qoldiradi. Shu sababli turkiy tilning miloddan oldingi davrlariga oid tahlillarda biz, asosan, qo'shimcha manbalardan, xususan, "Avesto", "Behustun yozuvlari" kabi manbalardan foydalandik.

### "Avesto"

Turkiy xalqlar haqida ma'lumot beruvchi ilk yozma manbalardan biri "Avesto" kitobidir. "Avesto" uzoq vaqt davomida shakllangan: undagi ma'lumotlarning eng qadimgilari miloddan oldingi II ming yillikning oxiri – I ming yillikning boshlariga oid bo'lib, ular og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelgan. E.Gersfeldga ko'ra, miloddan oldingi 527-yili yozilgan (Yasna 51, 15-19) memorial listda 240 nafar tarixiy shaxsning nomi keltirilgan. X.Nyuberg, ushbu hujjatning kengaytirilgan varianti (Yasht 13)ga asoslanib, "Avesto"<sup>1</sup>ni orol dengizi va Yaksart daryosi oralig'idagi hududda yaratilgan deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Маковельский А.О. Авеста. – Баку, 1960. – С. 38.

I.M.Dyakonov, G.Videngren va J.Dyushen-Giyemenlar “Avesto” kitobini Xorazmda yaratilgan deb ta’kidlaydilar<sup>1</sup>. E.Gersfeld esa, Eronveyj-Xorazm va Turonni bir o’lka sifatida qayd etadi<sup>2</sup>.

Olimlarning ushbu fikrlariga ortiqcha izoh shart emas. Chunki, 1999-yilning noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 30-sessiyasi “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi. “Avesto” kitobining jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o’rnini hisobga olgan holda hamda YUNESKO qaroridan kelib chiqib, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2000-yilning 29-mart kuni “Avesto”ning 2700 yilligini nishonlash to’g’risida maxsus qaror e’lon qilindi. 2001-yilning oktyabr oyida O’zbekistonda xalqaro ilmiy konferensiya va tantanali bayram tadbirlari o’tkazildi.

“Avesto” kitobida turkiy xalqlarning, qabila va urug’ nomlari, toponimlar hamda turonlik shaxslarning ismlari ham qayd etilgan:

*Xiyaona* (xionitlar) – xalq nomi. Xionitlar (“oq xunnlar”) bo’lsa kerak.

*Qanxa* – Eronning sharqidagi mamlakat nomi.

*Arejatasp* – turonlik xalqlardan birining boshlig‘i deb qaraladi.

*Asaban* – Turon urug‘laridan birining nomi.

*Danu* – Turon qabilalaridan birining nomi.

*Qara* – Turonning Asaban urug‘idan bo’lgan jangchi.

*Vara* – Turonning Asaban urug‘idan bo’lgan jangchining ismi.

*Yoyshta* – yosh turonlik o’smirning ismi; so‘zma-so‘z “yosh” degan ma’noni bildiradi. U Axtiya degan vaxshiy jodugarning 99 savoliga to’g’ri javob beradi va uning o’ziga ham savol berib, topolmagach, uni o’ldirgan.

*Vandarmanish* – Arejataspning ukasi.

*Vareshava* – Turonning Danu qabilasidan bo’lgan jangchining ismi.

*Vaesaka* – turonlik jangchi. Uning o‘g‘illari Qanxadagi jangda halok bo’lgan.

<sup>1</sup> Дорошенко Е.А. Зороастрйцы в Иране. – Москва, 1982. – С. 12.

<sup>2</sup> Маковельский А.О. Авеста. – Баку, 1960. – С. 27, 28.

*Yoyshti* – Turonning Friyona urug‘idan bo‘lgan dindor.

*Franxrasyan* – Afrosiyobning “Avesto”da kelgan nomi. Turlar va Turonning podshohi.

*Nereman* (Narimon) – turkiy ism.

### “O‘g‘uzxon” dostoni

Turkiy xalqlar haqida ma‘lumot beruvchi turkologlar tomonidan chiqur tahlil va tadqiq qilingan manbalardan biri bu “O‘g‘uzxon” dostoni hisoblanadi. Aksar *mag‘ul*, *o‘zbak* va *turkmon* O‘g‘uzxon naslidan ekanligi qayd qilinadi. Dostonda O‘g‘uzxon bir yuz o‘n olti yil hukmronlik qilgani aytiladi<sup>1</sup>.

Markaziy Osiyo 555-yili Istami xoqon tomonidan g‘arbiy turk xoqonligiga qo‘sib olinadi<sup>2</sup>. VI asrda g‘arbiy turk xoqonligini tashkil topishi buyuk Xitoy devoridan tortib. Qora dengizgacha, Amudaryodan to yuqori Ishimgacha bo‘lgan yerlarda turkiy lahjaning keng yowilishiga olib keldi.

Har ikki manbaning ham turkiy tillar lug‘at tarkibini, xususan, substrat qatlarni tahlil qilishdagи o‘rnи va ahamiyati katta ekanligi bugungi kunda ayrim o‘zbek tili tarixiy qatlamiga oid tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topmoqda<sup>3</sup>.

### 1.2. Turon va Xorazmda yozuv madaniyatining paydo bo‘lishi

Turon-Xorazm hududlarida yashagan aholi tomonidan sillabik yozuv yaratilgan va mixxat negizida shumer tiliga tatbiq qilingan. Mixxatga moslashtirilgan bu yozuv keyinchalik butun Old Osiyoga tarqalgan. Mazkur davr miloddan oldingi II-I ming yilliklar oralig‘ini tashkil qiladi.

Yozuv tarixida jumlaning dastavval tushunchalarga, keyinchalik so‘zlarga bo‘linishi ideografik yozuvni vujudga keltirdi. Piktogramma unsurlarga bo‘linmay, tugal fikrni ifodalar edi. Har bir tushuncha va muayyan buyum uchun maxsus belgi-rasm biriktirilgach, tartibga solingan belgilar tizimidan iborat ideografik yozuv paydo bo‘ldi. Ideografiya atamasi yunoncha

<sup>1</sup> Sanoij Bobojon. Ma‘orif un-nasab. – qo‘lyozma. – Germaniya (Staats bibliothek zu Berlin). – 41b varaq.

<sup>2</sup> Milodiy II asr boshlari shimoliy Xunn davlatining g‘arbiy chegarasi Orol bo‘ylarigacha cho‘zilgan va xunnlar skif, sarmat va alan qabilalari bilan birga yashagan. Qurang: Г.Файзрахманов. Древние тюрки в Сибири и Центральной Азии. – Казань, 2000. – стр. 60, 64, 92.

<sup>3</sup> Mahmudov R. O‘zbek tilida avestizmlar. Filol. fan. fals. doktori (PhD) diss. Urganch. 2020.

“tushuncha” ma’nosidagi *idea* va “yozaman” ma’nosidagi *grapho* so’zlaridan hosil bo’lgan.

Yozuv madaniyati rivojlanishi tarixidan ma’lumki, ushbu madaniyatga ega bo’lgan barcha xalqlardagi ilk yozuvsular – biri-biridan mustaqil tarzda taraqqiy qilgan. Turli predmet va harakatlarning tasviridan iborat, qandaydir bir hodisaga, ayniqsa, o’sha hodisaning tafsilotiga ishora qilib, uning mufassal lavhasini namoyon qiluvchi yozuv turlari – figurali, suratli yoki ideografik yozuv deb atalgan. Xalq va qabilalarning butun bir ommasi, fikrni yozuvda ifodalashning mazkur ibtidoiy turidan foydalangan. Ba’zi xalqlar, yozuvning bu shaklidan bugungi kunda ham foydalanadilar<sup>1</sup>.

Rasmlı yozuv – piktografiyaning qayerda tugab, ma’noviy yozuv – ideografiyanı qayerda boshlanishini aniq belgilash mushkul. Ming yillar mobaynida kechgan madaniy rivojlanish natijasida rasmlı yozuvdan ideografik yozuvga o’tilgan. Mazkur jarayon yangi belgilarni shakllantirish, mustahkamlash va ularni tizimga solish natijasida ro’y bergen. Ideografik yozuv takomillashib, ieroglif va gierogliflarni tizimini, hamda mixxat yozuv turini yuzaga chiqardi. Bo’g’inli, mukammal ieroglif tizimi Xitoyda hozir ham qo’llanilsa, Misr gierogliflari tizimi, hamda Ossur-Bobil va Midiya mixxat yozuv turlari hozirgi tovush-xarf negizidagi yozuvni paydo bo’lishiga olib keldi. Bu jarayonda, hozirgi O’zbekiston hududida yashagan qadimgi xalq va elatlarning ham xizmati katta bo’lgan. Bo’g’inga asoslangan mukammal yozuvning shakllanishida Old Osiyo xalqlari qatori Markaziy Osiyo, xususan, Turon-Xorazm hududi aholisining ishtiroki masalasi hali tekshirish, o’rganish va tahlil obyekti bo’lmagan. Mazkur muhim masala yuzasidan alohida tadqiqot olib borish lozimligini qayd qilgan holda masalaning mavzumizga bevosita aloqador jihatlariga e’tibor qaratamiz.

Mix yoki ponachalarga o’xshash chiziqli belgilarni loy taxtachalarga o’yib tushirishdan iborat ideografik yozuv turi, miloddan oldingi III ming yillik

<sup>1</sup> Высоцкий Н.Ф. Несколько слов о следах употребления у нас фигурного письма. – Изв. ОАИЭ при Императорском Казанском университете, том VI, выпуск 2-ой. – Казань, 1888. – 3-вет.

boshlarida shumerlar tomonidan yaratilgan. Yuqori qismi mix boshchasiga, pastki qismi kamon o'qining uchiغا o'xshash belgilardan tashkil topgan mazkur yozuvning keyingi shakllari mixxat nomi bilan yuritilgan. Ushbu yozuv – belgilarning o'ziga xos shakliga ko'ra *mixxat* deb nomlangan. Mixxatning shumer va qadimgi bobil yozma yodgorliklarida aks etgan dastlabki shakli mixxatsimon belgilardan emas, balki ideografik xarakterdagi chiziqli figurallardan tashkil topgan edi. Qadimgi Xaldey xarobalari o'mnida topilgan chiziqli xaldey yozuvining mo'jaz yodgorligi – mixxatning ilk namunasi hisoblanadi. Miloddan oldingi IV-III ming yillikka tegishli xaldey yozuvlari o'zining shakllanishida sof ideografik xarakterga ega bo'lган. Boshlang'ich ideografizmning ko'p sonli izlari, so'nggi mixxat tizimida saqlanib qolgan. Qadimgi xaldeylar bu yozuv turini misrliliklardan o'zlashtirganlar<sup>1</sup>.

Ideografik xarakterdagi mixxatda, har bir so'z uchun dastlab alohida rasm qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik alohida mixxatsimon kombinatsiyalar amal qilgan. Vaqt o'tishi bilan o'z nutqini falsafiy tahlil qilish orqali xaldeylar, so'zlarni alohida bo'g'lnlarga ajratish orqali ideografik mixxatni bo'g'linli tizimga aylantirdilar. Shu taxlit, o'zlarining yozuv belgilari bilan to'liq tushunchani emas, balki ma'lum bo'g'lnlar va ularning turli kombinatsiyalarini ifodalaganlar. Bunda ikki undosh orasidagi bir unlidan iborat murakkab bo'g'lnlarni ular ikkita oddiy bo'g'inni qo'shish orqali ifodalaganlar. Masalan, *mat* bo'g'innini *ma-at* tarzida, *bir* bo'g'innini *bi-ir* shaklida yozganlar.

Ko'pchilik belgilari, bo'g'in mazmuni bilan o'zining oldingi ideografik mazmunini ham birdek saqlab qolgan. Natijada o'sha bir belgining o'zi egallagan o'rniga bog'liq ravishda, goh ideografik, goh sillabik tarzda turlicha o'qilgan. Har ikki holatda ham hech qanday o'zaro umumiylilikka ega bo'lмаган ikki xil tovush talaffuzi bilan o'qilgan. Masalan,  belgisi ideografik jihatdan "xudo" degan ma'noni anglatgan va ossurcha *ihu* tarzida talaffuz qilingan. Biroq, bo'g'linli belgi sifatida, *an* tarzida talaffuz etilgan. Yoki  ideogramma

<sup>1</sup> Шиннер Я.В. Иллюстрированная всеобщая история письменъ (съ 155 рисунками и 19 отдельными таблицами, печатанными красками и золотомъ). – СПб.: Издание А.Ф.Маркса, 1903. – 69-70-стр.

sifatida “ota” ma’nosini anglatgan va *abu* tarzida o’qilgan, biroq sillabik belgi sifatida *at* tarzida talaffuz qilingan.

Shu tarzda biz, bu yerda aynan bir yozuv belgisining ideografik va bo‘g‘inli talaffuzi orasidagi nomuvosiqligi keltirib chiqargan farq tufayli juda g‘aroyib hodisa bilan to‘qnashamiz. Haqiqatan ham, ideografik jihatdan “ota” ma’nosini anglatgan va *abu* tarzida o’qilgan  belgisi, sillabik belgi sifatida qo’llanilganda *ab* deb emas, balki *at* deb talaffuz qilingan. Yoki “xudo” ma’nosini anglatgan va ossurcha *ilu* deb o’qiladigan  belgisi, sillabik jihatdan *il* deb emas, balki *an* deb talaffuz qilingan. Bu hodisa mixxatning kelib chiqishiga bog‘liq ravishda juda oddiy izohlanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, mixxat yozuvi akkad yoki shumer xalqlari tomonidan ixtiro qilingan va Bobilga olib kelingan. Mazkur xalqlarda belgilarning ideografik va sillabik ma’nolari o’rtasida farq bo‘limgan: har bir belgining bo‘g‘in ifodasi uning ideografik ifodasining boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan. Masalan,  belgisi sillabik jihatdan ularda *an* tarzida o’qilgan, chunki ideogramma sifatida bu belgi ularda “xudo” ma’nosini anglatgan va *an-nap* tarzida talaffuz qilingan. Yoki  belgisi sillabik jihatdan *at* deb o’qilgan va ideografik jihatdan “ota” ma’nosini anglatib, *at-ta* tarzida talaffuz qilingan. Bu yozuv bobilliklar va ossuriylar tomonidan o’zlashtirilganda, ular belgilarning sillabik va ideografik ma’nosini ham o’zlashtirganlar. Bunda belgilarning sillabik talaffuzini aslicha qoldirib, ideografik ma’nosini esa o’zlarining somiy tillariga ag‘darganlar. Belgilar talaffuzidagi ikki xillik ushbu holat tufayli yuz bergen<sup>1</sup>.

Miloddan oldingi III-II ming yilliklar oralig‘ida shumer tilida paydo bo‘lgan sillabik yozuv fonografiya rivojidagi birinchi bosqich hisoblanadi. Sillabik yozuvning shumer va qadimgi bobil xatidagi ilk shakli mixxat belgilaridan emas, balki ideografik xarakterdagи chiziqli figuralardan tashkil topgan edi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Шиннер. Иллюстрированная ... – 1903. – с. 72.

<sup>2</sup> Шиннер. Иллюстрированная ... – 1903. – с. 69.

Shumer mixxati akkadliklar (bobilliklar va ossuriyaliklar) tomonidan o'zlashtirilgan va qayta ishlab chiqilgan. Juda murakkab, chalkash va noqulay bo'lgan bu yozuv turi miloddan oldingi II-I ming yilliklar davrida oldin bobilliklarga, ulardan xett, ossur, elam, kappadokiy, oriyoldi armanlari (urart), hamda forslarga, umuman, butun Old Osiyoga o'zlashgan va ularning tillariga moslashtirilgan. Bobildagi bir qancha mixxat yozuvlari, krit va g'arbiy som yozuvlari "undosh+har qanday unli" birikmasi tarzidagi bo'g'in ifodalovchi belgilarga ega bo'lgan. Mixxatning bu turi xarf-tovush – bo'g'in yozuvlariga ancha yaqinlashib, kelgusida shunday yozuvlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Dastlab Bobilda qo'llangan bo'g'inli mixxat yozuv turini ixtirochilari akkad hamda sumir (shumer) xalqlari Turon va Xaldeyning tub aholisi hisoblangan. Akkad yoki sumirlar asli turonlik bo'lib, ular *kushit* lahjasida so'zlashganlar. Kushit lahjasi yoki shu lahja asosida mixxatda yozilgan so'zlar borasida fikr yurishdan oldin, shumer tilida yozilgan bo'g'inli mixxat matnlaridan aniqlangan va oltoy tillari oilasiga mansub turkiy tillarda ham o'xshash analoglari mavjud so'zlarga to'xtalamiz.

Shumer tili va turkiy tillar orasida o'zaro qarindoshlik mavjudligi haqida ilk bor fikr bildirgan nemis olimi F.Gommel shumer va turkiy tillardan 350 taga yaqin o'xshash so'zlarni aniqlagan edi. Shundan so'ng, shumer tilini o'rgangan ko'pchilik tilshunoslar uni oltoy tillari bilan taqqoslaganlar va shumer tili hamda oltoy tillari orasida bir qator o'xshashliklar borligini aniqlaganlar. Jumladan, S.P.Tolstov, shumer tili ko'p jihatdan Oltoy til guruhibiga mansub turkiy tillarga o'xshashligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Masalan, shumer. *dingir* - "xudo", turk. *täŋri* - "xudo, osmon"; shum. *Ai* - "oy ma'budi", turk. *ay* - "oy"; shum. *dag* - "tosh", turk. *daš* - "tosh", *day* - "tog"; shum. *gus*, *gun* - "uch, o'n", turk. *uc*, *on* - shu ma'noda<sup>2</sup>, shum. *ab* ~ turk. *äb* "uy"<sup>3</sup>, *gur* - mo'g'. "xalq" (go'xon, o'n o'g'ir,

SAMDU  
axborot-resurs markazi

<sup>1</sup> Толстов С.П. Москва, 1948. – стр. 79.

<sup>2</sup> Hommel F. Ethnologie und Geographie des alten Orients – München, 1926. – 21 p.

<sup>3</sup> Nemeth J. Probleme der türkischen Urzeit: Analecta Orientalia Memoriae Alexandri Csoma de Körös Dicata. – Bibliotheca Orientalis Hungarica V. – Budapestini, 1942-1947. – 57-102 s.

fin-o'g'ir), shum. *gur* "o'lka". Shumer va turkiy tillar orasidagi o'xshashlik, o'zaro ta'sir va so'z o'zlashish masalasini o'rganish hali ham davom etmoqda.

Shumer tili namunalari aks etgan mixxat yozuvi ta'kidlanganidek, miloddan oldingi II-I ming yilliklar oralig'ida kushit lahjasida so'zlovchi Turonning tub aholisi tomonidan isloh qilingan. Bu lahjada so'zlashgan etnos ham kushit nomi bilan atalganini faraz qilish mumkin. Miloddan oldingi davrlarda Turon zaminda yashab, kushit lahjasida so'zlashgan etnos haqida manbalarda ma'lumot uchramaydi. Bizga kushitlar yoki ular sirasiga mansub bir toifaning miloddan oldingi II-I ming yilliklar orasida Turon zaminidan Old Osiyoga, aynan Mesopotamiyaga borib qolganligi ma'lum. Zikr qilingan davrda Turon o'lkasi – jo'g'rofiy jihatdan bugungi Orolbo'yı mintaqasiga to'g'ri kelgan. Mazkur mintaqqa tarixan Xorazm vohasiga tutash hudud hisoblangan. Mahmud Koshg'ariy, Xorazmda turuvchi turklar XI asrda **كجت** - *köchät, kütäät* nomi bilan yuritilganini qayd qiladi<sup>1</sup>. "Qadimgi turkiy lug'at"da *kütäät* – turkiy urug'lardan birining nomi sisfatida berilgan<sup>2</sup>. Bizningcha, "Devoni lug'otit turk" asarida *köchät* nomi bilan zikr qilingan xorazmlik turklar, fikr yuritilayotgan kushitlarning avlodi bo'lsa kerak. Shu ma'noda, Turon zaminida yashagan kushitlar, Turon-Xorazm onomastikasida o'z izini qoldirgan bo'lishlari mumkin. Biroq, bu borada aniqlagan ma'lumotlarimiz masalaga to'la oydinlik kirita olmaydi. E'tiborlisi, *kushet* so'zi mo'g'ul tilida "tosh bitik, yodgorlik" ma'nosini anglatgan<sup>3</sup>.

Asli turonlik bo'lган kushitlarning Xorazm hududi bilan bog'liqligi va ularning miloddan oldingi II-I ming yilliklar oralig'ida Bobilga borib qolganligi borasida shu davrlarga doir ma'lumotlarga asoslanib mulohaza yuritsa bo'ladi. Manbalarga ko'ra, Kaykovusning o'g'li Siyovush miloddan oldingi XIII asrda Xorazmga kelib joylashadi. Miloddan oldingi 1292-yili Siyovushning nevarasi Kayxisrav Xorazmda ilk davlat tuzgan va turk podshohlari ustidan hukmronlik

<sup>1</sup>Девону луготит-турк. I том. – Тошкент, 338-бет.

<sup>2</sup> Древнетюркский словарь. – Москва, 1969. – стр. 323.

<sup>3</sup> Бичурин И. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.-Л., 1950. – стр. 502.

qilgan<sup>1</sup>. Ushbu ma'lumot, turkiy xalqlarning bir guruhi Xorazm mintaqasida miloddan oldingi XIII asrda, ehtimol undan ham oldin yashaganligini tasdiqlaydi. Ayni ma'noda, Xorazm hind-yevropa va oltoy tillari oilasining lingvogeografik jihatdan tutash hududi hisoblanadi.

Kushitlar, S.P.Tolstov bir necha bor ta'kidlagan Xorazm va Mitanni davlati, shuningdek, Xorazmning Old Osiyoning xett, xurrit va kassit kabi xalqlari bilan kechgan o'zaro munosabati, qolaversa, migratsiya jarayoni natijasida Bobilga borib qolgan bo'llishlari ham mumkin<sup>2</sup>. Farazimiz to'g'ri bo'lsa, bu miloddan oldingi I ming yillikning boshlarida, oltoy tili vakillarining, aynan turkiyzabon etnik bir guruhi Xorazmda istiqomat qilganligidan dalolat beradi.

### 1.3. Til va yozuv masalasi.

Chuvash tilining rivojlanish bosqichlari tarixan bulg'orlar va ularning tili bilan bog'liq. Bulg'or tili bugungi kunda o'lik til hisoblanadi. N.A.Baskakovga ko'ra, bulg'or areali Volgabo'yida lokallashgan bo'lib, ikkita qadimgi (bulg'or va xazar), hamda bir zamonaviy til – ushbu arealga xos bo'lgan qo'shni fin-ugor tillarining qo'shimchalari va eroniy substratni qamrab olgan chuvash tilidan iborat bo'lgan<sup>3</sup>. Shuning uchun biz dastlab bulg'orlar va xorazmiylar, bulg'or tili va xorazm o'g'uz tipidagi til va lahjalarning munosabati haqidagi bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarni ko'rib chiqsak.

Bulg'or tili deganda tarixiy yodgorliklari milodiy V asrdan ma'lum bo'lgan va Azov bo'yalarida asos solingen Buyuk Bulg'oriyadagi o'n o'g'ur-bulg'or qabilalari ittifoqining tili tushuniladi. VII asrning o'rtalarida Buyuk Bulg'oriya davlati qulagach, bulg'orlar IX asrda slavyanlashgan dunay bulg'orlari va O'rta Volgabo'yini va Quyi Kama bo'yalarida o'zlarining davlatini

<sup>1</sup>Беруний Абӯ Райхон. Танланган асарлар, Тошкент, 1968. – 71-бет.

<sup>2</sup> "Assirologiya otasi" nomini olgan fransuz assirologi Yu.Oppert 1853-1854 yillarda Mesopotamiyaga uyuşutirilgan fransuz ekspedisiyasi natijalari aks etgan monumental asarining II tomidan o'rinn olgan "Mixxat yozuvining Turondan kelib chiqishi" deb nomlangan bobida mixxat yozuvini somiy asosga ega emasligi to'g'risidagi mashhur gipotezasini ilgari suradi. Yuli Yu Oppert mazku gipotezasini 1856 yilning 15 mayida ministirga yozgan rasmiy hisobotida ham keltiradi va shu orqali "sumerizm" teoriyasiga asos solgan. Qarang: Струве В.В. П.К.Коковцов как ассириолог // Эпиграфика востока. – 1953. – №8. – стр. 5.

<sup>3</sup> Басаков Н.А. Задачи составления тюркских ареальных исторических диалектологических атласов // Советская Тюркология. – Баку, 1982. – №3. – стр. 4.

qurban (VIII-XV asrlar) Volga bulg'orlariga ajralib ketadi. Bulg'or tilining quyidagi mintaqaviy variantlari ma'lum:

–Dunay-bulg'or (“Bulg'or knyazlari nomnomasi”da aks etgan);

–Kuban-bulg'or (venger tilidagi turkiy o'zlashmalarning manbasi hisoblanadi, Shimoliy Kavkaz run yodgorliklarida ham aks etgan);

–Volga-bulg'or (XIII-XIV asr epitafiyalari hamda o'zlashmalarda (chuvashtilida ham, *muall.*) saqlanib qolgan)<sup>1</sup>.

Dunay-bulg'or va kuban-bulg'or variantlari – ilk bulg'or; volga-bulg'or varianti esa, qad.-bulg'or, o'rta bulg'or, xun-bulg'or va volga bulg'or tili deb nomlanadi. Dunay-bulg'or varianti VII-IX asrlarda Bolgariyada, kuban-bulg'or varianti V-X asrlar oralig'ida Azov bo'yida, volga-bulg'or varianti esa, VIII-XII (XIV asr so'nggigacha epitafiyalarda) asrlarda O'rta Volgabo'yı va Quyi Kamabo'yida muomalada bo'lgan. Dunay-bulg'or va kuban-bulg'or tillari haqida ishonchli ma'lumotlar yo'q. Aftidan, ular qabila tili maqomida bo'lganlar. Dunay-bulg'or tili namunalari “Bulg'or knyazlari nomnomasi”da va Bolgariya hududidagi toshda aks etgan bo'lsa, kuban-bulg'or tilining namunalari Elbursbo'yı run yodgorliklarida ifodalangan.

Volga bulg'orlarining ilk feodal davlati har xil qabilalarning tilidan tashkil topgan. Dastlabki davlat tuzilishi davrida bulg'or tili qabila tili sifatida namoyon bo'lgan. Umumbulg'or xalqining shakllanishi bilan (XI-XII asrlar) qator lingistik va ekstralikingistik omillar natijasida umumturkiy tipdag'i koyne hosil bo'lgan. Kuban-bulg'or matnlari turkiy run yozuvida, dunay-bulg'or matnlari kirill (run va yunon yozuvidagi epigrafik matnlar ham mavjud) yozuvida berilgan bo'lsa, volga-bulg'or matnlari arab yozuvida keltirilgan (bu yozuvlar qabrtoshlarda aks etgan). Arab yozushi Volga turklariga O'rta Osiyo orqali kirib kelgan<sup>2</sup>.

Volga bulg'orlariga oid ilk xabarlar o'rta asr geograf va sayohatchilari Ibn Fazlon, Ibn Xavqal, Abulhamid Andalusiy, Abu Abdulloh G'arnotiylarning

<sup>1</sup> Хакимзянов Ф.С. Булгарский язык. – Языки мира: Тюркские языки. – Бишкек, 1997. – стр. 47.

<sup>2</sup> Федотов М.Р. К вопросу о древнечувашской письменности // Советская Тюркология. – Баку, 1972. – №5. – стр. 109.

asarlarida keltirilgan. So‘nggi ma’lumotlar, asosan, rus solnomalari va mo‘g‘ullar tarixiga bag‘ishlangan asarlarda uchraydi. Bulg‘orlar to‘g‘risidagi unchalik boy bo‘limgan ma’lumotlar epitafiyalarda aks etgan<sup>1</sup>.

Volga bulg‘orlari haqidagi ilk yozma ma’lumot X asrning birinchi choragiga oid bo‘lib, bu ma’lumotlar Ahmad ibn Abbos – Ibn Fazlonning kundaligida keltirilgan<sup>2</sup>. Xalifa Muqtadirning buyrug‘iga ko‘ra, Ibn Fazlon va uning hamrohlari 921-yilning 21-iyunida Bag‘doddan Bulg‘orga yo‘l oladilar. Ular Bulg‘orga Xorazm orqali borishni maqsad qilgan edilar. Ibn Fazlon va uning hamrohlari o‘sha yili Xorazmda qishlab, 922-yilning 11-may kuni Bulg‘orga etib keladilar<sup>3</sup>. Ibn Fazlon Bulg‘orga Kavkaz orqali emas, balki Xorazm orqali yo‘l olgani e’tiborga loyiq. Bu holatga rus solnomalaridagi bulg‘orlar va xorazmiylarga oid ma’lumotlar oydinlik kiritishi mumkin. Rus solnomalariga ko‘ra, Bulg‘or va Xorazmning o‘zaro yaqin madaniy aloqalari bu ikki xalqning qarindoshligi bilan izohlanadi<sup>4</sup>. V.V.Bartoldning fikricha, xorazmiylarning savdo faoliyati g‘arbga, to‘g‘rirog‘i, shimoliy-g‘arbga – o‘sha paytda bulg‘orlar va xazarlar yashayotgan Volga havzasiga qaratilgan edi<sup>5</sup>. Xazarlarga qaraganda, ularning yaqin qarindoshi bo‘lgan Volga bulg‘orlari Xorazm va islom madaniyati bilan yaqindan aloqada bo‘lganlar<sup>6</sup>.

Bulg‘or va Xorazmning o‘zaro aloqalari borasida Abul Hasan Ali ibn al-Husayn Ali al-Mas’udiy (vaf. 956/957) keltirgan ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. Mas’udiy “Muruj uz-zahab val-ma’odin al-javohir” asarida Bulg‘ordan Xorazmga va aksincha Xorazmdan Bulg‘orga doimo savdo karvonlari qatnab turganligini yozadi. Uning ta‘kidlashicha, bulg‘orlar bu yerlarda ko‘chmanchilik qilayotgan turkiy qabilalarining hujumidan xavfsiraganlari tufayli Xorazmga Xuroson orqali borganlar<sup>7</sup>. Mas’udiy o‘zining “Kitob at-tanbeh” (كتاب التبيه) asarida xorazmlik savdogarlar yuk ortilgan katta

<sup>1</sup> Григорьев В.В. Россия и Азия. – СПб., 1876. – стр. 80.

<sup>2</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши. – Изв. ОАИЭ. т. XVIII, вып. 1, 2, и 3. – Казань. 1902. – стр. 9.

<sup>3</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши. ... – стр. 14.

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Сочинение. т. V. – Москва: Наука. 1968. – стр. 66.

<sup>5</sup> Бартольд В.В. O‘sha asar. – стр. 61.

<sup>6</sup> Бартольд В.В. O‘sha asar. – стр. 65.

<sup>7</sup> Известия о Хозарах, Бургасах, Булгарах, Мадьярах, Славянах и Руссах. – Абу-Али Ахмеда бен Омар Ибн-Даста. – Пер. Д.А. Хвольсон. – СПб., 1869. – стр. 163 (прим. 98).

kemalarda savdo qilish uchun Volga orqali Bulg'orga borishlarini yozadi<sup>1</sup>. Abu Zayd ibn Sahl al-Balxiy (850-934) “Ashkol al-Bilod” asarida bildirgan fikrlari ham shunga o'xhash. Uning so'zlariga qaraganda, Jurjoniyadan chiqqan karvonlar Amudaryoning Orolga quyish joyidan xazarlar yeriga boradilar<sup>2</sup>. Balxiy, Bulg'ordan Xorazmiga sotish maqsadida slavyan, xazar va ularga qo'shni bo'lganlardan iborat qullar; suvsar, sobol, tulki va qunduz mo'yinalari jo'natilganini yozadi<sup>3</sup>. Balxiyning “Suvar al-Aqolim” asarida Amudaryoning o'ng sohilida daryoning Orol dengiziga quyilish joyida Jurjoniya shahri joylashgani, bu shahar o'g'uzlarning savdo manzili bo'lganligi ta'kidlanadi. Uning aytishicha, Jurjoniyanan chiqilib, Jurjon (Gurgon), Xuroson va Xazarga borilgan<sup>4</sup>. Ushbu ma'lumotlar Abu Is'hoq al-Forisiy – Istanriy (850-934) qalamiga mansub “Kitob Suvar al-Aqolim” asarida ham aynan uchraydi (و )<sup>5</sup>.

Istanriy, “Suvar al-Aqolim” (yana bir nomi “Kitob al-Masolik al-Mamolik”) asarida bulg'orlarning Slavyan, Xazar va qo'shni o'lkalardan ko'plab qullarni, xususan, turk g'ulomlari va qimmatbaho mo'yinalarni Xorazmga olib kelishlarini yozadi وقع اليهم اكثر رقيق الصقالية و الخزر و ما و الاها مع (رقيق الاتراك و الاولى النفيسة<sup>6</sup>). Abulqosim ibn Xavqal an-Nisibiy (vaf. 976-y.) keltirgan ma'lumotlar ham shunga yaqin. Ibn Xavqal “Kitob al-Masolik va-l-Mamolik” (boshqa bir nomi “Kitob surat al-arz”) asarida ruslarning Bulg'or orqali Xorazmga mo'yna yetkazib bergenliklarini yozadi<sup>7</sup>. Abu Bakr Ahmad ibn Is'hoq al-Hamadoniy – Ibn al-Faqih (X asr) esa o'zining “Kitob ahvol al-Buldon” asarida Barda'a atrofidagi o'rmonlardan eman va qayin yog'ochlari Xazar va Xorazmga jo'natilganini qayd qiladi<sup>8</sup>. Ibn al-Faqih tilga olgan Barda'a esa, Bulg'orning Kavkazdagagi shaharlaridan biri sanalgan.

<sup>1</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 164 (прим. 98).

<sup>2</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 81 (прим. 29).

<sup>3</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 161 (прим. 98).

<sup>4</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 169 (прим. 98).

<sup>5</sup> Тизенгаузен В. О монетах Саманидов. – ЗИАО. – т. VI, отд. I. – СПб., 1853. – стр. 17.

<sup>6</sup> Тизенгаузен В. О монетах ... – стр. 17.

<sup>7</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 180 (прим. 98).

<sup>8</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 183 (прим. 98).

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abubakr al-Muqaddasiy (946/947-1000) Bulg'oriyadan Xorazmga olib kelinadigan tovarlarning ro'yxatini quyidagicha keltiradi: sobol, olmaxon, oqsichqon, suvsar, o'rmon suvsari, tulki, qunduz mo'ynasi; quyon va echki terisi, mum, kamonlar, yirik baliq, telpak, bakra baliq yelimi, baliq tishi (morj tishi *muall.*), mushk (suv qunduzi ipori), qahrab, yumshoq ko'n (bulg'ori charm), mis, yong'oq, qoplonlar (yoki tozi itlar), qilich, sovut, qayin yog'ochi, slavyan qullari, qo'ylar va shoxli qoramol<sup>1</sup>.

1136-yili Bulg'orda bo'lgan ispaniyalik Abu Hamid al-Andalusiy Xorazmga sotish uchun yuborishga mo'ljallangan katta mamont tishlarni ko'rganligini yozadi. Uning fikricha, Xorazmda undan turli xil narsalar yasashda foydalanan ekanlar<sup>2</sup>. Bizningcha, Andalusiy ko'rgan katta tishlar morjlarga tegishli bo'lsa kerak.

Bulg'orlar bir necha qabiladan tashkil topgan. O'z vaqtida Abu Ali Ahmad ibn Umar ibn Rusta (IX asrning ikkinchi yarmi – X asrning boshi) bulg'orlarni uch guruhga ajratgan edi: 1. Bursula. 2. Asg'al. 3. Bulg'or<sup>3</sup>. Abu Abdulloh Shahobiddin Yoqub ibn Abdulloh ar-Rumiyy al-Hamaviy (1179-1229) o'zining bir asarida al-Kalbiyning tilidan Xazar, Bursul va Xorazmning o'zaro do'stligini yozib qoldirgan. Kalbiy, Xazar, Bursul va Xorazm mamlakatlarining bir-biriga yaqin joylashganligini ham ta'kidlaydi<sup>4</sup>. Hasan Ato Abushiy, xolis (xolin) bulg'orlari (turklari) haqida gapira turib, xolis nomini Xorazm nomidan kelib chiqqanini ehtimol qiladi. Bundan tashqari, u o'sha davr (1907)dagи "xolin mishar"lari deb ataladigan turklar Xorazm atrofidagi bulg'or va mojarlar naslidan ekanligini ta'kidlaydi<sup>5</sup>. Abushiyning yozishicha, bulg'orlar islom dinini qabul qilgach, Kama va Volga bo'yalaridagi yaqin qarindoshlari boshqird va

<sup>1</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 180, 181 (прим. 98). С.М.Шпилевский татар (bulg'orlar nazarda tutilyapti) уонг'ог'ининг О'рта Осиюда "г'о'зи bulg'ori" deb atalishini yozadi. *Qarang:* Шпилевский С.М. О задачах деятельности Казанского ОАИЭ и о возможном содействии обществу со стороны жителей местного края. – Изв. ОАИЭ, т. III. – 1880-1882 год. Казань. 1884. – стр. 6.

<sup>2</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 88 (прим. 29).

<sup>3</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 22.

<sup>4</sup> Известия о Хозарах, ... – стр. 93 (прим. 34).

<sup>5</sup> Abushiy Hasan Ato. Turkiy qavmlar tarixi. – Toshkent: "Cho'Ipon" nashriyoti, 1995. – 123-bet.

misharlarni, uzoq qarindoshlari bo‘lgan finlar: oz, chirmish, chuvash va mordva burtoslarini ham musulmon qildilar<sup>1</sup>.

Hoji Xalifa nomi bilan mashhur Mustafo ibn Abdulloh Kotib Chalabiy (1609-1657) “Jahon-noma” (جهان نامه) asarida xorazmlik ikki islom ulamosining Bulg‘or borasidagi shar‘iy bahsini keltiradi. Ma’lum bo‘lishicha, bulg‘orlar o‘zlarining yurtida “yozda kechasi qorong‘u bo‘lmasligi sababli xufton namozini o‘qimasa ham bo‘laveradimi?”, – deb murojaat qilishgan ekan<sup>2</sup>. Hoji Xalifa bulg‘orlarning Xorazmga, mashhur faqih Imom Baqqoliy (XI asr) huzuriga shar‘iy masala yuzasidan elchi yuborganliklarini ham ta‘kidlaydi<sup>3</sup>.

XII asrda Bag‘dodda yashagan muarrix Abul Faraj ibn al-Javziy (1115-1200), 1042-yili Makkaga haj ziyyaratiga chiqqan bulg‘orlik amaldor yonida 50 nafar ziyyoratchi hamrohligida Bag‘dod shahriga kelganini hikoya qiladi. Uni xalifaning saroyida mehmon qiladilar. Bulg‘orlik amaldorning hamrohlari orasida xorazmiy Ya’la bin Ishoq ismli shaxs ham bo‘lgan. Uni xalifaning saroyida qozining guvohligida, qasam ichtirib so‘roq qiladilar. Jumladan, Ya’la bin Is’hoqdan bulg‘orlarning qanday xalq ekanligini so‘raganlar. U quyidagicha javob bergen: “Bu xalq kelib chiqishiga ko‘ra turklar va slavyanlar orasida turadi va ularning mamlakati turklar yurtining chekkasida joylashgan”<sup>4</sup>.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki, Volga bulg‘orlari bilan xorazmliklar tarixan juda uzoq vaqt davomida o‘zaro madaniy va iqtisodiy aloqada bo‘lganlar. Bu aloqlar o‘sha vaqtida har ikki xalqning turmush tarzi, tili va yozuvida o‘z izini qoldirgan. Volga bulg‘orlarining asosiy tili qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, ular islom dinini qabul qilgach, islom dinini qabul qilgan boshqa xalqlar singari arab yozuvidan foydalana boshlaganlar<sup>5</sup>. N.I.Ashmarin bulg‘orlarning spetsifik turkiy tovushlarni ifodalash uchun arab yozuvida bo‘lgan quyidagi xarflarni qo‘llashga majbur bo‘lganliklarini yozadi:

arabcha “be” ↗ harfi ~ bulg‘orcha “p” tovushini ifodalagan;

<sup>1</sup> Abushiy Hasan Ato. Turkiy qavmlar tarixi. ... – 102-bet.

<sup>2</sup> Известия о Хозарах. ... – стр. 89 (прим. 29).

<sup>3</sup> Григорьев В.В. Россия и Азия. – СПб., 1876. – стр. 92.

<sup>4</sup> Кляшторный С.Г., Савинов Д.Г. Степные империи древней Евразии. – СПб.: СПб ГУ, 2005. – стр. 73.

<sup>5</sup> Григорьев В.В. Россия и Азия. ... – стр. 101.

arabcha “jim” җ harfi ~ bulg‘orcha “ch” tovushini ifodalagan;

arabcha “hoyi havvaz” һ harfi ~ bulg‘orcha “h” tovushini ifodalagan<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, Volga bulg‘orlarining arab yozuvidagi matnlarida ayrim holatlarda, bulg‘orcha tovushlarni ifodalashda xarflarga xuddi xorazm yozuvidagidek maxsus satr osti diakritik belgilar qo‘llanilgan:

arabcha “dol” harfi – d (ð): bulg‘orcha ڏ ~ xorazmcha ڏ ;

arabcha “re” harfi – r : bulg‘orcha ڙ ~ xorazmcha ڙ ;

arabcha “sin” harfi – s: bulg‘orcha ڦ ~ xorazmcha ڦ . va hok.

G.F.Myuller bulg‘or qabrtoshlaridagi yozuvlarda nomi keltirilgan marhumlarning aksari kelib chiqishi Bulg‘or, Shemox, Shirvon, Kardar va Samarqand shaharlaridan ekanligini ta’kidlaydi<sup>2</sup>. N.I.Zolotnitskiy esa, bulg‘or epitafiyalarida Shayx Kardariy ismi uchrashini yozadi<sup>3</sup>. Bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Chunki Xorazmnинг Kardar shahridan chiqqan ularmolar Volgabo‘yi hududlarida ancha dovrug qozongan. Manbalarda xorazmlik mashhur faqih Muhammad ibn Muhammad ibn ash-Shihob ibn Yusuf al-Kardariy (vaf. 1422)ning Volga daryosi bo‘yidagi Saroy shahrida bir necha yil yashagani aytildi.

XIII-XIV asrlarda Bulg‘or va Xorazm Oltin O‘rda davlati tarkibida bo‘lgan. Bu holat ilgaridan o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lgan bu ikki hududning bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitda bo‘lishiga olib kelgan. Hatto XIV asrning birinchi yarmida O‘zbekxonning tangalari Volga va Xorazmda bir xil shaklda zarb qilingan<sup>4</sup>. Ma’lumki, Xorazmnинг aholisi XIV asrga kelib to‘liq fikricha, bulg‘orlar ham XIV asrga kelib turkiylashgan. Bu jarayon ushbu hududga turkiy qabilalarning ko‘chib kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Natijada

<sup>1</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши. ... – стр. 103; Хакимзянов Ф. Следы диалектов в языке памятников Волжской Булгарии // Советская Тюркология. – Баку, 1974. – №4. – стр. 26.

<sup>2</sup> Мюллер Г.Ф. О народах издревле в России обитавших /Пер. с нем. И.Долинским/. – СПб., 1773. – стр. 52.

<sup>3</sup> Золотницкий Н.И. Лингвистическая заметка и названиях Булгар, Бияр и Морквашы. – Изв. ОАИЭ. При

Казанском Императорском университете. – т. III. – 1880-1882 год. Казань. – 1884. – стр. 37.

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Сочинения. – т. V. – Москва: «Наука», 1968. – стр. 134.

turkiy element bulg'orlarning (ko'p o'tmay chuvashlarning) tilida yetakchi mavqega ega bo'lgan<sup>1</sup>.

Bulg'orlar tiliga doir ko'pchilik muhim ma'lumotlar venger solnomalaridan, slavyan-bolgar nomnomasidan, venger tilida saqlanib qolgan bulg'or o'zlashmalaridan ham ma'lum<sup>2</sup>. Bulg'or tilidagi *s>sh* hodisasi umumslavyan *chasha* so'zi etimologiyasini aniqlashda qo'l keladi. Umumslavyan *chasha* so'zi bulg'or tilidan (*kāsā*) o'tgan bo'lib, bulg'or tiliga eroniy tillardan o'zlashgan<sup>3</sup>. Bizningcha, bulg'or tilidagi *kāsā* xorazm tilidan o'zlashgan. D.S.Nosirov qoraqalpoq tili va Xorazm vohasidagi boshqa xalqlarning tilidagi substrat qatlam asosan eroniy tillar guruhiга kiruvchi xorazmiy tiliga oidligini ta'kidlab, misol tariqasida mazkur qatlamiga oid bir necha so'zlarni keltiradi. Keltirilgan misollar orasida uncha katta bo'limgan piyolani anglatuvchi *kese||kāsa||kasa* so'zi ham bor<sup>4</sup>. XV asr xorazm yozma yodgorliklarida, jumladan, Hafiz Xorazmiyda *kas* "kosa" ma'nosini anglatgan<sup>5</sup>. Shuningdek, A.A.Freyman ruscha *busurman* so'zini o'zbek tilidagi (xorazm shevasida) *musurman* (ar. مسلمان) "musulmon" manbasidan o'zlashganini ta'kidlaydi<sup>6</sup>. Bizningcha, mazkur so'z rus tiliga xorazm tilidan bulg'orlar orqali o'tgan. Qarang: bulg'orcha *biserman* "musulmon".

<sup>1</sup> Федотов М.Р. В.В. Радлов и Н.И. Ашмарин о происхождении чувашского языка // Советская Тюркология. – Баку, 1971. – №5. – стр. 116.

<sup>2</sup> Джидапшиев Н.С. К вопросу о языке древних тюроков восточного Кавказа // Советская Тюркология. – Баку, 1971. – №5. – стр. 46-47.

<sup>3</sup> Добродомов И.Г. Тюркизмы славянских языков как источник сведений по исторической фонетике тюркских языков (соответствие s ~ š) // Советская Тюркология. – Баку, 1971. – №2. – стр. 88.

<sup>4</sup> Насыров Д.С. Общая характеристика диалектных систем каракалпакского языка и опыт их классификации // Советская Тюркология. – Баку, 1974. – №4. – стр. 11.

<sup>5</sup>Хоразмий Хофиз. Девон, П. – Тошкент, 1981. – 258-бет.

<sup>6</sup> Фрейман А.А. Хорезмийский язык. – Москва, 1951. – стр. 117.

#### 1.4. Chuvash tili va o'zbek shevalari orasidagi leksik parallelar

Chuvash tili – turkiy tillarning bulg'or guruhiga mansubdir. Chuvash adabiy tili XIX asrning so'nggi choragida shakllangan. U quyi (*anatri*) va yuqori (*viryal*) dialektlardan iborat. Quyi dialekt adabiy tilning asosini tashkil qiladi. Dialektlar Volgaga nisbatan ajratilgan. Ikkala dialektda bir qancha shevalar mayjud. Chuvash tili tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda bu til tarixi shunday davrlashtiriladi:

- 1) Ilk bulg'or (miloddan oldingi II asr – milodiy III asr);
- 2) Qadimgi bulg'or (milodiy IV – XII asrlar);
- 3) O'rta bulg'or (XIII – XVI asrlar);
- 4) Yangi bulg'or yoki chuvash (Oltin O'rda va Qozon xonligi davrlari)<sup>1</sup>.

Chuvash tili tarixining uch bosqichi bulg'or davriga to'g'ri keladi. Turkshunoslikda umumturkiy holat o'rnnini aniqlash ko'pincha, bulg'or tillari shoxobchasingning o'ziga xosligi tufayli qiyinlashadi. Chunki bulg'or tillari shoxobchasingning yagona davomchisi va zamonaviy reprezentanti bo'l mish chuvash tili turkiy va mo'g'ul tillari oilasining oralig'ini tashkil qiladi<sup>2</sup>. Ma'lumki, chuvash tili Bulg'or tilining davomchisi hisoblanadi. Hasan Ato Abushiy Ulug' Bulg'oriya mamlakatining hududi Ural-Yoyiq daryosi, Perm, Kama, Vyatka bo'ylaridan Itil va Oka daryolarining bo'yłari va ularning janubiy-g'arb tomoni, Dnepr, Qora dengiz, Qrim, Kavkaz, Astraxan dengizi bo'yalarini qamrab olganligini yozadi. U hatto Orol dengizi bo'yłari ham Bulg'oriyadan sanalishini ta'kidlaydi. Abushiy mazkur hududda yashovchi mishar, boshqird, xolis (*xvolis muall.*) kabi turkiy xalqlar; vog'ul, vutoq (*votyag muall.*), chirmish, chuvash, arablar “burtos” deb ataydigan mordva singari fin qavmlarining barchasi Bulg'orga tobelligini yozib qoldirgan<sup>3</sup>. Jumladan, u

<sup>1</sup> Андреев И.А. Чувашский язык. – Языки мира: Тюркские языки. – Бишкек, 1997. – стр. 480-481.

<sup>2</sup> Гарипов Т.М. Понятие общетюркское языковое состояние и вопросы исторического развития кыпчакских языков Урало-Поволжья // Советская Тюркология. – Баку, 1971. – №2. – стр. 76.

<sup>3</sup> Abushiy Hasan Ato. Turkiy qavmlar tarixi. ... – 98-bet.

chuvasch tilini “ozgina finlashmish, yo esa finlig‘i oz qolmish turkiy til” deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

Chuvash tiliga oid ayrim so‘zlar vengriyalik madyarlar, slavyanlar va prus tillariga o‘zlashgan. Bu o‘zlashmalarni venger olimi B.Munkachi o‘rgangan. B.Munkachi slavyan tiliga o‘zlashgan ayrim so‘zlarni chuvash tiliga yaqin bo‘lgan qandaydir turkiy lahjadan o‘zlashganini ta’kidlaydi. N.I.Ashmarin B.Munkachining ishlari bilan tanishib, slavyan tilidagi ayrim o‘zlashma so‘zlar chuvash tilidagi so‘zlarga o‘xshashligini yozadi va ulardan namuna keltiradi<sup>2</sup>. N.I.Ashmarin mazkur o‘xshashlik haqida shunday fikr bildiradi: “Bu yerda men faqat slavyan va chuvash tillarida aniqlaganim o‘xhash so‘zlargagina e’tiboringizni qaratayapman. Men u yoki bu so‘zning o‘zlashishiga qaysi til manba bo‘lib xizmat qilganini aniqlashga to‘xtalayotganim yo‘q. Chunki bu masalani hal qilish uchun alohida izlanishlar olib borish talab qilinadi...”<sup>3</sup>.

Biz N.I.Ashmarin keltirgan namunalar orasidan o‘zbek tilining xorazm shevalari leksikasida ham analogi uchraydigan so‘zlarni aniqladik:

slavyancha<sup>4</sup> батоғъ, chuvash tilida<sup>5</sup> наамак “tayoq, xoda” ~ o‘zbek (xorazm shevalari<sup>6</sup>) tili<sup>7</sup>da наимик “shipning xodalari”, “ship”<sup>8</sup>;

slav. баканъ, chuv. нуқан “kesimta, qirindi” ~ o‘zb. (xor. sh.) нуған “katta randa” (Abdullayev, I:74);

slav. згъръ, chuv. чакарп “ko‘kko‘z” ~ Nosiruddin Rabg‘uziyda чақирип “ko‘kko‘z”<sup>9</sup>;

slav. кичири, chuv. киичәр “sabzi” ~ o‘zb. (xor. sh.) гаширип (Abdullayev, I:32);

<sup>1</sup> Abushiy Hasan Ato. Turkiy qavmlar tarixi. ... – 35-bet.

<sup>2</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши. ... – стр. 112 (прим. 13).

<sup>3</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши. ... – стр. 114 (прим. 13).

<sup>4</sup> Keyingi o‘rnirlarda *slav.*

<sup>5</sup> Keyingi o‘rnirlarda *chuv.*

<sup>6</sup> Keyingi o‘rnirlarda *xor. sh.*

<sup>7</sup> Keyingi o‘rnirlarda *o‘zb.*

<sup>8</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг хоразм шевалари, I. – Тошкент, 1961. – 74-бет. Кейинги ўриниларда Абдуллаев, I.

<sup>9</sup> Рабгузий Носуриддин. Киссан анбиё, II. – 1990. – 56-бет. Кейинги ўриниларда Rab., II.

slav. *соурына*, chuv. *сырнай* “surnay” ~ o'zb. (xor. sh.) *сурнай* (Dala yozuvlari);

slav. *шаръ*, chuv. *сыр* “sir, bo‘yoq” ~ o'zb. (xor. sh. va o‘g‘uz lahj.) *cīr* “bo‘yoq” (Dala yozuvlari)<sup>1</sup>;

slav. *чаканъ*, chuv. *чакан* “qamish” ~ o'zb. (xor. sh.) *якан* “yakan (qamishsimon o‘simlik)” (Abdullayev, I:52).

Tabiiyki, Bulg‘or va Xorazm o‘rtasida qariyb V asr davom etgan o‘zaro madaniy iqtisodiy aloqalar bu hudud aholisining tilida ham aks etgan bo‘lishi mumkin. Qadimdan Bulg‘or va Xorazm hududlari o‘rtasida bir qancha ko‘chmanchi va yarim o‘troq qabilalar yashagani ma‘lum. Ular alan, xazar, o‘g‘uz va pecheneg qabilalari edi. Bu qabilalar eroniylardan turkiy tillarda so‘zlashganlar. Bulardan, ayniqsa, o‘g‘uzlarning bulg‘or va xorazmiylarga ta’siri kuchli bo‘lgan. Bulg‘or tilining davomchisi bo‘lgan chuvash tilida, shuningdek, o‘zbek tilining xorazm shevalarida bir xil o‘g‘uzcha so‘zlar ko‘plab uchrashi fikrimizga dalildir.

Chuvash tili boshqa turkiy tillardan yiroq bo‘lgan hududlarda muomalada bo‘lgani uchun uning rivojlanishi o‘zga tizimdagи tillar – eroniylardan slavyan tillari bilan uzoq davom etgan jarayonda kechdi. Chuvash tilining yuqori dialekti leksikasiga fin-ugor va slavyan tillari ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, quiyi dialekt leksikasida arab-fors va turk-mo‘g‘ul tillarining ta’siri ko‘proq darajada seziladi. Chuvash tilida mo‘g‘ul, arab-fors, fin-ugor, tatar va ruscha leksik o‘zlashmalar mavjud. Mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan so‘zlar asosan chorvachilikka oiddir. Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar diniy-ma’rifiy doirada bo‘lsa, eroniylardan o‘zlashgan so‘zlar kamchilikni tashkil qilib, ular o‘rmonchilikka doir so‘zlar hisoblanadi<sup>2</sup>.

Shu paytga qadar chuvash tiliga turkiy, fin-ugor, xitoy, mo‘g‘ul, arab, yahudiy, slavyan va eroniylardan o‘zlashmalar qabul qilinganligi aniqlangan.

<sup>1</sup> Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўгуз лаҳжаси. – Тошкент, 1973. – 171-бет. Кейинги ўринларда Madrahimov, 1973.

<sup>2</sup> Андреев И.А. Чувашский язык. – Языки мира: Тюркские языки. – Бишкек, 1997. – стр. 489.

XII asrning birinchi yarmida mo'g'ullar dastlab xorazmshohlar davlatini, ko'p o'tmay Buyuk Bulg'oriya davlatini ham istilo qildilar. Xorazm va Bulg'oriyaning aholisi So'siyalar davlati (1360) va Qozon xonligi (1438) barpo bo'lguna qadar Oltin O'rda tarkibida bo'ldilar. Mo'g'ullar hukmronlik qilgan hududlar aholisi tiliga ko'plab mo'g'ulcha so'zlar o'zlashgan. O'zbek tilining xorazm shevalari leksikasida mo'g'ulcha so'zlar unchalik ko'p emas. Chuvash tili haqida bunday deb bo'lmaydi. Mutaxassislar chuvash va mo'g'u'l tillarining ko'p jihatdan o'xhashligini qayd qiladilar<sup>1</sup>. V.V.Radlov chuvash tilida kelib chiqishiga ko'ra turkiy bo'limgan shakl yasovchi elementlar mavjudligini, chuvash tilining ilk asosi turkiy bo'limganligini, aks holda, bu til qolgan turkiy tillardan bunchalik farq qilmagan bo'lishini ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

Biz quyida o'zbek tilining o'g'uz lahjasi, o'zbek tilining xorazm shevalari va Qoraqalpog'istondag'i o'zbek shevalari leksikasi bilan chuvash tili leksikasidagi bir xil mo'g'ulcha (va mo'g'ulcha ekanligi ehtimol qilingan) o'zlashma so'zлarni keltiramiz:

*йёвён* – “yugan”<sup>3</sup>. O'zb. (xor. sh.) *юзён* «suvliq» (Dala yozuvlari), o'zb. (o'g'uz/qipchoq lahj.) *юйэн* «suvliq» (Madrahimov, 145).

*имен* – «uyalmoq» (CHRS:37). O'zb. (xor. sh.) *ийманмәк* «пoumid bo'lmoq, shashti qaytmoq» (Abdullayev, I:47).

*кулёни* – «rashk qilmoq» (CHRS:67). O'zb. (xor. sh.) *кулламәк* «уотон ко'rmoq; ko'ra bilmaslik» (Abdullayev, I:57).

*калаавса* – «roviy (hikoya aytuvchi)» (CHRS:44). Mahmud Zamakhshariyda *калаажэ* «so'zlamoq»<sup>4</sup>. O'zlashish manbasi: mo'g'. *келекси* «roviy»<sup>5</sup>. Yana qarang: chuv. *кала* 1. So'zlamoq; 2. O'qimoq (CHRS:44).

<sup>1</sup> Баскаков Н.А. Основные теоретические направления в изучении алтайской семьи языков // Советская Тюркология. – Баку, 1970. – №1. – стр. 32.

<sup>2</sup> Федотов М.Р. В.В.Радлов и Н.И.Ашмарин о происхождении чешского языка // Советская Тюркология. – Баку, 1971. – №5. – стр. 116.

<sup>3</sup> Чувашско-русский словарь. – стр. 40. Keyingi o'rirlarda CHRS.

<sup>4</sup> Замахшари Махмуд. Мукалдамат ул-адаб. – Т., 2003. – 182-бет. Кейинги ўринларда Zamakhshariy, 2003.

<sup>5</sup> Поппе Н.Н. Монгольский словарь “Мукалдамат ал-адаб”, ч. 1-2. – Труды ИВ АН СССР, т. 14. – М.-Л.. – стр. 70.

*наҳмá* – “no’xta” (CHRS:73). O’zb. (xor. sh.) *ноҳма* “no’xta” (Abdullayev, I:70). O’zlashish manbasi: mo’g’. *ноҳма* “no’xta” (Poppe, 95).

*нұмайды* – «ко’п, serob, uzoq» (CHRS:74). O’zb. (xor. sh.) *номай* «ко’п, serob» (Abdullayev, I:70), o’zb. (o’g’uz lahj.) *номай* «мо’л-ко’л, mo’may» (Madrahimov, 160), o’zb. sh. *номай* «мо’л, mo’л-ко’л, serob; ko’p»<sup>1</sup>.

*тике* – «xonimlarga, go’zal qizlarga hurmat bilan murojaat qilish» (CHRS:86). O’zb. (xor. sh.) *бікә* «kekkaygan, g’urur (xotinlarga nisbatan kinoya bilan qo’llanadi) tannoz, xonim» (Abdullayev, I:28), q.-q. o’zb. sh. *бийкә* «1. onaboshi; 2. Kuyovga berilayotgan qiz» (Ishayev, 83).

*nycaxá* – “ostona” (CHRS:94). O’zb. (xor. sh. va o’g’uz lahj.) *босаға* “ostona” (Dala yozuvleri; Madrahimov, 120). O’zlashish manbasi: mo’g’. *босаға* “ostona” (Poppe, 39).

*самах* – «1. So’z; 2. So’z, nutq» (CHRS:103). Qutb Xorazmiyda *сан* «so’z, kalima»<sup>2</sup>. O’zb. (xor. sh. va o’g’uz lahj.) *сансан* “sergap, ezma” (Madrahimov, 167); xor. *сансанланылақ* «ezmalik qilmoq, gap sotmoq», *сіммірдамақ* «ming’illamoq» (Abdullayev, I:78, 82); q.-q. o’zb. sh. *сансанланылақ* «ezmalik qilmoq, gap sotmoq» (Ishayev, 150). Yana qarang: q.-q. o’zb. sh. *сүмсүм* “mayda gap, bachkana” (Ishayev, 153).

*урна* – “arpa” (CHRS:151). O’zb. (xor. sh.) *apna* “arpa” (Dala yozuvleri). O’zlashish manbasi: mo’g’. *арбау* “arpa” (Poppe, 43).

*хача* – «qaychi» (CHRS:157). O’zb. (xor. sh.) *қайчى* «qaychi» (Dala yozuvleri). O’zlashish manbasi: mo’g’. *қайчи* «qaychi» (Poppe, MA, II:406).

*хынаган* – «shoshilmоq» (CHRS:167). O’zb. (xor. sh. va q.-q. o’zb. sh.) *ханагај* «hovliqma, shoshma-shoshar (odam)» (Dala yozuvleri; Ishayev, 166).

*шабрнák* – «gugurt» (CHRS:178). O’zb. (xor. sh.) *шірпі* «gugurt» (Dala yozuvleri), q.-q. o’zb. sh. *чірпі* «gugurt» (Ishayev, 171).

<sup>1</sup> Ишаев А. Коракалпогистондаги ўзбек шевалари. – Т., 1977. – 142-бет. Keyingi о’ринларда Ishayev.

<sup>2</sup> Фозилов Э. XIV аср Хоразм әдномалари. – Тошкент, 1973. – 247-бет. Keyingi о’ринларда Foz., 1973.

*шалавар* – «shim» (CHRS:177). О‘zb. (xor. sh.) *чалвір/чалбір* «shim» (Abdullayev, I:95), о‘zb. (o‘g‘uz lahj.) *чалвур* «shim» (Madrahimov, 185), q.-q. о‘zb. sh. *чалбар//чалбір//чалвір* «shim» (Ishayev, 168).

Chuvash tili mutaxassislar tomonidan turkiy tillarning qipchoq tipiga yaqin deb qaralsa-da, uning leksik fondida o‘g‘uzlar orqali o‘zlashgan so‘zlar ham uchraydi. Mazkur so‘zlar o‘g‘uz tipidagi turk, ozarbayjon, turkman tillarida, shuningdek, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasida, jumladan o‘zbek tilining janubiy Xorazm dialekti leksik tarkibida ham mavjud. Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, chuvash tiliga o‘zlashgan qipchoq-o‘g‘uz elementlari bu tildagi bulg‘or tili negizidagi bir qator mavjud qonuniyatlarning yo‘qolishiga olib kelgan<sup>1</sup>. Tubanda chuvash tili leksik fondidan o‘rin olgan o‘g‘uzlar orqali o‘zlashgan so‘zlar Xorazm yodnomalari (XIV-XV), xorazm shevalari, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasи, o‘zbek xalq shevalari va Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari leksikasidagi so‘zlar bilan qiyoslanadi.

*ávān* – «yanchmoq, don yanchish» (CHRS:9). О‘zb. (xor. sh.) *овнақ* «maydalamoq, uvalamoq» (Abdullayev, I:70); о‘zb. (o‘g‘uz lahj.) *уевмақ* «uvalamoq, maydalamoq» (Madrahimov, 179).

*çānai* – «chipqon» (CHRS:116). О‘zb. (xor. sh. va o‘g‘uz lahj.) *чубан* «chipqon» (Abdullayev, I:100; Madrahimov, 187).

*çatān* – «Chetan devor, to‘sinq, panjara» (CHRS:115). О‘zb. (xor. sh. va o‘g‘uz lahj.) *четəн* «bog‘larning atrofi o‘rab qo‘yilgan to‘sinq» (Dala yozuvlari; Madrahimov, 186).

*çÿñ* – «axlat» (CHRS:121). О‘zb. (xor. sh.) *суплик* «axlat» (Dala yozuvlari), о‘zb. (o‘g‘uz lahj.) *сиплик/сунлик* «axlat» (Madrahimov, 171, 173), q.-q. о‘zb. sh. *сиплик/сүнлик* «supurindi, axlat» (Ishayev, 153).

*çypēn* – «1. mahkam, qattiq; 2. Sog‘lom» (CHRS:121). О‘zb. (xor. sh. va o‘g‘uz lahj.) *cipn* «mahkam, og‘ir» (Dala yozuvlari; Madrahimov, 171).

<sup>1</sup> Добродомов И.Г. Тюркизмы славянских языков как источник сведений по исторической фонетике тюркских языков (соответствие s ~ š) // Советская Тюркология. – Баку, 1971. – №2. – стр. 81.

*ai* – «ost, tub, tag, quyi. past; pastki, ostki» (CHRS:11). O'zb. (xor. sh.) *oñ* «past, chuqur» (Abdullayev, I:71); o'zb. (o'g'uz lahj.) *oñ* «pastlik, chuqurlik, jar» (Madrahimov, 161).

*ai* – «qo'b» (CHRS:11). O'zb. (xor. sh., o'g'uz lahj., o'zb. sh.) *ai* «qo'l» (Abdullayev, I:23; Madrahimov, 114; Ishayev, 76).

*anmāp* – «tushirmoq, pasaytirmoq, quyi solmoq, qo'ymoq; solmoq, tashlamoq» (CHRS:13). O'zb. (xor. sh.) әндең «solmoq, qo'ymoq, tushirmoq» (Dala yozuvlari).

*annāpā* – «o'zini yo'qotib qo'ymoq, dovdiramoq; sarosimaga tushmoq» (CHRS:15). O'zb. (o'g'uz lahj. va o'zb. sh.) *annīramak* «1. Yanglishmoq, adashmoq; 2. Bosinqiramoq, alahlamoq (uxlaganda)» (Madrahimov, 110; Ishayev, 72).

*ac* – “xotira, ong, tushuncha” (CHRS:15). O'zb. (xor. sh.) *ac* «e'tibor etmoq; diqqat qilmoq» (Abdullayev, I:24).

*äccäp* – «tentak, ahmoq» (CHRS:20). O'zb. (xor. sh.) *cəppi* «jinnisimon kishi» (Abdullayev, I:80); o'zb. sh. *əcəp* «tentak, telba; merov» (Ishayev, 100).

*acāpxā* – «ko'rmoq, ko'zi tushmoq; sezib qolmoq, payqab qolmoq» (CHRS:15). O'zb. (xor. sh.) *cərləmək* «sin solib qaramoq» (Dala yozuvlari).

*up* – «erta, azon» (CHRS:38). O'zb. (xor. sh.) *əp* “erta” (Dala yozuvlari), q.-q. o'zb. sh. *up* “erta” (Ishayev, 112).

*kělmé* – «bog'lam» (CHRS:51). O'zb. (xor. sh., o'g'uz lahj., o'zb. sh.) *култә* «bog'; pichan, beda bog'i, xas-cho'p va b.)» (Dala yozuvlari; Madrahimov, 149; Ishayev, 123).

*kēnér* – «ko'priks» (CHRS:296). O'zb. (xor. sh.) *kōnpip* «ko'priks» (Abdullayev, I:57).

*kēsъé* – «cho'ntak» (CHRS:53). Sayfi Saroyida *kuc* «hamyon» (Foz., 20). O'zb. (xor. sh. va o'g'uz lahj.) *kucə* «cho'ntak, hamyon» (Abdullayev, I:56; Ishayev, 76).

Madrahimov, 148). Shuni qayd etish lozimki, slavyan, bulg'or va turkiy tillardagi күсә со‘зининг еронија ега еканлиги айтилади<sup>1</sup>.

карт – «belgi qo‘ymoq, kertmoq» (CHRS:46). O‘zb. (xor. sh.) кәртік «belgi qo‘ymoq» (Dala yozuvlari), o‘zb. (o‘g‘uz lahj.) кәртик «sus o‘lchagichning yuqori qismi» (Madrahimov, 147).

кирпеч – «g‘isht» (CHRS:55). Mahmud Zamaxshariyda кәрбии «g‘isht» (MA:110). O‘zb. (xor. sh. va o‘g‘uz lahj.) кәрвиچ “g‘isht” (Dala yozuvlari; Madrahimov, 146); q.-q. o‘zb. sh. ғәрбии/кәрвиچ «g‘isht» (Ishayev, 89, 119).

күйкерт – «oltingugurt, sulfat» (CHRS:62). Nosiruddin Rabg‘uziyda әүгүрт «gugurt» (QR, II:64). O‘zb. (xor. sh.) күеүрт «gugurt» (Abdullayev, II:57).

лана – «savat sumka, korzinka, to‘rxalta; xaltacha; hamyon, karmon» (CHRS:64). O‘zb. (xor. sh., o‘g‘uz lahj., q.-q. o‘zb. sh.) лана «konvert (xat solish uchun)» (Abdullayev, II:64; Madrahimov, 156; Ishayev, 134).

лумпа – «pastki, quyi, pastak, yerlagan» (CHRS:65). O‘zb. (xor. sh.) лөмәрә «suvning tagiga cho‘kkan loy; quyqum» (Abdullayev, II:65), o‘zb. til. o‘g‘uz. lahj. лөмпа “to‘tra” (Madrahimov, 156), q.-q. o‘zb. sh. лөмәра/лөмпа «loyqa, nihoyatda loyqali» (Ishayev, 135).

нăрăç – «murch, qalampir» (CHRS:81). O‘zb. (xor. sh.) бурч «murch, qalampir» (Abdullayev, II:30), o‘zb. (o‘g‘uz lahj.) бурч «murch, qalampir» (Madrahimov, 122), q.-q. o‘zb. sh. бурч «garmdori» (Ishayev, 86).

нăрпам – «1. Fitna solmoq, loyqalantirmoq, adashtirmoq, aralash-quralash (chalkash-chulkash) qilib yubormoq; 2. Kovlamoq, ag‘darmoq, titmoq; chalkashmoq, chalkashtirmoq» (CHRS:81). O‘zb. (xor. sh.) nampam «chatoq, chalkash, poyma-poy» (Abdullayev, II:74), o‘zb. (o‘g‘uz lahj.) nampam «chalkash, ishkal, biror qiyig‘i chiqadigan qing‘ir ish» (Madrahimov, 164), q.-q. o‘zb. sh. nampam/nampam 1. Chalkash, chatoq; chala; 2. Janjal, mojaro, гавг\*о (Ishayev, 145); o‘zb. xalq sh. (Qashqadaryo) номаром “vayrona”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Добродомов И.Г. Тюркизмы славянских языков как источник сведений по исторической фонетике тюркских языков (соответствие s ~ ʂ) // Советская Тюркология. – Баку, 1971. – №2. – стр. 89-90.

<sup>2</sup> Узбек халқ шевалари лугати. – Т., 1971. – 214-бет. Keyingi о‘rinlarda O‘XShL.

*năxăny* – «bo‘ysunmoq, qaram bo‘lmoq» (CHRS:82). O‘zb. (o‘g‘uz lahj.) *бахна* «qaram, muhtoj, birovning qaramog‘ida bo‘lgan odam (odam)» (Madrahimov, 118).

*năxăp* – «mis» (CHRS:82). Nosiruddin Rabg‘uziyda *бақыр* «mis» (QR, II:220). Xor. sh. *бақыр* “mis tanga” (Dala yozuvlari), o‘zb. (o‘g‘uz lahj. va q.-q. o‘zb. sh.) *бақир* «misdan yasalgan chaqa pul» (Madrahimov, 117; Ishayev, 80). M.A.Xabichev eski slavyan va qad. rus. «qizil bo‘yoq (rang)» ma’nosidagi *бағр* (*бағор*) so‘zini bulg‘or tilidan o‘zlashgan deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

*nai* – «qism, ulush» (CHRS:76). O‘zb. (xor. sh.) *nai* «nasiba, haq; ulush» (Abdullayev, II:73), q.-q. o‘zb. sh. *nai* “ulush, hissa” (Ishayev, 144).

*nambəp* – «kuchli, baquvvat» (CHRS:79). O‘zb. (xor. sh.) *баадланмақ* «kuchaymoq» (Abdullayev, II:25), q.-q. o‘zb. sh. *баадлі* «kuchli, quvvatli» (Ishayev, 79). Yana qarang: q.-q. o‘zb. sh. *баад* «kuch-quvvat» (Ishayev, 81). N.I.Ashmarin Senkovskiyning fikriga tayanib, *Бомвар* (بوموار) ismli bulg‘or podshohi bo‘lganligini yozadi<sup>2</sup>.

*nampak* – «mo‘rt, sinuvchan, nozik» (CHRS:177). O‘zb. (xor. sh.) *nəmərəmək* «titmoq» (Abdullayev, II:74).

*cäcä* – «tovush, ovoz» (CHRS:102). O‘zb. (xor. sh. va o‘g‘uz lahj.) *caza* «tovush», *cəc* «ovoz, tovush» (Dala yozuvlari; Madrahimov, 166, 170); q.-q. o‘zb. sh. *cəza* «ovoz, sado» (Ishayev, 149).

*çyñ* – «ulamoq, birlashtirmoq, biriktirmoq, bog‘lamoq» (CHRS:112, 113). O‘zb. (xor. sh.) *caniuu* «ulash; payvandlash» (Abdullayev, II:78), o‘zb. (o‘g‘uz lahj.) *can* «payvand etish» (Madrahimov, 168), q.-q. o‘zb. sh. *caðiñ* «payvandi» (Ishayev, 148). Yana qarang: xor. sh. *canmaq* «1. Ulamoq. 2. Payvandlamoq» (Abdullayev, II:78; Madrahimov, 168).

*măxăñ* – «avlod, urug‘» (CHRS:133). O‘zb. (xor. sh. va o‘g‘uz lahj.) *мухум* «urug‘, urug‘lik» (Dala yozuvlari; Madrahimov, 179).

<sup>1</sup> Хабиев М.А. бағр, бағор // Советская Тюркология. – Баку, 1975. – №4. – стр. 47.

<sup>2</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваш. ... – стр. 31.

*mēpēs* – «tīrgak» (CHRS:137). O'zb. (xor. sh.) *otupəs* «tīrgak, tīrgovich» (Abdullayev, II:38).

*mymäp* – “ro'mol, ro'molcha” (CHRS:145). O'zb. (xor. sh.) *o'yodap* «ro'mol» (Dala yozuvlari), q.-q. o'zb. sh. *o'yodap* «sharf» (Ishayev, 98).

*macā* – «yangi» (CHRS:130). Qutb Xorazmiyda *maza* «yangi» (Faz, II:370). O'zb. (xor. sh. va q.-q. o'zb. sh.) *maza* «yangi» (Abdullayev, II:85; Ishayev, 156).

*myxъя* – «qizlarning do'ppisi» (CHRS:146). O'zb. (xor. sh.) *maxja/maiixa* «do'ppi» (Abdullayev, II:85), o'zb. (o'g'uz lahj.) *maxja/maiixa/mexa* «do'ppi (xorazmcha bosh kiyimi)» (Madrahimov, 174, 176), q.-q. o'zb. sh. *maxja/maiixa/mexa* «do'ppi» (Ishayev, 156).

*xāñap* – “bodring” (CHRS:160). Sayfi Saroyida *xıiap* “bodring” (Faz, II:486). O'zb. (xor. sh.) *xıiap* “bodring” (Dala yozuvlari), q.-q. o'zb. sh. *xiap* “bodring” (Ishayev, 129).

*xyla* – «shahar» (CHRS:163). O'zb. (xor. sh. va o'g'uz lahj.) *қала* «1. Qal'a (shaharning ichki qismi; 2. shahar)» (Dala yozuvlari; Madrahimov, 151).

*čärceäp* – «dag'al, qo'pol, qo'rs» (CHRS:171). O'zb. (xor. sh.) *çapic* «jahli tez» (Dala yozuvlari), q.-q. o'zb. sh. *çapic* «badjahl, ters, o'jar» (Ishayev, 169).

*čämäp* – «chodir» (CHRS:170). Sayfi Saroyida *çämp* «chodir» (Foz, 37). O'zb. (xor. sh.) *çadır* (Dala yozuvlari), o'zb. (o'g'uz lahj.) *çadır* “1. Baland shiypon; 2. Palatka” (Madrahimov, 184), q.-q. o'zb. sh. *çadra/çarðærə* “shiyponcha; hovlining bog‘ tomoniga qaratib solingan boloxona” (Ishayev, 168).

*çëlém* – “sarxonali mundshtuk, trubka” (CHRS:172). O'zb. (xor. sh.) «sarxonali mundshtuk» (Dala yozuvlari), q.-q. o'zb. sh. *çılım* «ko'ch. m. papiros, sigareta» (Ishayev, 171).

*čakak* – «zag'izg'on» (CHRS:169). O'zb. (xor. sh. va q.-q. o'zb. sh.) *χəkkə* (*χəkkək*)/*χəkək* “zag'izg'on, hakka” (Abdullayev, II:93; Ishayev, 167).

*чие* – “olcha” (CHRS:173). O’zb. (xor. sh., o’g’uz lahj., q.-q. o’zb. sh.)  
чиш «1. Olcha. 2. Gilos» (Abdullayev, II:97; Madrahimov, 186; Ishayev, 171).

*uamāpmām* – «qarsillamoq, qirsillamoq» (CHRS:176, 177). O’zb. (xor. sh.) *uamipdi/uamipoj* «shatir-shutur; shitir-shitir» (Abdullayev, II:102).

*ялан* – «doimo, mudom» (CHRS:189). O’zb. (xor. sh.) *ялан* “doimo, mudom, hamisha” (Dala yozuvlari), q.-q. o’zb. sh. *ялан* “hamisha” (Ishayev, 115).

Yuqorida qiyoslangan so’zlarning aksari Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” lug’atlarida keltirilib, ular chuvash tiliga ma’lum bir tarixiy sharoitlarda o’zlashganligi tadqiqotlar jarayonida tobora ayon bo’lmoqda. Bu so’zlarning o’zlashishi avvalo tarixiy sharoit tufayli, qolaversa, keng ko’lamda va uzoq vaqt davom etgan o’zaro aloqalar natijasida yuz bergan.

Fin olimi P.Aaltoning fikricha, chuvash tilidagi bir qator so’zlar qadimgi turkiyzabon va eroniy tilli qabilalar o’rtasida o’zaro aloqa mavjud bo’lganligidan darak berishini ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Yoxann Bentsing esa -m - bulg’or-chuvash affiksining eroniy asosga ega ekanligini qayd qiladi<sup>2</sup>.

Eroniy so’zlar turkiy tillarga ikki yo’l bilan, birinchisi, adabiy til (forsiy adabiyot) orqali, ikkinchisi, bevosita turkiy va eroniy tillarda so’zlashuvchi aholining o’zaro aloqalari orqali o’zlashgan<sup>3</sup>. Bulg’or tili va uning davomchisi bo’lgan chuvash tilidagi eroniy o’zlashmalarning manbasi to’liq aniqlangan emas. Faqat fors va alan tillaridan o’zlashgan ayrim so’zlargina biroz tadqiq qilingan. Chuvash tilshunosligida arab va fors o’zlashmalarini bir qatlama doirasiga kiritish an’anasi ustuvor bo’lgan. Bu islom dini tufayli yuz bergan. Lekin arabiy va eroniy o’zlashmalar turli davrlarda va turli manbalardan o’zlashgan. Chuvash tilidagi eroniy o’zlashmalarning alanlar tiliga mansub

<sup>1</sup> Асланов В.И. “*Studia Turkica*” // Советская Тюркология. – Баку, 1975. – №1. – стр. 102.

<sup>2</sup> Федотов М.Р. Отношение чувашского и общетюркского языков к языкам хазар, дунайских и волжских булгар, а также финно-угров // Советская Тюркология. – Баку, 1979. – №3. – стр. 30.

<sup>3</sup> Мусаев К.М. Тюркско-прасинские языковые связи // Советская Тюркология. – Баку, 1989. – №6. – стр. 32.

qatlami birmuncha o'rganilgan<sup>1</sup>. Chuvash tilida shunday eroniy o'zlashmalar uchraydiki, ular nafaqat o'zbek tilining xorazm shevalarida yoki o'zbek tilining o'g'uz lahjasida, balki o'zbek adabiy tilida ham mavjud. Ular mazkur til, lajha *va shevalarga* asosan fors tilidan o'zlashgan: chuv. *tert* «azob» (СЧР:135), *tus* «do'st» (144), *tāshmān* «dushman» (134), *siyon* «ziyon, zarar» (106), *urapa* «arava» (150), *xuça* «xo'jayin» (166), *cham* «ko'za» (170), *chamatan* «jomadon» (170), *chērēk* «chorak» (172) va hok.

N.A.Baskakovga ko'ra, turkiy tillarga eroniy o'zlashmalar sak, so'g'd, xorazmiy va forslar orqali o'zlashgan. Uning fikricha, o'zlashmalar turli mavzu qatlamiga mansub bo'slib, asosan qishloq xo'jaligi, sug'orma dehqonchilik va o'troq turmush tarziga oiddir<sup>2</sup>.

Mutaxassislar turkman, turk va ozarbayjon tillarining tarixiy shakllanish jarayonida bir qancha tillarning, jumladan, xorazm tilining ham o'rni bo'lganligini ta'kidlagan edilar. Bizning dastlabki kuzatishlarimiz mutaxassislarning bu boradagi fikri to'g'ri ekanligini tasdiqlamoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, turk, ozarbayjon va turkman tillaridagi eroniy o'zlashmalar o'g'uzlar orqali o'zlashgan bo'lsa, chuvash tilidagi eroniy o'zlashmalar bulg'orlar orqali o'zlashgan. Bulg'or tili va uning davomchisi bo'lgan chuvash tili leksik fondidan aniqlaganimiz o'g'uzcha so'zlar va mazkur so'zlarning o'zbek tilining xorazm shevalari leksikasida ham mavjudligi bizni bulg'or-chuvash tilida xorazm o'g'uzlari tilidan kirib qolgan elementlar bo'lishi mumkin degan fikrga undadi. Quyida chuvash tiliga o'zlashgan va o'zbek tilining xorazm shevalari leksikasida ham mavjud bo'lgan o'g'uzcha so'zlarni keltiramiz:

*ávă учита* – “u yerda” (CHRS:9). O'zb. (xor. sh.). *wōðə* “u yerda” (Abdullayev, II:31). O'zb. (xor. sh.). *awyuda* “u yerda” (Dala yozuvlari).

<sup>1</sup> Добродомов И.Г. Из аланского пласта иранских заимствований чувашского языка // Советская Тюркология. – Баку, 1980. – №2. – стр. 21.

<sup>2</sup> Мусаев К.М. Тюркско-иранские языковые связи // Советская Тюркология. – Баку, 1989. – №6. – стр. 28. 29. Н.А.Baskakov O'rta Osiyodagi turkiy tillarga o'zlashgan sug'orma dehqonchilikka oid quyidagi er. terminlarni ham keltiradi: *arna* "sug'orma magistral kanal", *yab* "magistral kanalning tarmog'i", *rash* "kanalning o'zani, uning yon devorlari"; o'troq turmush tarsi bilan bog'liq so'zlar: *kent* "shahar, qishloq" (sug'd. "shahar"), *kunda* "omochi", *baz* "bo'z, paxtalik mato".

*ашгар* – «fahmlamoq, anglamoq, tushunmoq, sinchiklab tekshirib ko'rmoq» (CHRS:19). Sayfi Saroyida әнгәр «tushunmoq» (Foz, 34).

*сарнай* – «surnay» (CHRS:104). Qutb Xorazmiyda с'риай «surnay, musiqa asbobi» (Faz, II:255).

*чан* – «urmoq, savalamoq» (CHRS:114).

*амбар* – ombor (CHRS:12). Nosiruddin Rabg'uziyda *амбар* «ombor» (QR, II:66), xor. sh. *амбархана* «ombor» (Abdullayev, II:123).

*арча* – “1. sandiq; 2. quti, quticha” (CHRS:15). Xor. sh. va o'zb. sh. *арека* «sandiq» (Abdullayev, II:19; Ishayev, 72; Madrahimov, 111).

*иҳарас* – «to'g'ri, tekis» (CHRS:40). Xor. sh. *pac* «rost, to'g'ri» (Abdullayev, II:76).

*кавак* - «moviy, ko'k, kulrang, bo'z» (CHRS:48).

*камал* – «tilak, kuchli orzu, niyat» (CHRS:49).

*кантэр* – «kanop, kannabis» (CHRS:45) Xor. sh. *кэндір* «kanop, kannabis» (Dala yozuvlari).

*капак* – «ko'pik» (CHRS:50). Xor. sh. *көпик* «ko'pik» (Dala yozuvlari).

*кас* (ă) – «ko'cha, daha, qishloqning qismi» (CHRS:47). Bir qancha Chuvash joy nomlarida qo'llanadi: Шор-кассы, Хыр-кассы, Вурман-кассы, Лапра-кассы, Туры-кассы, Анач-кассы, Хура-кассы, Элеменей-кассы, Тойдеряк-кассы, Питти-кассы, Семень-кассы, Сендимир-кассы<sup>1</sup> va boshq. Xor. sh., o'zb. sh. *кант* «qishloq» (Abdullayev, II:55; Ishayev, 119).

*касак* – «bo'lak, parcha, burda, kesik» (CHRS:47).

*качака* – «echki (serka)» (CHRS:48). Xor. sh. ғәччи/гәччи «echki» (Abdullayev, II:31, 32); o'zb. (o'g'uz. lahj.) ғәччи/гәччи «echki» (Madrahimov, 124); o'zb. sh. ғәтчи/гәтчи «echki» (Ishayev, 89).

*кишиер* – sabzi (CHRS:55). Xor. sh., o'zb. til. o'g'uz lahj. va q.-q. o'zb. sh. ғәнип «sabzi» (Abdullayev, II:32; Madrahimov, 124; Ishayev, 89). Chuvash tilida «sabzi» ma'nosida keluvchi *кишиер* so'zi bulg'or davrida slavyan tiliga

<sup>1</sup> Золотницкий Н.И. Лингвистическая заметка и названиях Булгар, Бияр и Морквашы. – Изв. ОАИЭ, т. III. – 1880-1882 год. Казань. – 1884. – стр. 54.

o'zlashgan. N.I.Ashmarin A.V.Starchevskiyning lug'atida slavyan tilidagi kichipi «sabzi» so'zini chuvash tili orqali o'zlashgan deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

*мамак* – “paxta” (CHRS:412). N.I.Zolotnitskiy paxtani chuv. tat. tilida *мамык*, rus tilida *пумук*, *бузук* deb atalishini yozadi va bu so'z ruscha *бузага* «paxtadan qilingan (qog'oz)» so'zining yasalishiga asos bo'lganligini ta'kidlaydi. U chuvash tilidagi *мамык* so'zini turkiy so'z deb hisoblaydi<sup>2</sup>.

*майа* – «tuxum (tovuq ostiga qo'yiladigan tuxum)» (CHRS:68). Xor. sh. *мәйәк*//*мая* «1. moyak; 2. tuxum» (Abdullayev, II:66); o'zb. (o'g'uz lahj. va q.-q. o'zb. sh.) *мажмәйәк/мәек* «moyak, tuxum (tovuq ostiga qo'yiladigan tuxum)» (Madrahimov, 157; Ishayev, 137).

*nämäc* – «uyat, or, nomus» (CHRS:72). Hoñiz Xorazmiyda *байдам* “nomusini yo'qotgan” (Devon, II:39).

*nékë* – «pichoqcha, buklama pichoqcha» (CHRS:82). Xor. sh. *naku* “ustara” (Abdullayev, II:73), o'zb. xalq sh. *näkki* (Toshkent) «qalamtarosh» (O'XSHL:211); q.-q. o'zb. sh. *naku/näkki* “ustara” (Ishayev, 145).

*nämäek* – «yalpiz» (CHRS:85). Xor. sh. *алла-нома* «yalpiz» (O'XSHL:17). V.A.Dyiboning uqtirishicha turkiy tillardagi *баштик* «yalpiz» so'zi sharqiy-eroniy tillardan o'zlashgan (Дыбо, 2007: 122).

*néçék* – “kichik, kichkintoy, kichkina” (CHRS:85). Xor. sh. *мичч* «kichik» (Dala yozuvlari). Yana qarang: xor. sh. *мүчүк* «chaqaloq» (Dala yozuvlari), Jan. q.-q. o'zb. sh. *мүчүк* «chaqaloq» (O'roz, 59).

*naimá* – “foyda” (CHRS:76). Xor. sh. *naiða* «foyda, naf» (Dala yozuvlari).

*nälas* – «gilam» (CHRS:77). “Nahj ul-farodis” asari va Hoñiz Xorazmiyda *nälas* “mato” (Faz, II:204; Devon, II:258); xor. sh. *nələs//näləs* «sholcha (yungdan to'qilgan)» (Abdullayev, II:73,76).

*naxa* – «qadrli, qimmatbahö» (CHRS:79). Xor. sh. *баха(ли)* «qadr(li), qimmat(li)» (Dala yozuvlari). N.I.Ashmarin chuvash tilidagi *naxa* so'zini eroniy

<sup>1</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши... = стр. 113 (прим. 13).

<sup>2</sup> Золотницкий Н.И. Лингвистическая заметка ... = стр. 44.

tillardan o'zlashganligini yozadi. Uning fikricha, ushbu so'z tatar tilidan o'zlashishi mumkin emas, chunki bu so'zning tatarcha (*ðäñä*) shakli bilan chuvashcha shakli orasida fonetik farqlar mavjud<sup>1</sup>.

*naxxa* – «bog», poliz» (CHRS:360, 79). Xor. sh. *ðænxa* «bog» (Dala yozuvlari).

*mýnäk* – tobut (CHRS:143). Xor. sh. *maðym* «tobut» (Dala yozuvlari). Chuv. *mýnäk* va o'zb. til. xor. sh. *maðym/maðym* so'zleri arab tilidan o'zlashgan degan yanglish fikr mavjud. Arablar kelmasidan sal oldin (VII-VIII asrlar) qadimgi Xorazmda (Mizdahkon) mayitning suyaklari solib qo'yiladigan ostadon *mmwk* – “quticha (ossuariy, ostadon)” deb atalgan (Livshits, 1970:250). O'zbek adabiy tilidagi arabcha *moðym/moðym* ham dastlab «sandiq, quti» ma'nosida bo'lган (O'TEL II:444).

*mapacá* – «tarazi» (CHRS:129). Mahmud Zamaxshariy, Qutb Xorazmiy va Sayfi Saroyida *mapazu* (تَرَازُو) «tarazu» (Faz, II:342-343; MA:8), xor. sh. *mapazi* «tarazi» (Abdullayev, II:110). N.I.Ashmarin mazkur so'z tatar tilida mavjud emasligini yozadi<sup>2</sup>.

*mejm* – «qiynoq, dard, azob» (CHRS:135). Hafiz Xorazmiyda *darpd* «azob» (Devon II:187), xor. sh. *darpd* «azob» (Dala yozuvlari).

*mupēc* – “go'ng” (CHRS:299). “Nahj ul-farodis” asarida *mapc*, “Muqaddamat ul-adab” asarida *darc* (در) “go'ng” (Faz, II:347; MA:503), xor. sh. *darc* «go'ng, mahalliy o'g'it» (Abdullayev, I:37), o'zbek tilining o'g'uz lahjasida *darc* // qipchoq lahj. *därice* (Madrahimov, 130), q.-q. o'zb. sh. *däric*/*därce* «mahalliy o'g'it, go'ng» (Ishayev, 97). F.Abdullayev ushbu so'zni saqatgina Xorazm shevalari leksikasida uchrashini, o'zbek adabiy tilida esa uchramasligini qayd etgan edi (Abdullayev, I:139).

*tyurxan* – «esk. feodal» (CHRS:144). Xor. sh. *mapxan/därxan* «ozod, erkin» (Abdullayev, I:35, 85); o'zb. til. o'g'uz lahj. *mapxan* «erkin, ozod qilingan» (Madrahimov, 175). N.I.Ashmarin *Tapxan* so'zini Volgaboyi

<sup>1</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши. ... – сгр. 121 (прим. 17).

<sup>2</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши. ... – сгр. 122 (прим. 17).

guberniyalaridagi *Tyrxan*, *Topxan* qishloqlarining nomida (chuv. *Tyrxan*, *Topxan*) qo'llanganini va bu nomning Chuvash o'kkasining turli joylarida uchrashini yozadi<sup>1</sup>. R.G.Kuzeeva va T.M.Garipovalar “Dunay bulg'orlari, ~~vestigird~~ va chuvashlarda tarxon etnonimi” nomli ma'ruzalarida *mapxon* etnonimining qadimgi bulg'or va vengerlarda ham mayjud bo'lganligini ta'kidlaydilar<sup>2</sup>. A.V.Dyibo chuvash tilidagi *торхан* (ilk bulg'or *TAPKAHOΣ*) tituli, shaxs otini anglatuvchi so'zning ma'nosini ilk turkiy davrga oidligini ta'kidlab, mazkur so'zni (boshqa turkiy tillardagi parallellar bilan birga) sharqiy eroniy tillardan o'zlashganligini yozadi<sup>3</sup>. Xorazm yodnomalaridagi (“Xusrav va Shirin”) *тәркән* “malika” tituli o'sha sharqiy eroniy chiqish manbadagi muannas jinsdag'i \**тарканая* yoki \**таркані* asosining adaptatsiyasi hisoblanadi<sup>4</sup>.

*myma* – «lab» (CHRS:145). O'zb. (xor. sh., o'g'uz lahj., q.-q. o'zb. sh.) *додақ* «lab, dudoq» (Abdullayev, II:38; Madrahimov, 132; Ishayev, 98).

*тына* – «urg'ochi buzoq» (CHRS:147). O'zb. (xor. sh.) *тәнә//тана* «buzoq, sigirning urg'ochi bolasi» (Abdullayev, II:85, 106), o'g'uz lahj. *тәнә* «ikki Yashar buzoq» (Madrahimov, 175). Turkiy tillarga o'zlashgan: qirg', qoz., q.-q., turkm. *тана* (Madrahimov, 175). Ta'kidlash lozimki, A.V.Dyibo turkiy bobo til davriga oid *дана* «buzoq» so'zini saklarga yaqin bo'lgan shimoliy eroniy aholi tilidan o'zlashganligini qayd etadi (Дыбо:116, 117).

*хёвөл* – «quyosh» (CHRS:160).

*чакър* – «chig'ir (qo'l chig'iri)» (CHRS:170). O'zb. (xor. sh.) *чиғір/чиқір* «chig'ir» (Abdullayev, II:98), *чиғир//чиқир* «chig'iriq (yer ostidan yoki anhordan suv chiqaradigan eng oddiy asbob)» (Abdullayev, II:123); o'zb. til. o'g'uz lahj. *чиқир* «chig'iriq» (Madrahimov, 186, 187); o'zb. ad. til. *чиғыр* «suv kuchi bilan aylanib, katta ariqdan yuqoriga suv chiqaradigan qurilma», «charxpalak» (О'TEL, II:431, 432).

<sup>1</sup> Ашмарин Н.И. Болгары и чуваши. ... – стр. 17.

<sup>2</sup> Ураксин З.Г., Шакуров Р.З. IV Поволжская конференция по онамастике // Советская Тюркология. – Баку, 1974. – №1. – стр. 112.

<sup>3</sup> Дыбо А.В. Лингвистические контакты ранних тюрков. Лексический фонд. – Москва, 2007. – стр. 118.

<sup>4</sup> Дыбо А.В. Лингвистические контакты ... – стр. 118.

**чартак** – «bostirma; rus. cherdak» (CHRS:170). O'zb. (xor. sh.) **чэртәк/чэртәк** “bostirma”, «dala shiyponi» (Abdullayev, I:97), o'zb. (o'g'uz lahj.) **чэртәк** «1. bostirma, chayla; 2. Dala shiyponi» (Madrahimov, 186).

**эрне** (kun) – “juma” (CHRS:348). Nosiruddin Rabg'uziyida *адинә*, Mahmud Zamaxshariyda *адинә* (ادینه) “juma” (QR, I:12; MA:522). V.V.Radlov chuv. *ärnä* (ерне) < bulg'orcha *ärnii* (أرنى) «juma (kuni)» so'zini eroniy *адина* (ادینه) «odina (juma kuni)» so'zi orqali o'zlashgan deb hisoblaydi va rotatsiya hodisasini ( $p<\delta$ ) X asrdan so'ng chuvash tili negizida yuz bergenligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, eroniy so'zlarning “chuvash negizi” (dastlab fin-ugor)dagi transformatsiyasi X asrdan so'ng ro'y bergen. Ammo, M.R.Fedotov eroniy o'zlashmalar fin-ugor tillariga VII asrgacha bo'lgan davrda, yani bulg'orlar Volga bo'yiga kelmasdan oldin o'zlashgan deb hisoblaydi va misol tariqasida mari, mordva, udmurt va komi tillariga o'zlashgan *адина* (ادینه) «odina (juma kuni)» so'zini keltiradi. Uning fikricha bu va boshqa so'zlar fin-ugor tillaridan chuvash tiliga emas, aksincha chuvash tilidan fin-ugor tillariga o'zlashgan<sup>1</sup>.

**юматп** – «sahiy» (CHRS:186). Xor. sh. *жөмәтп* «sahiy, xotamtoy» (Dala yozuvlari). Q.-q. o'zb. sh. *жумәтп* «sahiy, xotamtoy» (Ishayev, 106).

Yuqorida keltirilgan so'zlarning ayrimlari Mahmud Koshg'ariying “Devonu lug'otit-turk”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asari turkiy so'zligida, shuningdek, V.V.Radloving “Turkiy tillar lahjalari lug'ati tajribasidan”, E.V.Sevortyan boshlab bergen “Turkiy tillarning etimologik lug'ati” singari ko‘p jildlik nufuzli lug'atlarda ayrim hollarda sof turkiy so'z sifatida keltirilgan. Bu lug'atlarda keltirilgan so'zlarning eng qadimgilari “o'g'uzcha so'zlar” nomi bilan darj qilingan bo'lsa, qolganlari qarluq-xorazmiy, qipchoq-mamluk va chig'atoy adabiy tilining asosini tashkil qilgan xorazmlik adiblarning turkiy tilda yozgan asarlari va Xorazmda yaratilgan deb ehtimol qilinadigan turkiy yozma yodgorliklar tilidan olingen.

<sup>1</sup> Дыбо А.В. Лингвистические контакты ... – стр. 117, 118.

Mahmud Koshg'ariy o'g'uzcha deb bergan so'zlarning ba'zilari aslida o'g'uzlar tiliga xorazm tilidan o'zlashgan. Bu so'zlarning ayrimlari qadimgi xorazm yozma yodgorliklarida qayd qilingan. Mahmud Koshg'ariy o'g'uzlarni forslardan so'z olishini yozib, forslar deganda eroni yalqlarni nazarda tutgan. Shu o'rinda qayd qilish lozimki, Alisher Navoiygacha bo'lган davrda turkiy tilda ijod qilgan o'ndan ortiq xorazmlik adiblarning asarlarida kamroq miqdorda bo'lsa-da xorazmcha-o'g'uzcha so'zlar qo'llanilgan.

Akademik A.V.Dibo o'zining monografiyasida turkiy bobo tilda 8-9 nafar sharqiy eroniy tillardan o'zlashgan mutlaq madaniy xarakterdag'i so'zлarni qayd etadi. U mazkur o'zlashmalarni o'rta eroniy davrga oid qaysidir bir sharqiy eroniy tildan o'zlashgan deb hisoblaydi. U hozircha manbasi noma'lum mazkur tilni ikkilangan holda, taxminan ilk sak yoki sak-vohon bobo tili deb faraz qiladi<sup>1</sup>.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, bugungi chuvash tilida fin-ugor, slavyan, eroniy, mo'g'ul va turkiy tillardan o'zlashgan talaygina so'zlar mavjud. Bu o'zlashmalar orasida xorazm o'g'uzlari tiliga oid nisbatan kam sonli so'zlar ham bor. Chuvash tili bo'yicha yirik mutaxassis N.I.Egorov: "Chuvash tili lug'atidagi turkiy bo'lмаган (hind-oriy, som-xomiy va kavkaz o'zlashmalaridan to ruscha o'zlashmalargacha bo'lган) elementlarning etimologik tahlili ming yil davomida kechgan etnolingvistik aloqalarning manzarasini ko'rsatadi" deb ta'kidlagan edi<sup>2</sup>.

Biz ushbu faslda, asosan, chuvash tiliga bulg'or tili orqali o'zlashgan o'g'uzcha so'zlarnigina tahsil qildik. Bu o'zlashmalarning etimologiyasi va chiqish asosi hozircha bizga ma'lum bo'lмагани учун уларни o'g'uzcha so'zlar sirasida keltirdik.

Bizningcha, bulg'orlar tiliga o'zlashgan o'g'uzcha so'zlarning manbasini aniqlash, ularning etimologiyasiga oydinlik kiritish turkiyshunoslik sohasi учун niroyatda muhimdir.

<sup>1</sup> Дыбо А.В. Лингвистические контакты ... – стр. 119.

<sup>2</sup> Хузангай А.Р. Второе рабочее совещание этимологов // Советская Тюркология. – Баку, 1983. – №5. – стр. 103.

Keltirilgan ushbu leksik parallelarga oid qisqacha so'zlar lug'ati va tahlili turkiy tillarning, ayni damda, o'zbek tilining qadimdan ta'sir doirasini, o'zbek tili tarixiy qatlamiga oid so'zlarning tarqalish arealini belgilashga katta yordam beradi. Mazkur so'zlarning tadqiqi xorazm shevasi hamda xorazmiy tilining o'ziga xos ildizlari bugun ko'plab turkiy tillarda, xususan, turk, turkman, ozar va boshqa umumiy o'g'uz tillariga katta ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Qadimdan ushbu tillarning yagona negizga egaligini isbotlaydi. Tarixan o'g'uz qabilalarining Orolbo'yida istiqomat qilib, keyinchalik. Sulton Saljuq davrida Kichik Osiyo tomonga ko'chib, hozirgi Ozarbayjon, Turkiya, Turkmaniston hududlarida keng yoyilgani tasdiqlangan. Shu sababli ham hozirgi Xorazm shevalari ushbu tillar bilan bir xil leksik, grammatik va fonetik tuzilishga ega. Ayni damda, os va alanlar haqida fikr yuritganda, bir holatga alohida e'tibor berish zarur. Os hamda alanlar Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirmasdan oldin Alaniya hududiga ko'chib o'tganlar va ushbu xalqlar xorazmiy tili va o'g'uz lahjasi elementlarining keng yoyilishiga bois bo'lganlar. Qolaversa, xorazmiy xalqlar keng yoyilishi natijasida qadimgi fors tiliga oid birliklarning ham keng yoyilishiga sabab bo'lganligi isbotlaydi

<sup>1</sup> Абу Райхон Беруний. Таинланган асарлар. 1-том. Кадимги халқлардан колган ёдгорликлар. –Тошкент: Фан, 1968. – Б. 486.

## **II BOB. O'ZBEK TILINING RIVOJLANISHI TARIXI: MILODIY XI ASRDAN XV ASRGACHA BO'LGAN DAVRDA YARATILGAN ADABIY MANBALARNING O'ZBEK TILI RIVOJIDAGI O'RNI**

V.V.Bartoldning fikriga ko'ra, xorazmiylar XI asrda ham boshqa eroniylar uchun tushunarsiz bo'lgan va keyinchalik Xorazmning asta-sekin turkiylasha boshlashi oqibatida muomaladan chiqib ketgan o'z lajhasida yozishda va so'zlashishda davom etganlar<sup>1</sup>. Uning fikricha, bu til oqibatda forsiy til emas, balki turkiy til ta'sirida muomaladan chiqqan. Xorazm tilining qoldiqlari, shubhasiz, faqat xivaliklar va turkmanlarda saqlanib qolgan sun'iy sug'orish tizimi sohasiga oid ba'zi (*arna* – katta kanal, *yob* – kichik kanal) terminlar hisoblanadi<sup>2</sup>. Olim, xorazm tilida yozilgan na badiiy yodgorliklar, na hujjatlarni bizgacha yetib kelmaganini afsus bilan yozadi<sup>3</sup>.

### **2.1. O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti va o'zbek etnonimi**

Ta'kidlanganidek, o'zbek tili eng qadimiy tillardan biri. Albatta, dastavval, mazkur til "o'zbek tili" deya atalmagani barchamizga ma'lum. Uning qadimiy bosqichlari haqida turkologlar, tilshunoslar turli fikrlarni, turli tasniflarni qayd etganlar. Biz ham mazkur monografiyada o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini an'anaviy tarzda 4 bosqichga ajratishni ma'qul ko'rdik. 1) qadimgi turkiy til; 2) eski turkiy til; 3) eski o'zbek adabiy tili; 4) hozirgi o'zbek adabiy tili. Qadimgi turkiy til hamda eski turkiy til barcha turkiy tillarning taraqqiyotida mavjud bo'lgan bosqichlardir. Chunki bu davrlarda turkiy tillarning hech birisining o'ziga xos xususiyatlari paydo bo'limgan, barcha turkiy xalqlar yagona tildan foydalangan. To'g'ri, ayrim qabila, urug' foydalangan til shakli umumiy turkiy tildan farqlari bo'lgan, ammo ular alohida til sifatida shakllanib ulgurmagan. XII asr oxiri XIII asr boshlarida asta-sekin turkiy xalqlarning tillaridagi farqlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari yuzaga kela boshlagan. Hududning kengligi, madaniyatlar xilma-xilligi, turli tillar bilan aloqlarning kuchayishi, xalqlarning turli xil turmush tarzi tillardagi farqlari yanada

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч. I. – М.: 1963. – С. 193.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч. I. – М.: 1963. – С. 122.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч. I. – М.: 1963. – С. 459.

ko‘paytirgan. Qarluq, qipchoq va o‘g‘uz urug‘larining tillari bir-biridan ajrala boshlagan. Bunga XIV asrlarda yaratildan asarlar ham guvohlik beradi. Sharqi va g‘arbiy til an’anasi, qarluq-uyg‘ur, qipchoq-o‘g‘uz guruhları, keyinchalik ularning ham alohida farqlari yuzaga kelishi ayni shu davrlarga xosdir. Demak, XIV-XV asrlarda ham turkiylarni o‘zbek, qozoq, qirg‘iz kabi millatlarga ajratish hodisasi bo‘limgan. XVI asrga kelib vatanimiz hudida yashovchi turkiy xalq o‘zbek xalqi deya atala boshlandi. Tili esa chig‘atoy tili deya yuritila boshlandi. Ayni davrdagi tilni chig‘atoy tili, arab alifbosiga asoslangan yozuvini esa chig‘atoy yozuvi deyish urfga kirdi. Turklar hamon eski o‘zbek tili va yozuvini shu tarzda nomlaydilar. XX asrning birinchi choragidan xalqimizni o‘zbek xalqi va tilimizni o‘zbek tili deyish odat tusiga kirdi. Quyida o‘zbek etnonimi haqida ham to‘xtalsak.

“O‘zbek” so‘zining etimologiyasi haqida turli fikrlar mavjud. Yenisey yodgorliklarida quyidagi jumlada “o‘z” so‘zi uchraydi: *Sizing ep am ur(i), eling O‘z.* Bu yerdagi “o‘z”ni S.E.Malov “davlat” (gosudarstvo) deb tarjima qiladi<sup>1</sup>.

L.A.Yevtyuxova Yenisey qirg‘izlari haqidagi asarida esa “o‘z” so‘zi elat nomini bildirishi haqida so‘z yuritadi<sup>2</sup>.

Mashhur vengriyalik turkolog Herman Vamberi “o‘zbek” so‘zi haqida quyidagilarni yozadi. “Nihoyat, “o‘zbek” degan so‘z qaysi ma’noni bildiradi deganda, eng avvalo shuni aytib o‘tish kerakki, bu so‘z “o‘z” va “bek” so‘zlaridan iborat bo‘lib, shulardan birinchisi asl, ajoyib, tagi mustahkam, ikkinchisi esa *bek*, *sardor* ma’nosini bildiradi. Demak, bu so‘zning asl ma’nosи “asl bek”dir. O‘zi aslini olganda, “o‘zbek” degan so‘z, ancha keyin turkiylashgan va majorlar Ovrupaga kelmasdan oldinroq ham ishlataligan. XI – XII asrlarda bu so‘z shaxsiy va qabila nomi sifatida ma’lum bo‘lib, buni uchratilgan manbalardan ko‘rish mumkin<sup>3</sup>.

H.Vamberining “o‘zbek” so‘zining etimologiyasi haqidagi fikrlari xalq etimologiyasini eslatadi. Hozir ham xalq orasida “o‘zbek” – “o‘zi bek” degani, etimologiyasini eslatadi.

<sup>1</sup> Малов С.Е. Енисейская письменность тюрков. – М.-Л., 1952. – С. 50.

<sup>2</sup> Евтиухова Л.А. Археологические памятники енисейских киргизов. – Абакан, 1948. – С. 5.

<sup>3</sup> Herman Vamberi. Turkiy xalq // O‘zbegin. – Toshkent, 1992. – 115-bet.

kabi gaplar yuradi. Shuningdek, u XI-XII asrlarda o'zbek so'zi qaysi manbada uchrashini aniq-taniq qilib yozmaydi.

U.Sanaqulovga ko'ra, "o'z" so'zi etnonim sifatida "o'zbek" atamasiga aloqadordir<sup>1</sup>. "Xullas, "o'zbek" so'zi – atamasi "o'z" va "bek" qismlaridan tashkil topgan bo'lib, qadimdan urug', qabila, elat va kishi hamda joy nomlarining atamasi sifatida qo'llanib kelingan"<sup>2</sup>, – deb fikr bildiradi olim. Ammo U.Sanaqulov "o'z" bilan "bek" qanday birikkannini tushuntirmaydi.

Turk tilining etimologik lug'atida "o'zbek" so'zi haqida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: "*Ozbek*, tr. öz ile bek'ten öz-bek/özbek (mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan, o'zining xo'jayini, boshqalarga tobe bo'limgan)"<sup>3</sup>.

O'zbek nomini Oltin O'rdada hukmronlik qilgan Sulton Muhammad O'zbekxon nomidan kelib chiqqan degan qarash ham mavjud. O'zbekxon (1282-1342) 1313-yili amakisi To'qtayxon vafotidan so'ng nufuzli amirlar Qutlug' Temur va Isatoybek qiyot ko'magida taxtga o'tiradi.

"Ma'orif un-nasab" asarining "Qurlos avlodidan podshohlik qilganlarning bayoni" nomli uchinchi bobining ikkinchi qismi Chingizxonidan to Berdibekxongacha bo'lgan xonlar bayonidan iborat. Unda Jo'ji eli (ulusi)ning "O'zbek" deb laqab olgani ham bayon qilinadi: "*Va Jo'ji elining "O'zbak" laqab topg'oni. Bu tabaqa o'n nafar turur. Muddat-i sultanatlari sana-i ming besh yuz to'qson to'qquzdin etti yuz oltmisik ikkigacha yuz dog'i bir yil turur*"<sup>4</sup>.

Asarda Jo'ji ulusining "o'zbek" nomi bilan atalishi quyidagicha bayon qilinadi:

"*Jo'jxon (61b) podshohi odil va sultoni oqil erdi. Xorazm va dashti Qipchoq va Bulg'or va Olon va Os va Rus podshohliqi onga taalluq topib erdi. Otasidin olti oy burun o'ldi. Botuxon ibn Jo'jxonni Chingizzxon otasi o'rniq'a podshoh qilib, o'zi o'ldi. Botuxon kichik inisi To'qay Temurxonni o'z o'rniда*

<sup>1</sup> Санакулов У. Ўзбек халқининг ҳамда тишининг таркиб топишни ва номланиши. – Самарканд, 1991. – 17-бет.

<sup>2</sup> Санакулов У. Ўзбек халқининг ҳамда тишининг таркиб топишни ва номланиши. – Самарканд, 1991. – 17-бет.

<sup>3</sup> Ayüğoğlu, I. Z. Türk dilinin etimolojik sözlüğü. – İstanbul, 1995. – 540-бет.

<sup>4</sup> Sanoiy Bobojon. Ma'orif un-nasab. – 556-varaq.

*qo'yub, o'zi Chingizzxon bobosining a'zosig'a bordi. Borchcha ogo va inilar yig'nolib O'kttoy qoonni tozadin oq kigizda o'lturg'uzub, ko'torib taxtida qo'yub, ul kigizni kesib olishib, podshoh qildilar. Necha muddat podshohliq qilib dunyodin rihlat etdi. Burkaxon ibn Jo'jixon oqosi o'rnig'a podshoh bo'ldi. Avval kishikim, Chingizzxon naslidin musulmon bo'ldi, Burkaxon erdi. Aksar kosir va fojirlarni din va islomg'a kirguzdi. Dunyodin o'tdi. Mangu Temurxon (62a) ibn Botuxon Burkaxondin so'ngra xonlig' taxtida o'lturdi. Ato-bobolaridek a'mal qilib dunyodin o'tdi. Ondin so'ng To'do Manku ibn Botuxon bo'ldi. Bu dog'i o'tdi. To'qtog'u xon bo'ldi. Bu ham rihlat qildi. Ondin so'ngra O'zbakxon ibn To'g'rilmxon ibn Manku Temurxon podshoh bo'ldi. O'n uch yoshinda erdi, xaloyiqni din va islomg'a da'vat qildi. Va oydikim, "Majmu'i qalamravim dog'i musulmonlarni "o'zbak" deb maning otim birla atosunlar". Mundin so'ngra Jo'ji elinikim, borchalari musulmon bo'lub erdilar, to qiyomatg'acha "o'zbak" atodilar" (62b).*

Darhaqiqat, O'zbekxon islomni davlat dini sifatida joriy qilgan, g'ayridinlarni qattiq ta'qib qilgan. Bu holat amirlarning isyoniga olib kelgan, ammo isyon beayov bostirilgan. O'zbekxon Oltin O'r dadagi ichki nizolarga barham bergen va sultanatining yuksalishiga erishgan. Uning hukmronligi davrida hokimiyat markazlashgan, uluslar viloyatlarga aylantirilgan. Poytaxt Saroy Botudan Saroy Berka shahriga ko'chirilgan. Saroy Berkada ko'plab shoirlar, olimlar, musiqashunos va me'morlar yashagan. Shoirlar turkiy tilning Xorazm lahjasida ijod qilganlar. Ba'zi turkiy urug' va qabilalar o'zbek nomi bilan atalib, keyinchalik ular o'zbek xalqining tarkibiga kirgan.

"Ma'orif un-nasab" asarida yozilishicha, Chingizxonning Qulo daryosi bo'yida qo'ng'irotlar xoni bo'lgan Tanim ko'ragon degan kuyovining avlodidan bo'lgan Og'doy bahodirdan Nag'doxxon degan o'g'ul etim qolgan bo'ladi. Uni O'zbekxon tarbiya qilib, "no'yon" deb laqab qo'yadi va barcha Jo'ji eliga podshoh etadi. Sulton al-orifin va zubdat al-solikin qutb al-olam va g'avs al-a'zam sanad al-avliyo hazrat Said ato navarallohu marqadahu Saroy shahriga

borganda O'zbekxonni va Jo'ji elini musulmon qilib, ularga "o'zbek" deb laqab qo'yadi (101a).

Ammo o'zbek xalqi hali O'zbekxongacha bo'lgan davrlarda shakllangan. Akademik A.Asqarov ta'kidlashicha, O'zbek xalqining qadimgi ajdodlari Movaraunnahr va qadimgi Xorazmning turkiy va eroniylar til lahjalarida so'zlovchi tub joyli o'troq va chorvador aholisidir. Bu ikki xil tilda so'zlashuvchi qabilalarni elatlarning birinchi bor bir-birlari bilan aralashish jarayoni o'zbek etnogenezining boshlanishi, dastlabki nuqtasi hisoblanadi", deb ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Uningcha, o'zbek etnogenezining boshlanishi miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida yuz berdi<sup>2</sup>.

Olimning fikricha, xalqlarning kelib chiqishi masalasidagi talablardan uchinchisi – hech qachon etnos ajdodlarining antropologik tipi va tili etnos tili va tipi bilan bir vaqtida yuz bermasligini unutmaslikdir. Chunki, etnogenez tarixining ilk bosqichlarida etnik birliliklar, ayniqsa ularning tili va tipi hali shakllanmagan. Til, tip va etnik birlik tushunchalari har xil davr voqiyiligi bo'lib, ularning shakllanish jarayoni bir davrda yuz bermaydi<sup>3</sup>.

K.Shoniyofovning kuzatuvlariga ko'ra, IX-X asrlarda ham bu etnogenetik jarayon, ya'ni turkiylarning o'troq hayotga o'tishi jadal davom etadi. Bu asrlarda Movaraunnahrda garchi siyosiy hokimiyat somoniylar qo'lida bo'lsa-da, Movaraunnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'ldi. Bu kuchli etnik asosni aksariyat ko'pchilligini o'troqlashgan turg'un turklar tashkil etgan. Bu davrga o'zbek xalqi etnogenezining to'rtinchi bosqichi sifatida qarash mumkin bo'ldi. Qoraxoniylar davrida Movaraunnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalar qo'liga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezining yakunlovchi bosqichi boshlanadi. O'zbekka xos

<sup>1</sup> Аскarov А. Ўзбек халки этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари // "Ўзбек халқининг келиб чикиши: илмий-методологик ёнлашувлар, этногенетик ва этник тарих" мавзусидаги республика илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2004 йил 19-20 ноябрь. – 3-бет.

<sup>2</sup> Аскarov А. Мустакиллик йилларida тарих, археология ва этнология // "Ўзбекистонда ижтимоий фанлар" журнали. – №6. – 1996.

<sup>3</sup> Аскarov А. Ўзбек халки этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик асослари // "Ўзбекистон тарихи" журнали. – 2002. – №4. – 55-бет.

turkiy etnos mintaqada qaror topadi. Elatga xos barcha etnik omillar ro'yobga chiqadi.

Bu jarayon, ya'ni o'zbeklarning etnogenezi XI asrgacha davom etadi va u g'arbiy qoraxoniylar davlati doirasida, XI-XII asrlarda o'zbek xalqi uzil-kesil shakllanadi.

O'zbek xalqining shakllanishi bilan uning tili ham shakllanadi. B.X.Karmisheva quyidagilarni yozadi: "O'zbek elatining dastlabki yadrosi IX-X asrlarda shakllanganligi, biroq o'zbek xalqi etnik yadrosi shakllanishining eng muhim tarixiy davri Movarounnahrni Qoraxoniylar davlatiga (XI-XII asrlar) qo'shilishi davriga, ya'ni mintaqaga qabilalarning ko'plab oqib kelishi va ularning o'troqlashishi davriga to'g'ri kelishi isbotlangan hisoblanadi. Turkiy tilda gaplashuvchi o'troq aholi bu yerda onda-sonda uchramasdan, balki kattakkatta massivlarda joylashgan edi. Qoraxoniylar davlatidagi turkiy qabilalar orasida asosiy rolni qarluqlar, uyg'ular o'ynagan bo'lib, ularning tili o'zbek elatining tili uchun asos bo'lган"<sup>1</sup>.

G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurovlarning fikricha: "XI-XII asrlarda umumxalq o'zbek elatining va tilining umumturkiy oiladan ajralib chiqib, o'z nomi bilan atalish jarayoni uchun tayyorgarlik davri bo'lgan, xolos. Bu jarayon esa XIII asrda tugallandi, desa bo'ladi"<sup>2</sup>.

N.Baskakov turkiy tillar rivojlanishining olti davrga bo'ladi. Shulardan to'rtinchi davrimi (X-XIV asrlar) asosiy turkiy qabilalar tilining rivojlanish va shakllanish davri, deb ataydi.<sup>3</sup>

Qardosh turkiy tilli xalqlar olim-u fuzalolarini hozirgacha e'tiroziga sabab bo'lib kelayotgan umumturkiy til – Mahmud Qoshg'ariy tili ichidan qarluq-chigil lahjalari asosida elatning jonli tili sifatida eski o'zbek tiliga asos

<sup>1</sup> Кармисхева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. – С. 162.

<sup>2</sup> Абдурахмонов Г., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973. – С. 20.

<sup>3</sup> Баскаков Н. Тюркские языки. – М., 1960.

solinadi. Bu jarayon G<sup>arbiy</sup> Qoraxoniylar davlati doirasida yuz berdi. Demak, o<sup>zbek</sup> elati xalq sifatida XI-XII asrning birinchi yarmida uzil-kesil shakllandi<sup>1</sup>.

Biz Xorazm shevasi materiallari asosida va mashhur olimlarning yuqorida keltirilgan fikrlariga tayanib, o<sup>zbek</sup> tili XI-XIV asrlarda shakllangan, degan xulosaga keldik.

## 2.2. Qarluq-xorazm adabiy tili manbalari.

Qarluq-xorazm adabiy tili adabiy til modifikatsiyasi sifatida qoraxoniylardan so<sup>ng</sup> Xorazmda vujudga kelgan<sup>2</sup>.

Qarluqlar turkiy xalqlarning eng yirik vakillaridan bo<sup>lib</sup> ularning qarluq deb atalishi O<sup>g</sup>uzxonning harbiy yurishlari bilan bog<sup>liq</sup> rivoyatda keltirilgan:

*“Vaqtim O<sup>g</sup>uzxon ko<sup>n</sup>glida sohib xurujlig<sup>t</sup> taqozosin va jahongirlig<sup>t</sup> tamannosin tutub, tamomi (37b) turk cherigin yig<sup>nob</sup> Talosh va Sayram usti birla Movaraunnahrغا keldi va Movaraunnahr podshohlari O<sup>g</sup>uzxon<sup>a</sup> tob va toqat keltura olmay muhkam qal<sup>a</sup>alarg<sup>a</sup> qaboldilar. O<sup>g</sup>uzxon olti oyg<sup>a</sup>acha qabob, jami Movaraunnahr va Turkiston diyorlarin olib musulmon qildi. Va borcha oling<sup>on</sup> qal<sup>a</sup>alarg<sup>a</sup> dorug<sup>a</sup> alig<sup>t</sup> amalin berib, hokim qo<sup>yub</sup>, yana lashkar chekib Balx viloyatig<sup>a</sup> bordi. Balxni dog<sup>i</sup> olib, G<sup>ur</sup> va G<sup>urjiston</sup> nohiyatig<sup>a</sup> qarab yurdi. Qish vaqt erdi, havo ko<sup>b</sup> sovuq erdi. G<sup>urning</sup> tog<sup>i</sup>stonig<sup>a</sup> qor ko<sup>b</sup> yog<sup>i</sup>ib erdi. O<sup>g</sup>uzxon amr etdikim, hech lashkardin uzoq va yiroq chiqmosunlar. Ammo qorning benihoyatlig<sup>i</sup> va sovuqning beg<sup>a</sup>oyatlig<sup>i</sup>din har necha odamlar va ko<sup>b</sup> hayvonlar va otlar o<sup>ldi</sup>. Va O<sup>g</sup>uzxonning otlari qoldi. Chun O<sup>g</sup>uzxon G<sup>urni</sup> olg<sup>a</sup>ondin so<sup>ng</sup> lashkaridin son oldi. Bir necha lashkar kam keldi. Chun tahqiq qildi. Bildikim, keyinroqda qolg<sup>on</sup> erkanlar. Olar kelgan (38a)din so<sup>ngra</sup> so<sup>r</sup>dikim: “Sizlar ne uchun izda qoldingizlar?”. Olar oydilarkim: “Qorning ko<sup>b</sup>lugidin oshmoqg<sup>a</sup> a yaromay izda qolib erduk”. O<sup>g</sup>uzxon olarg<sup>a</sup> “qorliq” ot qo<sup>ydi</sup>. Jami’ qarliq*

<sup>1</sup> Аскаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари // «Ўзбек халқининг келип чикиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги республика илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2004 йил 19-20 ноябрь. – 10-бет.

<sup>2</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – Москва: Высшая школа, 1969. – стр. 305.

*toifasi olar naslidin jahonda yoyildi. O'g'uzxonning bu son olg'onin "Ravzat us-safo"da G'ur va G'urjistonidin yurtig'a qoytg'onda bo'lg'on deb rivotay qilibdur. Vallohu a'lam"*<sup>1</sup>.

N.A.Baskakovning fikricha, qarluq-xorazm tili mo'g'ullar bosqinidan so'ng, bir-biriga favqulodda yaqin bo'lgan ikkita til – markazi Xorazm hisoblangan Jo'ji ulusining Oltin O'rda adabiy tili va Alisher Navoiy davriga kelib eski o'zbek tilini shakllanishiga olib kelgan Chig'atoy ulusining tiliga asos bo'lib xizmat qilgan<sup>2</sup>.

Qarluq-xorazm shahobchasiga to'rtta til kirgan:

1. Ahmad Yassaviy va uning shogirdi Sulaymon Boqirg'oniy asarlari tilini o'z ichiga oluvchi qarlik-xorazmiy tili;
2. Asosini Xorazmning adabiy tili tashkil etuvchi J o'ji ulusining Oltin O'rda tili;
3. Chig'atoy ulusining chig'atoy tili;
4. Eski o'zbek tili<sup>3</sup>.

Qarluq-xorazm adabiy tilining asosiy yodgorliklari Ahmad Yassaviyniing "Devoni hikmat" asaridir<sup>4</sup>. Nisbatan keyingi davrlarga mansub yodgorliklar sirasiga Oltin O'rda adabiy tilida yozilgan "Nahj ul-Farodis", "Muhabbatnoma", "Xusrav va Shirin", "Me'rojnama" asarlari kiradi<sup>5</sup>.

Chig'atoy ulusining adabiy tilida yozilgan asarlar jumlasiga "Muqaddamat ul-adab", "Yusuf va Zulayho", "Ravnaq ul-islom", "O'g'uznama" asarlari mansub<sup>6</sup>.

Chig'atoy adabiy tili termini qaysi davrlarni o'z ichiga olishi haqida turkologlar orasida yakdillik yo'q. Bu haqida G.F.Blagova shunday deb yozadi: "XV asr boshidan 1921 yilgacha [Samoylovich A. 1928. – S. 21-23; Eskmann 1966. – S. 9-10.] bo'lgan davrni chig'atoy adabiy tili deb hisoblovchi

<sup>1</sup> Sanoiy Bobojon. Ma'orif un-nasab. – 37b, 38a-varaqlar.

<sup>2</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучение ... – стр. 305.

<sup>3</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучение ... – стр. 304.

<sup>4</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучение ... – стр. 305.

<sup>5</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучение ... – стр. 305-306.

<sup>6</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучение ... – стр. 306.

tadqiqotchilardan farqli o'laroq, biz bu terminni XV-XVI asr boshigacha bo'lgan kitobiy-yozma tilga nisbatan qo'llaymiz<sup>1</sup>. A.M.Shcherbak XIV-XVI asrlardagi o'zbek tilini eski o'zbek tili deydi<sup>2</sup>. A.Najip eski o'zbek tili terminini qo'llamaydi, uning o'rniga "chag'ataycha" yoki "O'rta Osiyo turkchasi" terminlarini ishlatadi<sup>3</sup>. V.V.Reshetov esa *qadimgi o'zbek tili, eski o'zbek tili* atamalarini qo'llaydi<sup>4</sup>.

Turk olimlari "eski o'zbek tili" atamasini mutlaqo ishlatishmaydi. Ular "chag'atayja" terminini afzal ko'rishadi. O'zbek tilshunoslari esa chig'atoy terminini qo'llamaydi, uning o'rniga *eski o'zbek tili* atamasini ishlatadi.

Chig'atoy adabiy tili yodgorliklari o'zida ko'proq Qoraxoniylar adabiy tili xususiyatlarini saqlab qolgan<sup>5</sup>. Ba'zi yodgorliklar tilining lokal xususiyatlari ifodalangan. Masalan, "Ravnaq ul-islom" asari tilida turkman tili, "O'g'uznama" asari tilida esa, uyg'ur tilining sharqiy dialektlari aks etgan<sup>6</sup>.

Albatta, u davrlarda qarluq-xorazm tili degan atama mavjud bo'limgan. Bu ilmiy istiloh xolos. Xorazmdagi turkiy til goh adabiy til sifatida namoyon bo'lsa, goh turkiy lahja sifatida muomalada bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida Husayn Xorazmiyning xorazmcha turkiy tilda "Qasidai Burda" asariga sharh bitganini yozadi<sup>7</sup>. Movaraunnahr, Xuroson va Usmonli turk davlatida XV asrlarda Xorazm aholisining mahalliy tiliga xorazm turkchasi sifatida qaralgan.

<sup>1</sup> Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. – М., 1982. – С. 224.

<sup>2</sup> Шчербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М.Л., 1962. – С. 12.

<sup>3</sup> Нажип А.Н. Хорезми. Мухаббат-наме. М., 1961. – С. 9.

<sup>4</sup> Решетов В.В. Узбекский язык. Ташкент, 1959. – С. 16.

<sup>5</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучение ... – стр. 306.

<sup>6</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучение ... – стр. 306.

<sup>7</sup> Navoiy Alisher. Majolis un-nafois. – Toshkent, 1993. – 9-bet.

## Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamat ul-adab” asari.

Mahmud Zamaxshariy 1075-yilning 18-mart kuni Xorazmning Zamaxshar (hozirgi Dosho‘g’uz viloyatining Izmixshir qishlog‘i) qishlog‘ida dunyoga kelgan. U qomusiy bilim sohibi bo‘lib, o‘zidan sarf, nahv, tafsir, mantiq kabi fan sohalariga oid “al-Kashshof”, “al-Mufassal”, “Atvoq uz-zahab” va “Navobig‘ ul-kalim” singari o‘nlagan asarlarni yozib qoldirgan. Uning “Muqaddamat ul-adab” asari, ayniqsa, katta shuhrat qozongan.

«Muqaddamat ul-adab» dastlab ikki tilda – arab va fors tillarida yozilgan. Asarning ikki tilli variantlari sirasiga arabcha-forscha, arabcha-turkiy va arabcha-xorazmiy tuzilgan lug‘atlar kiradi. Asarning eng ko‘p tarqalgani ham aynan ikki tilli variantga mansub nusxalardir.

Arab tili va grammatikasini mukammal bilgan Zamaxshariy fors, eski xorazmiy-turkiy tillarini ham yaxshi egallagan. Shuning uchun ham uning mazkur yirik lug‘ati muvaffaqiyatlari chiqqan. Natijada «Muqaddimat ul-adab» o‘sha davrning o‘zidayoq xorazmiy-turkiy tiliga tarjima qilinib, uch tilli lug‘atga aylantiriladi<sup>1</sup>.

Ba’zi manbalarning ko‘rsatishicha, Zamaxshariyning o‘zi lug‘atni xorazmiy tiliga tarjima qilgan <sup>2</sup>(على اكبر دهدا،لغة الماء،تهران،١٢٤٧،ص ٢٧٧). Lug‘at mo‘g‘ullar istilosidan keyin mo‘g‘ul tiliga ham tarjima qilinib, oqibatda to‘rt tillik lug‘atga aylanadi.

«Muqaddamat ul-adab» asarining yigirmaga yaqin qo‘lyozma nusxaları jahonning Berlin, Leypsig, London, Istanbul, Tehron va Mashhad kabi shaharlari kutubxonalarida saqlanadi.

“Muqaddamat ul-adab” asarining o‘tgan XX asrning 60-yillarida Turkiyada topilgan qo‘lyozma nusxasi 655 hijriy (1257) yilda ko‘chirilgan. Lug‘at arab-fors-eski o‘zbek tillarida tuzilgan. Bu nusxa ko‘chirilish yili bo‘yicha “Muqaddamat ul-adab” asarining eng qadimgisi hisoblanadi. “Muqaddamat ul-adab” asarining Turkiyaning Ko‘nyo shahrida xususiy

<sup>1</sup> Ҳакимжонов М. “Муқаддамат ул-адаб”нинг кўлдэзмаси // ЎТА. – Тошкент, 1978. – №8. – 17-бет.

<sup>2</sup> Dehixudo A.A. Lug‘atnomasi. – Tehron, 1347. – S. 277.

kutubxonada saqlanayotgan XIII asrgacha bo‘lgan davrda yaratilgan nusxasi asarning xorazmiy varianti sifatida qayd qilinadi. V.V.Bartoldning aniqlashicha, “Muqaddamat ul-adab” asarining turkiy so‘zlik qismi XII-XIII asrlar O‘rta Osiyo turkiy adabiy tilini o‘zida aks ettirgan<sup>1</sup>. N.Baskakov esa, “Muqaddimat ul-adab” asarining turkiy so‘zlik qismi tilini XIII-XIV asrlar chig‘atoy adabiy tiliga mansubligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, chig‘atoy adabiy tili yodgorliklari deb ataluvchi “O‘g‘uznama”, “Muqaddamat ul-adab”, “Ravnaq ul-islam” va boshqa shu kabi asarlar o‘zida qoraxoniylar adabiy tilining jihatlarini ko‘proq darajada saqlab qolgan<sup>2</sup>.

“Muqaddamat ul-adab” – turkiy tillarni qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganishda asqotadi. Ayniqsa, o‘zbek adabiy tili tarixini tadqiq qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jumladan, asar XVI asrga kelib butkul o‘lik tilga aylangan xorazmiy tili tadqiqotchilari uchun ham nodir manba bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqa ko‘plab o‘rta asrga tegishli manbalarda ham o‘sha davrlarda Xorazmda xorazmcha turkiy til adabiy til sifatida muomalada bo‘lgan va bu tilda bir qancha asarlar yaratilgan. Bu masalaga “Muqaddamat ul-adab” asari turkiy so‘zligi materiali asosida yondoshadigan bo‘lsak, XII-XIII asrlarda Xorazm hududida ikki – xorazm va turkiy tillar teng muomalada bo‘lganligini ta’kidlash mumkin. Chunki, “Muqaddamat ul-adab” asarining arabcha-turkiy ikki tilli variantlari turkiy so‘zlik qismi leksik qatlamida oz miqdorda bo‘lsa-da, qadimgi xorazm tiliga mansub so‘zlar uchraydi.

Zakiy Validiy To‘g‘on 1951-yili Turkiyaning Istanbul shahrida Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamat ul-adab” asaridagi xorazmiy tiliga oid so‘zlarning tabdilini amalga oshirgan<sup>3</sup>. 1967-yili A.Zayanchkovskiy “Muqaddamat ul-adab” asari ism qismida keltirilgan hayvon nomlari haqida maqola chop qildirdi<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> W. Bartold. Eine Zamahšari-Handschrift mit alttürkischen Glossaren // “Islamica”, vol. 2. – Leipzig, 1926-1927.

<sup>2</sup> Басқаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – Москва: «Высшая школа», 1969. – с. 306.

<sup>3</sup> Togan Z.V. Documents on Khorezmian Culture. – Part I. – Muqaddimat al-adab, with the Translation in Khorezmian. – Istanbul, 1951.

<sup>4</sup> Zajaczkowski A. Glava o jivotnix v arabskom trude Zamaxshari // Rocznik orientalistyczny, tom XXX. – Warszawa, 1967. – s. 29.

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida "Muqaddamat ul-adab"ning yetti ta qo'lyozmasi mavjud<sup>1</sup>. Bular ichida O'zR FA Sharqshunoslik institutida №429 raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi o'zining yaxshi saqlanganligi, to'liqligi va nisbatan qadimiyligi bilan ajralib turadi.

"Muqaddamat ul-adab" asarining to'rt tilli variantiga O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi fondida №202 raqamli qo'lyozma misol bo'la oladi. Ushbu qo'lyozma 1492-yil nusxasidan 1921-yili Buxoroda ko'chirilgan. "Buxoro nusxasi" nomini olgan mazkur qo'lyozma bilan tanishib chiqqan S.Ayniy: "Muqaddamat ul-adab" xorazmliklar uchun butun dunyoning boyligiga teng", deya baho bergan (1921 йилда 12-и) <sup>2</sup>. Mazkur qo'lyozma haqida o'z vaqtida professor A.Fitrat ham o'z mulohazasini bildirgan edi<sup>3</sup>. Bu qo'lyozma ism va fe'l qismlari kiritilgan to'rt tilli dunyodagi yagona qo'lyozmadir. Ushbu qo'lyozma asosida N.N.Poppe "Mo'g'ulcha "Muqaddamat ul-adab" lug'ati" nomli kitob chop qilgan<sup>4</sup>.

Keyinchalik, A.Borovkov "Muqaddamat ul-adab" asari ism qismidan o'rinni oltin o'simlik nomlari bo'yicha maqola e'lon qildi<sup>5</sup>. Asarning fe'l va ism qismlari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Z.Islomov "Muqaddamat ul-adab" asarining fe'l qismini 4 ta qo'lyozma nusxa asosida ilmiy-tanqidiy matnini nashrga tayyorladi<sup>6</sup>.

"Muqaddamat ul-adab" asari besh qismdan tarkib topgan. Birinchi qism – ismlar qismi bo'lib, unga 6250 ta arabcha ismiy kalima jamlangan. Ikkinci qism – fe'llar qismi bo'lib, unda 6934 ta arabcha kalima va birikma o'rinni oltan.

<sup>1</sup> СБР АН УзССР, т. I. – Ташкент, 1953. – с. 188-191.

<sup>2</sup> Айиний С. Бухоро мактублари // Мехнаткашлар товуши. – 1921 йил, 12 январь.

<sup>3</sup> Аширабоев С. Фитрат Замахшарийнинг "Мукаддамат ул-адаб" асари хакида // УТА. – №6. – Ташкент, 1996. – 26-28-бетлар.

<sup>4</sup> Поппе Н.Н. Монгольский словарь "Муқаддамат ал-адаб", ч. 1-2. – Труды ИВ АН СССР, т. 14. – М.-Л., 1938; ч. 3. – М.-Л., 1939.

<sup>5</sup> Боровков А.К. Названия растений по бухарскому списку "Муқаддимат ал-адаб" // Тюркская лексикология и лексикография. – 1974. – с. 91-112.

<sup>6</sup> Замахшарий Махмуд. "Муқаддамат ул-адаб". Фөзллар боби. Таржимон ва нашрга тайёрловчи

3.Исломов. – Ташкент: Ислом университети нашрияти, 2003. – Сўзбоши – Б. 31. – Лугат кисми 886 б.

Uchinchi qism harflar qismidir. To'rtinchi va beshinchi qismlar arab tilidagi ism va fe'l turkumlarinig sarf, nahv va e'rob qoidalariga bag'ishlangan.

"Muqaddamat ul-adab" asarining arabcha-forscha ikki tilli varianti yuqorida ta'kidlanganidek, dastlabki yozilgan lug'at hisoblanadi. XX asrning boshlariga qadar "Muqaddamat ul-adab" asarining ana shu arabcha-forscha ikki tilli varianti mashhur edi. Shu sababli bo'lsa kerak, ba'zi adabiyotlarda Zamaxshariyning arabcha-forscha lug'atida xorazmiy tiliga mansub so'z va birikmalar mavjud degan yanglish fikrlar uchraydi<sup>1</sup>. Ayrim tadqiqotchilar o'zlarining maqolalari sarlavhasidayoq "Muqaddamat ul-adab" asarini arabcha lug'at tarzida talqin qilganlar<sup>2</sup>. Asarning biz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgani bu arabcha-turkiy nusxalaridagi so'zlardir.

"Muqaddamat ul-adab" asarining qo'lyozma nusxalari 1305-yildan 1492-yilgacha bir necha marotaba turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan.

Tadqiqotchilar tomonidan "Muqaddamat ul-adab" asarining arabcha-turkiy ikki tilli variantini – arabcha-turkiy/xorazmcha, arabcha-xorazmcha/turkiy yoki arabcha-eski o'zbek shaklida talqin qilish holati ham uchrab turadi<sup>3</sup>.

Asarda uchraydigan xorazm o'g'uzlari tiliga mansub so'zlar gap qurilmalari tarkibida keltirilgan. Bu so'zlarning aksariyati ot (ism) turkumiga oiddir. Shuningdek, fe'l asosda yaratilgan ot, sifatdosh va ravishdoshlar ham mavjud. Shuning uchun bo'lsa kerak, adabiyotlarda "Muqaddamat ul-adab" asarining arabcha-turkiy so'zlikka ega nusxalarini turkiy/xorazmcha nusxalar sifatida darj qiladilar.

<sup>1</sup> Qarang: Растроупена В.С. Иранские языки. Введение. – В кн.: Языки народов СССР. Т. I: Индоевропейские языки. – Москва, 1966. – стр. 200.

<sup>2</sup> Qarang: Zajaczkowski A. Glava o jivotnix v arabskom trude Zamaxshari // Rocznik orientalistyczny, tom XXX – Warszawa, 1967. – s 29.

<sup>3</sup> Benzing J, Yüce N. Chwaresmische Wörter und Sätze aus einer choresmtürkischen Handschrift der Muqaddamat al-adab // Zeitschrift der Deutschen Morgenlandesforschung, №135. – 1985. – s. 92-103.

Quyida “Muqaddamat ul-adab” asarining turkiy so’zlik qismi leksik qatlamida mavjud bo’lgan xorazm o’g’uzlari tiliga mansub ayrim so’zlarni Z.Islomov nashrga tayyorlagan yig’ma ilmiy-tanqidiy matn<sup>1</sup> asosida keltiramiz:

باغلادى باشىنى سرىنچە - sarbijə - “sarpech”, sar - “bosh”, pech - “o’ramoq”. - سلانج (A. 217a. 3);

سلانج - sollonx - “so’ymoq”. Xor. shev. *solloxona* - “kushxona”. - (V. 107b. 8);

*uruj* - “ro’za”, *riyj* - “kun”. - اوروچ تۇنى (G. 31b. 5);

درس لادى بىرنى - dars - mahalliy o’g’it. Xor. shev. *dari* - “dori, em”. - (V. 96a. 7);

جىك بىتىدى انقا افالان نىمە اوجون - *jik* - “hujjat”. Xor. shev. *jiking bomi*. - (A. 268.b. 3);

*susmor* - “echkemar”. - سوسмар (A. 466a. 1);

اوجاس - *ujos* - biror narsaning orqasi, uchi. Xor. shev. *uchak* - “tom”. - (A. 357b. 1);

*dodak* - “cho’ri, xizmatkor”. - يارىمادى دادىكە (A. 243a. 3);

ايير ياغىر قىلىدى كالاتى - *kolo* - “ot-ulov”. Xor. shev. *ko’lik* - “ulov”. - (A. 1), قاجىدى كالا (A. 227a. 2);

*meshk* - “mesh, tulum; suv idishi”. - تولدوردى مشكىنى (V. 2b. 6);

*yakranji* - “yuzi qora”. Xor. shev. *yekgo’rinji* - “yomon ko’rinuvchi odam” يىكانچى بولدى يوزى (V. 61b. 5);

*diyt* - “xun, tovon”. - دىيت الدى اولدور كانдин (V. 12b. 4);

*zubin* - “to’qmoq”. - اوردى انى زوبىن بىرلا (A. 206a. 3);

يىچوک يارسىغا يېتى آزار (B. 38a. 6) يېتى آزار يىنحوكى تىنېڭ ياروسىنەكى

ozar - “tun”. - (V. 34a. 8);

*satrob* - *satrap* - “boshliq”. - ستراب لىك قالدى (G. 35b. 9);

*ovurd* - “ho’plam”. Xor. shev. *o’vurt, o’rt* - “ho’plam”. - اورد (V. 121a. 1);

*kobin* - “mahr, qalin”. - كالىن بىردى خاتونقە (A. 343a. 4);

<sup>1</sup> Замахшарий Махмуд. “Муқаддамат ул-адаб”. Фөзллар боби. Таржимон ва нашрга тайёрловчи З.Исломов. – Тошкент: Ислом университети нашриёти, 2003. – Сүзбози – Б. 31. – Лугат кисми 886 б. Keyingi о’rinnlarda M4:

- minkor* – “buloq, chashma”. منکار (B. 65a. 3);
- yonut* – “mukofot, ajr”. يانوت (A. 383b. 4);
- kullik* – “mardikor”. کولکبولدی (G. 51a. 9);
- fo'ta - po'ta - "ro'mol".* Xor. shev. *gulli po'ta* – “gullik ro'mol”. سالدى (پىرده نى داشى فونته نى) (A. 387b. 3);
- sort* – “shaharlik”. سارتجا سوزلادىلار (A. 417b. 2);
- kilakay* – “kalbosh”. Xor. shev. *kalaki qo'chqor* – “shoxsiz qo'chqor”. کىلەكاي بولدى (A. 409a. 1);
- qasfrijug* – “qalin”. قىرقۇچىقى بولدى ساجى (B. 85b. 1);
- tutuk* – “parda”. توتوك اوردى (A. 224a. 3);
- buzunjak* – “ayollar kiyimi”. - بوزونجى (A. 431a. 4);
- naviton* – “yangi”. نوبنان بولدى (A. 328a. 2);
- koluband* – “ahmoq”. كالو بندى تىدى انى (V. 99a. 1);
- javnak - janak - "qur'a".* Xor. shev. *janak o'yin* – “tovuqning ayri suyagi bilan babs boylashish”. جونك سالد يلا ر (A. 467a. 4);
- farachi* – “paranjii”. فەھىي (A. 492b. 2);
- kurkod* – “to'qima etik”. كوركاد (A. 528a. 2);
- darog'a* – “ayollar yopinchig'i”. Xor. shev. *doroyi ro'mol*. دراغە (B. 151b. 4);
- afsar* – “otning abzali”. افسار اوردى اطغا (V. 5a. 7);
- abjil* – “qovushmoq”. ابجىل بولدى اتىنەك بىرلا (A. 228b. 3);
- kalas* – “kaltakesak”. او لادى كلسنى (A. 230b. 3);
- koriz* – “xizmatkor”. يودى كارزىچى تۇنلى (V. 31b. 6);
- urga* – “yashamoq”. اوركادى سرايدە (B. 44a. 3);
- kalto* – “kaltakesak”. Xor. shev. *kalto* – “kaltakesak”. كلتا (B. 166a. 4);
- xurush* – “jadal”. ايلادى طلوتنى حوروش بىرلا (V. 38a. 3).
- qavom bo'ldi anga* – قوام بولدى انكا (V. 52b. 9).
- گىك بولدى – *gung bo'ldi* (A. 307b. 3).
- كوبا – *gubo* (V. 98a. 5).
- جورا اولتۇردىلار – *jo 'ra o'lturdilar* (V. 120b. 8).

گәж – *gaj* (B. 193b. 6).

сланچак – *salinchoq* (V. 135a. 5).

йектай – *yaktoy* (A. 529b. 4).

M.Hakimjonovning qayd qilishicha, Zamaxshariy yashagan davrga yaqin bo‘lgan vaqtarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nuxxalaridagi turkiy so‘zlar eski xorazm tilida, keyingi davrlardagi so‘zlar esa undan farq qilgan holda o‘sha asr tili, shevasi asosida berilgan<sup>1</sup>. Darhaqiqat, “Muqaddamat ul-adab” asaridagi turkiy so‘zlik tarkibida o‘zbek tilining xorazm shevasiga oid so‘zlar ham bor. Biz shevaga oid so‘zlarning asosiylarini “Muqaddamat ul-adab” asarining Z.Islomov nashrga tayyorlagan yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni asosida beramiz:

*uvildiriq* (MA:2) – “uvildiriq, ikra”. Xor. shev. *o‘vildiriq*.

*qochor* (MA:7) – “g‘unajin”. Xor. shev. *qochor*.

*o‘ra* (MA:11) – “ustun”. Xor. shev. *o‘ra*.

*moya* (MA:14) – “moyak, tuxum”. Xor. shev. *moyak*.

*no‘xta* (MA:15) – “temir halqa”. Xor. shev. *no‘xta*.

*singir* (MA:16) – “chipqon”. Xor. shev. *singir*.

*o‘kcha* (MA:24) – “tovon, poshna”. Xor. shev. *o‘kcha*.

*o‘vuch* (MA:25) – “hovuch”. Xor. shev. *o‘vuch*.

*jujak* (MA:75) – “jo‘ja”. Xor. shev. *jujak*.

*navmid* (MA:76) – “noumid”. Xor. shev. *naimit*.

*ko‘shk* (MA:80) – “ko‘shk”.

*karbich* (MA:110) – “g‘isht”. Xor. shev. *karvich*.

*kirki* (MA:140) – “katta tesha”. Xor. shev. *kirki*.

*soqqiz* (MA:149) – “saqich”. Xor. shev. *soqqiz*.

*tiring* (MA:155) – “chuqur”.

*shov* (MA:157) – “boshoq”. Xor. shev. *shovva*.

*chalma* (MA:204) – “salla”.

*najdog'* (MA:206) – rus. “najdak”. Xor. shev. *najdoq*.

*urunj* (MA:228) – “pora”.

<sup>1</sup> Хакимжонов М. “Муқаддамат ул-адаб”нинг кўлғозмаси // ЎТА. – Томск, 1978. – №8. – 19-бет.

- gila* (MA:233) – “gina”. Xor. shev. *gila*.
- sirka* (MA:244) – “bitning turi”. Xor. shev. *sirka*.
- qulaj* (MA:255) – “kasallik nomi”.
- gung* (MA:261) – “kar, soqov”. Xor. shev. *gung*.
- bitlas* (MA:277) – “bit bosgan”. Xor. shev. *bitlas*.
- go'ya* (MA:278) – “kuya”. Xor. shev. *go'ya*.
- tilovar* (MA:284) – “so‘zamol”. Xor. shev. *dilovar*.
- jig'ruq* (MA:290) – “ajin”. Xor. shev. *jig'riq/yig'riq*.
- chilish* (MA:291) – “chalmoq (oyog‘idan)”. Xor. shev. *chilish*.
- munguz* (MA:292) – “shox (hayvon shohi)”.
- irn* (MA:306) – “lab, dudoq”.
- ko‘garjin* (MA:337) – “kaptar”.
- cho‘vut* (MA:343) – “eski paxta”. Xor. shev. *cho‘vit*.
- dangash* (MA:350) – “tengdosh”. Xor. shev. *dangdash*.
- dolu* (MA:371) – “tentak, tanti”. Xor. shev. *dali*.
- tob* (MA:376) – “issiq”.
- yemduk* (MA:385) – “tuk”. Xor. shev. *yemdi*.
- pano* (MA:404) – “himoyalangan joy”. Xor. shev. *pano*.
- bozirgon* (MA:406) – “savdogar”.
- sochoq* (MA:425) – “popuk”. Xor. shev. *sochoq*.
- suplik* (MA:474) – “ahlat”. Xor. shev. *suplik*.
- kirish* (MA:555) – “qayish”. Xor. shev. *kirish*.
- sircha* (MA:698) – “sir(langan)”. Xor. shev. *sircha*.
- obro‘y* (MA:735) – “obro‘”.
- miyonchi* (MA:755) – “o‘rtakash”.
- dul* (MA:785) – “tul, beva”. Xor. shev. *dul*.
- gaj* (MA:863) – “egri”. Xor. shev. *kaj*.
- seja* (MA:869) – “musicha”. Xor. shev. *secha*.
- salinchoq* (MA:872) – “belanchak”. Xor. shev. *sarinjoq*.
- bo‘taka* (MA:873) – “parrandaning oshqozoni”. Xor. shev. *bo‘taka*.

“Muqaddamat ul-adab” – turkiy tillarni qiyosiy-tipologik jihatdan o’rganishda asqotadi. Ayniqsa, o’zbek adabiy tili tarixini tadqiq qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jumladan, asar XVI asrga kelib butkul o’lik tilga aylangan xorazmiy tili tadqiqotchilar uchun ham nodir manba bo’lib xizmat qiladi.

Boshqa ko’plab o’rta asrga tegishli manbalarda ham o’sha davrlarda Xorazmda xorazmcha turkiy til adabiy til sifatida muomalada bo’lgan va bu tilda bir qancha asarlar yaratilgan. Bu masalaga “Muqaddamat ul-adab” asari turkiy so’zligi materiali asosida yondoshadigan bo’lsak, XII-XIII asrlarda Xorazm hududida ikki – xorazm va turkiy tillar teng muomalada bo’lganligini ta’kidlash mumkin. Chunki, “Muqaddamat ul-adab” asarining arabcha-turkiy ikki tilli variantlari turkiy so’zlik qismi leksik qatlamida oz miqdorda bo’lsa-da, qadirngi xorazm tiliga mansub so’zlar uchraydi.

Asarda uchraydigan xorazm tiliga mansub so’zlar turkiy gap qurilmalari tarkibida keltirilgan. Bu so’zlarning aksariyati ot (ism) turkumiga oiddir. Shuningdek, fe’l asosda yaratilgan ot, sisatdosh va ravishdoshlar ham mavjud. Shuning uchun bo’lsa kerak, adabiyotlarda “Muqaddamat ul-adab” asarining arabcha-turkiy nusxalarini turkiy/xorazmcha nusxalari sifatida darj qiladilar.

### Sulaymon Boqirg’oniyning “Boqirg’on kitobi”.

Sulaymon Boqirg’oniy Xorazmnинг Boqirg’on mavzesida tug’ilgan bo’lib, uning tug’ilgan sanasi ma’lum emas. U 1186-yilda vafot etgan<sup>1</sup>. Sulaymon Boqirg’oniy xalqlar orasida Hakim ota laqabi bilan ham mashhur bo’lgan<sup>2</sup>. Sulaymon Boqirg’oniyning 1848 va 1898-yillari Qozonda nashr qilingan toshbosma nusxalari O’zR FA Shl fondida saqlanadi<sup>3</sup>.

Quyida “Boqirg’on kitobi”dagи o’zbek tili tarixiy leksikasini ma’lum darajada boyitgan o’z va o’zlashma qatlamga oid ayrim so’zlarni keltitib o’tamiz: abdol (SB:40) – “orif, darvesh”, avon (SB:11), angubin (SB:50) – “sirka”, behil (SB:9), birubor (SB:19) – “xudo, parvardigor”, boron (SB:18) – “bo’ron”, vildon (SB:11) – “yaratilish”, doru (SB:16) – “dori”, joh (SB:16) – “bo’ron”, vildon (SB:11) – “yaratilish”, doru (SB:16) – “dori”, joh (SB:16) –

<sup>1</sup> Бокиргоний Сулаймон. Бокиргон китоби. – Шеърлар ва достон. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1991. – 80 б.

<sup>2</sup> Бокиргоний Сулаймон. Бокиргон китоби. – ... 3-бет. Keyingi o’rinlarda SB:

<sup>3</sup> Boqirg’oniy Sulaymon. Boqirg’on kitobi. – O’zR FA Shl. inv. №12646, №289.

“chuqur, tuban”, dong (SB:57), katon (SB:27) – “mato turi”, korvon (SB:14) – “karvon”, sara (SB:15) – “yaxshi, saralangan”, sorvon (SB:14) – “karvon boshlig‘i, sarbon”, tumo (SB:63), ulon (SB:58), xo‘chi (SB:63) – “payg‘ambar”, o‘rinq (SB:20) – “**pora**”, o‘rung (SB:50) – “**qalin**”, qitron (SB:55) – “o‘simlik”, qulovuz (SB:28) – “yetakchi, yo‘lboshlovchi”, hoviya (SB:55) – “jahannamning tubi”, dong (SB:57), ko‘kjin (SB:58) – “kaptar”, ulon (SB:62), xo‘chi (SB:63) – “payg‘ambar (Iso a.s.ga nisbatan)”, tumo (SB:63), so‘chi (SB:64) – “elchi, sovchi”, gilim (SB:64) – “mato turi”, ro‘za (SB:64), namoz (SB:64), yapon (SB:64) – “yobon, dasht”, tezgin (SB:65), saroy (SB:65), juft (SB:65) – “erxotin”, tul (SB:65) – “tul, beva”, illiyin (SB:65) – “jannah bog‘i”, behil (SB:66), farmon (SB:66), farishta (SB:66), axshom (SB:66) – “oqshom”, yasig‘ (SB:66) – “namoz vaqt”, faryod (SB:67), Lubnon (SB:67) – “tog‘ nomi”, uro (SB:68), Iso suchi (SB:68) – “Iso alayhissalom”, mung (SB:68) – “g‘am”, bo‘z (SB:68) – “matoning turi”, roz (SB:68) – “sir”, ukum (SB:68) – “katta, ko‘p”, navmid (SB:68) – “noumid”, uchmog‘ (SB:68) – “jannah”, chatir (SB:68) – “chodir”, sordi (SB:68), go‘r (SB:68) “mozor”, enju (SB:68) – “inju”.

Keltirilgan mazkur lug‘atdagi so‘zlar asar leksik qatlamiga mansub birliklarning o‘zbek tili rivojidagi o‘rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi. So‘chi, ukum, ko‘kjin, o‘rung, xo‘chi kabi so‘zlarni etimologik, tarkibiy tahlillarini amalga oshirish mazkur asar leksikasiga oid birliklarning substrat qatlam, ilk o‘zlashma qatlam hamda turkiy tillarning dastlabki davrlaridagi lug‘aviy birliklar haqida muhim ma’lumotlar to‘plashga katta hissa qo‘shadi.

### **Nosiruddin Rabg‘uziyning «Qisasi anbiyo» asari.**

“Qisasi Rabg‘uziy” 1309-10 yillarda yozilgan. Jami 72 qissadan iborat. XV asrga mansub qo‘lyozma nusxasi Londondagi Britaniya muzeyida, XVI asrga mansub nusxasi Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida, XIX asrga tegishli qo‘lyozma va bosma nusxalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida №1025, №7397, №1874 inventar raqamlari ostida saqlanmoqda<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Рабгузий Носируддин. Қисаси Рабгузий. – I китоб. – Тошкент: «Ёзувчи», 1990.

E.Fozilovning fikricha “Qisasi Rabg‘uziy” asari til jihatidan “Tafsir”, “Hisrav va Shirin”, “Nahj ul-Farodis”, “Siroj ul-qulub” obidalariga yaqin turadi<sup>1</sup>.

Quyida asar leksikasiga oid turkiy tillarning, ayni damda, o‘zbek tilining rivojida munosib hissa qo‘sghan so‘zlardan namunalar keltiramiz. Ushbu so‘zlarni genetik nuqtayi nazardan tahlil qilish, komponent tadqiqini amalgalashirish zarurati mavjud.

### Lug‘at

adiz (uzun QR I:52), azin ( o‘zga QR I:14), azina (odina kuni QR I:12), ayva (behi QR I:107), amud (qilich QR I:154), amurd (nashvati QR I:26), arandand (javzo QR I:101), aryon (ayron QR I:76), arxom (QR I:95), achcha (stroymaterial. Suvoq QR I:133), ashnu (QR I:12), ayagu (qobirg‘a QR I:18), badiz (QR I:99), baqlan (uy hayvoni QR I:104), bahman (oy nomi QR I:103), bolo (balandlik QR I:99), bukarchak (bitiklar qiyomatgacha meros qoldi QR I:35), go‘jak ( o‘lchov nomi QR I:113), yobon (yovon QR I:62), juvol (xurjun QR I:143), zarg‘un (poliz ekini QR I:180), ingan (mol QR I:44), ingirchoq (QR I:41), kabin (qalin QR I:74), kavak (QR I:17), kayd (makr, odat QR I:128), kalaz (o‘t yoquvchi odam QR I:64), kenj (kenja QR I:108), kirshan (QR I:104), kozir (to‘quvchi QR I:25), kolobok (kapalak QR I:115), kungi (banda QR I:72), kununch (QR I:145), ko‘ni (rost QR I:20), makriyon (xalq, elat QR I:87), mangim (masofa QR I:92), meng (xol QR I:114), mengiz (tovon, oyoq QR I:126), mini (miyasi QR I:69), mungusht (mush QR I:133), navsibosliq (nav+sibos QR I:100), nasx (uy bezagi, naqshi QR I:154), novadon (suv yo‘li QR I:152), oyina (yashirin QR I:18), og‘in (lol, soqov QR I:61), parcha (mato QR I:140), sabkina ( o‘yinning nomi QR I:88), sazan (yirik QR I:58), sala (xurmo yaprog‘i QR I:58), sanduvoch (qush QR I:104), sarmusoq (chesnok QR I:180), sarhang (lashkar QR I:98), sag‘roq (may QR I:104), sahra (toponim QR I:87), Sidilar (ochdilar, buzdilar eshikni QR I:92), singar (taraf QR I:16), sobqon I:87), Sidilar (ochdilar, buzdilar eshikni QR I:92), singar (taraf QR I:16), sobqon I:87).

<sup>1</sup> Рабгузий Носируддин. Кисаси Рабгузий. – I китоб. – Тошкент: «Ўзувчи», 1990. – Сўзбоши. – 6-бет. Keyingi o‘rinlarda QR I/II.

(tosh otar quroq QR I:150), susub ( o'lchab QR I:146), sug'on (piyoz QR I:180), so'klun (g o'sht, bag'ir QR I:83), tarin (poliz ekini QR I:180), tatu (sifat QR I:81), teb, teba (elat, xalq QR I:48), tebiz (sifat QR I:16), tovar (QR I:70), topug' (xizmat QR I:71), tunak (yashirinadigan joy, tuynuk QR I:150), tus (par QR I:84), to'puz (gurzi QR I:69), uvuncha (QR I:89), uma (oriyat, ko'ngil QR I:123), urag'ut (xotin QR I:158), uchak (QR I:66), uchuz (to\*qlik QR I:141), fusus (avramoq QR I:78), xavosti (sifat QR I:177), xarbuз (tarvuz QR I:26), xumdon (QR I:172), chakki (hujjat QR I:75), chaqir (ko'zning sifati QR I:56), chuz (mato turi QR I:104), chujak (tuxumning sarig'i QR I:117), chug'd (sochning sifati QR I:130), shappot (shapaloq QR I:159), Shoz (QR I:176), mungush (mush QR I:14), ernak (barmoq QR I:17), yaza (er sifati QR I:134), yanut (QR I:21), yanchuk (bosh QR I:57), yag'an (tuya QR I:97), qaba (soqol sifati QR I:34), qort (mo'ri QR I:122), g'anin (kasallik nomi QR I:166), habta (yo'q QR I:20), hirfa (hunar, ilм QR I: QR I:33), huri (QR I:104).

Umumiyl qilib aytganda quyida yana bir necha asar va ularning leksik qatlamiga oid lug'atlardan namunalar keltiramiz. Mazkur lug'atlarni keltirishdan asosiy maqsad: mazkur so'zlar eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili davrlariga mansub asarlar tilning rivojida, lug'at tarkibini boyishida, tilning silliqlashishi, grammatik shakllarning rivoji – umuman har jihatdan katta ta'sir ko'rsatganligini isbotlashdir. Ayni damda, ushbu lug'atlardagi so'zlarning genetik, komponent tahlillarini amalga oshirish, tarqalish arealini belgilash juda muhim ekanligini ta'kidlash zarur.

### **Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun» dostoni va «Gulistoni bit-turkiy» asari.**

Sayfi Saroyi 1321-yili Xorazmning Sariqamish qishlog'ida tug'ilgan. 1398-yili Misning Iskandariya shahrida vafot etgan. U umri davomida Oltin O'rda, Turkiya va Misr mamlakatlarida bo'lgan. Uning bizgacha o'ndan ortiq g'azal, qasida, qit'a, ruboij, shuningdek, «Suhayl va Guldursun» dostoni va «Gulistoni bit-turkiy» asari yetib kelgan. «Sinbodnoma»ni o'zbek tiliga qilgan tarjimasi esa bizgacha yetib kelmagan. 1391-(hijriy 793-yil shavvol oyining

birinchi kuni) yili «Gulistoni bit-turkiy» asarini yozgan. «Gulistoni bit-turkiy» asarining yagona nusxasi Gollandiyaning Leyden universitetida №1355 inventar raqami ostida saqlanadi. «Suhayl va Guldursun» dostoni va «Gulistoni bit-turkiy» asarlarining fotonusxalari O'zR FA Sharqshunoslik institutida mavjud<sup>1</sup>.

### Lug'at

بدرقى - *badraqa*: Bir yigit bizga *badraqa* bo'ldi (G, 148a 5) 1,25;  
برطىل - *bartil*: Gar esa qazi alib *bartil* sandan besh xiyar (G, 177a 11) (1,229);

بىكەن - *bikar*:

Nazar qil bizga bir sa'at aya mahbubi ravhani,  
Anintek bizni xush ko'r kim, *bikansun* aql ruhani.

(G, 179b 4). (1,238).

بىچىن - *bichin*:

*Bichin* vaqtı kelib bug'day etib tur,  
Ko'zun ach uyqudan kim tan atib tur.

(G, 135b 6). (1,238).

دەرم - *daram*:

Saxilarnin alinda bir *daram* yoq,  
G'anilarda derahim choq, karam yoq.

(G, 150b 5). (1,331).

جىك - *jak* (xom, pishmagan): Bir necha *jeck* kirpitch. (G, 149b),

باخۇ - *yaxu*: Bu salih naqasimi *yaxu* dajjal eshaki (G, 154a 9) (1,510);

لەلاج - *laqlaj* (shaximat ishqibozisi): «ajabmi ishq *laqlaji* surub at salatinni piyada birlan utsa (G, 113a 3) (2,19);

تەنلىي - *tanli*: Anin bekin qattı yuzli, yumshaq tanli mahbubdan vafa kelur (G, 127a 4) (2,379);

اورۇج - *uruj*: Kim degay ol kun ol uruj tutkay, boyla bayram bolub anga payda (G, 47b 11) (2,442);

فەستۈق - *fastuq* (pista) (G, 180b 2) (2,466),

<sup>1</sup> Шеърлар. Гулистан. – Тошкент, 1968.

**فروه** – *farva* (po'stin): Ol og'rylar beki buyurdy bar tonyn dag'i yuz aqycha bilan bir farva berdilar (G, 110a 5),

**شیر** – *shir* (sher): Qandadur shir kelib panjada quvvat ko'rsun (G, 148b 8) (2,541),

**غراب** – *g'urab* (qarg'a) (G, 110a 13) (2,694).

amud (suvdagi orol) 100a 65, angar (eslamoq) 50b 34. babak (ko'z babagi) 132a 86, baytor (taqa qoquvchi) 107a, batan (holi batan) 152a 98, Batxos (amir Batxos. a.o.) 159 102, burdi yamaniy (Yaman ...) 92a 60, buchuq habba (chaqa, mayda pul) 39b 62, Vatvot (ko'rshapalak) 107b 68, Vosit shahri (Vost shahri) 85b 55, Diyor Bakr (shahar) 134a 87; jalib 17b 16, jisr 87b 56, zag'al (tanga turi) 53b 36, z o'qoq 24a 20, yo'g'urt 43b 30, kirda (arpa un) 90b 58, kobil 68a 45. mihakk (mohak toshi) 156b 100, movard 52b 35, okif 23b 19, pas 14a 14, simot 88b 57, sisiqon (qush) 117a 75, tabli 152a 98, - *taqa* (oyna, daricha) ol qyz *taqany* *yabty* (G, 11b 2) (2,372). tarkash 157b 101, tarra (jonliq Qo'zi, darranda) 90a 58, ujrati (kema ujrati) 100a 65, uzdan (chiroyli, kelishgan) 47a 32, shangul (sevgili) 113b 72, yaxni (ovqat turi) 74b 48. Qabola (xorij matosi, tovari) 92b 59, qav (paxta) 38b 28, qirnaq 47a 59, qutn 60b 40, g'irbol 21b 18, g'iri 39b 265. hilla 87b 56.

### **Haydar Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari.**

Haydar Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari asosini Xorazmnинг adabiy tili tashkil etuvchi Jo'ji ulusining Oltin O'rda tilida yaratilgan. Bu til qarluq-xorazm til shaxobchasining Chig'atoy adabiy tilidan oldingi davriga mansubdir. Bu davr Oltin O'rda xonligining qulashi bilan tugaydi. Asar tili qipchoq tipiga yaqin hisoblanadi.

«Muhabbatnoma» asarining 1353-54-yilda yozilgan 3 ta qo'lyozma nusxasi mavjud<sup>1</sup>. Shulardan birisi uyg'ur yozuvida yozilgan<sup>2</sup>.

“Muhabbatnoma” 11 nomadan iborat. Jami 473 baytdir. Asarning 4, 8 va 11-nomalari fors-tojik tilida yozilgan<sup>1</sup>. “Muhabbatnoma” 1959-yili kitob

<sup>1</sup> Шербак А.М. Огузнаме, Мухаббатнаме. – Памятники древнеуйгурской и староузбекской письменности. – 1959.

<sup>2</sup> Qosimov S. Xorazmiy ijodi: Nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1950.

shaklida Toshkent shahrida nashr qilingan<sup>2</sup>. Rus olimi A.M.Shcherbak 1959-yili “O‘g‘uznama, Muhabbatnoma” nomli tadqiqotini e‘lon qilgan<sup>3</sup>. 1961-yilda asarning matni, rus tiliga tarjimasi, transkripciyasi va tadqiqoti E.N.Najib tomonidan nashr qilingan<sup>4</sup>.

### Lug‘at

تَابَنْدَا – *tabanda* (tabanda):

Quyashtek davlatyng tabanda bolsun (Mn., 294b 2)<sup>5</sup>.

هُوَيْدَا – *huwayda*. (aniq):

Husnni ta huwayda qildi xaliq (Mn., 309a1)<sup>6</sup>.

### Qutbning «Husrov va Shirin» dostoni.

Qutb Xorazmiy «Hisrav va Shirin» dostonini 1330-40-yillar orasida Sig‘noq shahrida yozgan. U Oq O‘rdaga Tinibek huzuriga borgan. Doston amir Qutlu Xo‘janing tavsiyasi bilan 1383-84-yillarda Misrda Berka Faqih ibni Barokaz Ezgu Qipchoqiy tomonidan ko‘chirilgan. Bu qo‘lyozma 1914-yili Parij milliy kutubxonasidan topilgan. “Hisrav va Shirin” dostonining tili bir muncha tadqiq qilingan. Quyida asar tarkibidagi turkiy, arabiyy va forsiy so‘zlardan iborat lug‘atni keltiramiz. Arabcha va forscha so‘zlar asosan, an‘anaga ko‘ra islom dini bilan bog‘liq ravishda qo‘llanilgan.

### lug‘at

آتشخانه – *atashxana*:

Q‘lyb ko‘b vaqif atashxamag‘a ham (XSh, 32b 18) (1,177);

پانو – *bonu*. (XSh, 27b 5) (1,211);

بود – *bud*:

Tek atyn Shirin ermez ey but-i chin,

Atyn-tek oz bodun barchasy shirin

(XSh, 43b 5) (1,260-261);

<sup>1</sup> Хорезмн. Мухаббатнаме. /Издание текста, транскрипция, перевод и исследования Э.Н.Наджипа/. – 1961.

<sup>2</sup> Muhabbatnoma. – Toshkent, 1959.

<sup>3</sup> Хорезмн. Мухаббатнаме. /Издание текста, транскрипция, перевод и исследования Э.Н.Наджипа/. – 1961.

<sup>4</sup> Фазылов Э. Староузбекский язык. – т. II. – Ташкент, 1971. – стр. 369.

<sup>5</sup> Фазылов Э. Староузбекский язык. – т. II. Ташкент. Фан. 1971. стр. 680.

بۇتى - *buta* (nishon, kamon?), (XSh, 50b 8) (1,291);

جىق - *jyq* (yomg‘ir):

*Hava daryadin alsa song berur jiq.* (XSh, 101a 1) (1,372),

پاخود - *yaxud*:

Ko‘rub angla ko‘nulda rahmi barmu,

Yaxud hich adami urg‘in sevarmu?

(XSh, 14b 3) (1,510);

كەنگىرە - *kangira*:

Urub kankira urkub o‘rdak-u qoz,

Havada qildi lachinlar ma parvaz

(XSh, 80b 10) (1,584);

مايىھ - *maya* (mag‘z):

Nishan berdi bu mayalarqa ixlas,

Bular tekma amalda bolsun teb xas.

(XSh, 2a 3) (2,69).

نىسيي - *nasiya* (kredit) (XSh, 43b 1) (2, 142);

اوفراك - *o‘vrak* ( o‘rdak):

Qaling o‘vrakka kirmish-tek lachin,

To‘kar dushman qanin urub qilichin.

(XSh, 19b 20) (2,183).

پارسى - *parsi*. Xanim ating‘a ushbu parsi tilni chavurdum (XSh, 7a 14) (2, 212);

بستان - *pistan*. Kumushdin nar yanglig‘ iki pistan (XSh, 12a 10) (2, 213);

بيچبىچ - *pichapich* (af‘a) (XSh, 110a 4) (2, 213);

سلا - *salo* (qishloq):

Kechur ashib saladin bir salaqa,

Salib yalg‘uz bashin muntek balaqa.

(XSh, 21a 20) (2,245);

سيمورغ - *simurg*’. (XSh, 9b 12) (2, 287),

تىشە - *tisha* (tesha):

Qachan kim tishasin elgenga alg'ay,

Tash uzra mendin artuq naqsh qilgay.

(XSh, 59a 8) (2, 394);

تۇرت - *tut* (daraxt) (XSh, 109b 8) (2, 414);

اسطۇرلاپ - *usturlab* (XSh, 45a 17) (2, 446);

چام - *cham* (qadah): Rayahinlar ara yurub icha cham (XSh, 37b 20) (2, 513);

چوره - *chavra* (atrot): Yurur on tangqa tegru havz chevra (XSh, 2a 8) (2, 514);

چاڭاچاڭ - *chakachak* (taqlid): Qilichlar uni chakachak chiqtı (XSh, 45a 4) (2, 515);

چىڭاۋ - *chigav* (musiqa asbobi, nag'ma): Chigav qilg'a chigav etib tuza saz (XSh, 94a 15) (2, 516);

چىل - *chil* (tog' qushi): Yurushindin uyalur tag'da chil ham (XSh, 103a 8) (2, 517);

چوڭكاراپ - *chongrar* (cho'ncarib (ko'zini): Quyug\*tek chongrarib iki qaraqi (XSh, 103b 6) (2, 520);

شاكىبا - *shakiba* (sabr): Azin qalmadi ko'nglinda shakiba (XSh, 61a 5) (2, 526);

قىېرىت - *qiyqirt* (qichqirmoq): Qiyqirtti vay teb anin ol yuzinga (XSh, 9a 8) (2, 622);

ھەليلە - *halila* (mirobalan):

Eshit kim ne masal aydi hunarmand,

Halila ba halila qand ham qand.

(XSh, 52b 17) (2, 662);

غۇز - *g'o'z* (yong'oq): So'nuksuz xurma, qabsiz g'o'z bo'lmış (XSh, 90b 17) (2, 693).

Avun 47a 205, Ajabnush (a.o) 39a 191, ajun (dunyo) (XSh, 29a) 173, arshun (uzunlik) 55a 220, babak (ko'z babagi) 85a 272, *bazrom* (XSh, 8b) 136, buryon (XSh, 28a) 172, bo'lit 97a 294, - vaz. Qo'lini tutti vaz keri qayitti. (XSh,

93a 10) (1,296), vozingi 113a 321, Gavharmalak (a.o) 39a 191, gulofta 117b 325, Dilshod (a.o) 39a 191, dud (uzukning sifati) 66a 238, eg (ekan, pul) 73a 251, yog'an (shaxmat donasi) (XSh, 20b) 157, zandavoj (XSh, 14a) 147, ivak 44b 199, iviq 105b 307, ivrak (XSh, 13a) 145, irg'al 101b 300, istiza 88a 278, ishkiboy 58b 224. yang (XSh, 14b) 146, yizg'i 96b 291, yinch (XSh, 31a) 177, yunchi (XSh, 23b) 162, yo'n (yon, taraf) 78b 259, yo'g'urt 105a 307, kaslon 116a 324, kertak (chertak) 102a 303, kertu (XSh, 17b) 152, kira (keng kira) 80b 263, kobil 72a 250, koyin 87a 276, kuzaz 52b 213, kuzan (ko'zan) 50a 210, -**کانگ** - *kulang* (kulung 65b, 236-bet. - kirki): Kulaningga sab ol yash nar ag'achi (XSh, 69a 8) (1,641), kur (arslon) 37a 188, kurun 39a 191, ko'garchin (qush) (XSh, 21a) 159, ko'gus (ko'ksi) 92a 285, ko'nchuk (hamyon) 76a 257. Kusab (fe'l, kusarmoq, orzu qilmoq) (XSh, 30b) 175, ڦڻ - *lala* (xizmatkor): Achildi lalatek lalani surdi (XSh, 27a 18) (2,23), Lax.ovur (XSh, 11a) 142, Malik (podshoh), mang 34b 182, mil (ko'zga tortiladigan) 38a 189, mindar 81a 265, mihor 90a 281, mungar 108b 312, navoxt 85b 272, navoxat 97b 293, nahjir 40a 191, Nekiso (a.o) 95a 290, ofsun (yori ofsun) 78b 259, papas (XSH, 15b) 148, Parviz (a.o) (XSh, 33a) 181, pardai rost 95a 290, Parizod (a.o) 39a 191, Pospon (sham, chirog') 93b 286, rahovi (maqom) 98b 295, reng 45a 201, Samanturk (a.o) 39a 191, sarar (fe'l) 54a 217, sarovor (XSh, 12b) 143, singarfı simob 104a 306, sipurtka (hayvon) 47a 205, sirkankubin (sirka) 92b 284, sob (sopmoq) 69a 244, spon 88a 278, soqshar (soqshab, fe'l) (XSh, 63b) 232, sungi (XSh, 9b) 137, sus (XSh, 9b) 137, susun (may) (XSh, 15b) 148, suchur 45a 201, tabnur 85b 271, tabo (XSh, 14b) 146, tuba 67a 240, tutsu (tutatqi) 74b 252, tutxavul 106a 310, tutshu 66a 239, tatg'ovul (xizmatchi) 50a 210, tamar 63b 232, tarlog' (XSh, 9a) 138, terkin (XSh, 28b) 171, tilis 113a 322, tiltog' 112b 319, tuma 112a 320, tutsu (XSh, 27a) 170, to'xshun 46b 203, Farangiz (a.o) 39a 191. Farhod, xoski 53b 215, Xo'tan xotun 39a 191, chumg'oq (qo'lning sifati) 91a 282, chumchag'or 101a 301, churung (chavrang) (XSh, 31a) 177, chug' (ot egari bog'ining chug'i) (XSh, 23b) 162, Shabdiz (a.o) (XSh, 13a) 145, Shat (toponim) 41b 194, qarovash (negr) (XSh, 20b) 157, evak (baliq yo qush) 58b 223,

yadamish 52a 214, qavra 74a 253, qavg'a (paxta, cho'vit) 64b 234, qarinch 114b  
322, qalya 86a 274, qiv 56b 220, qovurt (qari) 45a 202, qoli (g'oli) 101a 301,  
quba 112a 320, Hamila (a.o) 39a 191, Hisrav (a.o), Humoyun (a.o) 39a 191,  
g'oliya 38a 190, *g'urrush* (XSh, 8b) 136.

Mahmud ibn Ali as-Saroyi (XIV asr). "Nahju-l-farodis"

("Jannatlarning ochiq eshlklari") asari

Mazkur asarning muallifi masalasida ko'p bahslar bor. Davlatshoh Samarqandiy «Tazkiran ush-shuaro» («Shoirlar bo'stoni») asarining Alisher Navoiyga bag'ishlangan qismida quyidagi «mulamma» (qit'a)ni keltiradi:  
Turkiysin ko'rub qilurlar erdi tark-u tavba ham,

Gar tirik bo'lsalar erdi Lutfiy birlan Kardariy,

Bovujudi forsi dar junbi she'ri komilash,

Chist ash'ori Zahiru kist bori Anvari?<sup>106</sup>

Bu mulammadagi "Kardariy" taxallusli shoir hozirgacha bir qancha munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Maqsud Shayxzoda "Tazkirachilik tarixidan" maqolasida quyidagicha fikrni aytgan edi: "Mazkur qit'ada zikr etilgan Kardariy Xorazm o'lkasining Kardar qishlog'ida hijriy 761-hijriy / milodiy 1359-1360-yilda vafot etgan Mahmud ibn Ali degan shaxs, "Nahjul-farodis" nomli diniy-axloqiy asar muallifidir. Umrining bir qismini Oltin O'rda poytaxti Saroy shahrida o'tkazgan. Asarning bir necha nusxalari saqlanib qolgan. Bu asarning Kardariy tirik vaqtida xorazmlik kotib ko'chirgan nusxasi Xorazm shevasi va adabiy lahjasining tarixini o'rganishda juda katta ahamiyatga egadir. Har holda Davlatshoh turkiy nazm ustasi deb ko'rsatgan Kardariy degan shoir ana shu Mahmud ibn Alidan boshqasi emas". Nemis olimi N.Xofman ham Kardariy shaxsi haqida o'zining olti jildlik "Turk adabiyoti" kitobida ham ma'lumot bergen. Uning fikricha, "bu shoir ... mashhur turkigo'y shoir Mahmud ibn Ali as-Saroyi Bulg'oriy Kardariydir. Kardar Xorazmdan bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkiran ush-shuaro"sidagi qit'asida uni tilga olgan. Tarixda Kardariy taxallusli shoirlar bir emas, bir necha bo'lgan. Lekin uning turkiy tilda yozilgan "Nahjul-farodis" asari bizga ma'lumdir".

Saroyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar hozircha ma’lum emas. Davlatshoh Samarqandiy bergen ma’lumot Kardariyning Lutfiy darajasidagi shoir ekanini ko‘rsatadi. Ammo boshqa tazkiralarda Kardariy to‘g‘risida hozircha ma’lumotlarni uchratmadik. Ehtimol, Oltin O‘rda adabiy muhitida yashab ijod qilgan aksariyat shoirlar tazkiraga kirmagan, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar uzuq-yuluq, Temuriylar sulolasi bilan Oltin O‘rdadagi ijtimoiy va siyosiy munosabatlar adabiy jarayonga, xususan, Kardariy singari mashhur shoirlarning tazkiralardan o‘rin olishiga monelik qilgan bo‘lishi mumkin. “Nahj ul – farodis”da uning biron bayt she’ri ham uchramaydi.

“Nahj ul-farodis” asari hijriy 761 (milodiy 1360)-yili yozilgan. Bu to‘g‘rida asarning nihoyasida aytilgan. Shuningdek, kitob muallifi oradan ikki kun o‘tgach, “dorulfanodan dorulbaqoga rixlat qilgani”ni, bu kitobdan ko‘p allomalar foydalangani bayon qilingan. Kitob kotibining bu ma’lumotidan asar anchagina mashhur bo‘lgani ko‘rinadi.

“Nahj ul-farodis” to‘rt bobdan va har bir bob o‘nta fasldan – jami qirq fasldan iborat. Bu asar “qirq hadis” (chihl hadis)ni sharhlagan va har bir hadisga oid hikoyatlar bilan bezalgan asardir. Bu asar “Qisas ul-anbiyo” turkumiga mansub bo‘lsa ham, payg‘ambarlar tarixi bayonida afsonalar emas, balki tarixiy voqealar, rivoyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Qolaversa, “Nahj ul-farodis”ni yozishda muallif turli ishonchli manbalarga tayangani uchun ham asarga ko‘p allomalar murojaat etganlar.

“Nahj ul-farodis”da eng diqqatga sazovor dalil – bu hadislardir. Birinchi bobning birinchi faslidagi hadisga e’tibor qarataylik. *“Imom Bag‘oviy rahmhi ‘Mashobih” otlig‘ kitobinda bu hadisni keltirmish: Payg‘ambarimiz as. aydi: Tangri tvl. Ismoil payg‘ambar as. o‘g‘lanlarindin Quraysh qabilasini odurdi. Yana Quraysh qabilasidin Xoshim atlig‘ kishining o‘g‘lanlarini odurdi. Yana Xashim atlig‘ kishining o‘g‘lanlarindin meni o‘durdi, chiqardi. Bu ma’nidin otru Payg‘ambar as.qa Mustafa at berildi. Mustafa arab tilincha odrulmish temak bolur – Imom Bag‘aviy “Mashobih” degan kitobida quyidagi hadisni keltirgan. Payg‘ambarimiz a.s. shunday aytgan ekan: Tangri taolo Ismoil*

payg‘ambar o‘g‘illaridan Quraysh qabilasini tanlab oldi. Yana Quraysh qabilasidan Hoshim degan odamning o‘g‘illarini tanlab oldi. Yana o‘sha Hoshim degan odamning o‘g‘illari orasidan meni tanlab olib, o‘rtaga chiqardi. Shu sababdan Payg‘ambar a.s.ga Mustafo ismi berildi. Mustafo – arab tilida tanlab olgan ma’nosini bildiradi”. Hadisning manbasi (Bag‘oviyning “Mashobih” asari) ishonchli ekani ko‘rinib turibdi.

“Nahj ul-farodis”ning birinchi bobida Muhammad alayhissalomda payg‘ambarlik sifatlarining zohir bo‘lishi va uning dini islam yo‘lidagi faoliyati bayon qilingan. Bobda hadislardan, Bag‘aviyning “Mashobih” asaridan tashqari, shayx Imom Ishoq Quloboziyning “Ta‘rif” kitobidan, Imom Sog‘oniyning “Mashoriq ul-Anvor” asaridan, Imom Abul Muhammad Ispijobiyning “Tafsir”idan, Imom Abul Alayh Ushiyning “Nishob ul-axbor” kitobidan, Shayx Abu Yazid Bustomiy, Abdulloh ibn Ma’sud kabilarning so‘zlaridan foydalangan. Barcha ulamo va fuzalolarning Muhammad a.s.ga tug‘ilgan paytidanoq payg‘ambarlik sifatlari va fazilatlari ato qilinganini bayon qiladilar.

“Nahj ul-farodis” tarixiy asar emas, payg‘ambarimiz a.s. tarixini boshdan-oxirigacha bayon qilinmagan. “Nahj ul-farodis” - agiografik asar, payg‘ambar hayotining eng muhim nuqtalariga e’tibor qaratgan. Jumladan, Olloh Taolo Muhammad a.s.ga payg‘ambarlik sifatini topshirishi, musulmonlikni ilk bor qabul qilgan Xadicha, Ali, Abu Bakr va Zayd to‘g‘risidagi qiziqarli voqealar, payg‘ambar a.s.ning Makkadan Madinaga borishi, uning mo‘jizalari va boshqa ko‘p voqealar “Nahj ul-farodis”ni qiziqarli badiiy asar sifatida yaratishga asos bo‘lgan.

### Iug‘at

أَرْدَاحٌ – *ardah* (NF, 20b 9) (1, 61);

دَلْوٌ – *dalvi* (chelak): Yana Misirg‘a barur karvanlar ol quzug‘ qatinda

qondilar taqi suv almaq uchun dalv iza berdilar (NF, 57a 12) (1, 328);

دُبُورٌ – *dubur* (panja): Bir tash tushti bashindin kirdi taqi dubrindin chiqtı (NF, 22b 3) (1, 344);

**جوبراك** – *jubrak* (juldur): Ya Aba Hurayra, bu eski jubraklarnikim, ko‘rsan bu jubraklar jumlesi bu adamilarning tonlari erdi (NF, 196b 9) (1, 374);

**زهنك** – *zahang* (posox): Xalifanin zahanlarini alib keldilar (NF, 113b 17) (1, 392);

**ازاره** – *izar* (ishton); Bu arada izari sheshildi (NF, 114a 6) (1, 409);

**باب** – *yab* (daryo): Tamug‘ ahli ancha yig‘lag‘aylar kim yuzlari yabtek bolg‘ay, andin song ko‘z yashi kasilgay (NF, 34a 11) (1, 454);

**بيكرنجي** – *yigranchi*. Payg‘ambar xabar berur, yarliqar, tangri hazratinga dunyadin yigranchirak narsa yo‘q tedi (NF, 196b 15) (1, 524);

**كرسان** – *karsan*. Taqi ol qo‘y samurdi, andin payg‘ambar aydi: “Ya Ummi Mu‘id evda karsan bar ersa kelturgil” tedi. Ummi-Mu‘id bir karsan kelturdi (NF, 12a 10) (1, 567);

**کفاج** – *kuvach* (kufach): Axsham bolmishta kezin taqi kuvachda bir ancha ta‘am qaldi (NF, 15b 17) (1, 636);

**موش** – *mush* (muskus): Taqi o‘zinga mush yizig‘lar surtar erdi (NF, 104b 3) (2, 132);

**پالان** – *palan*. Payg‘ambar alayhi-s-salamnung tevasining palani tushti (NF, 61a 5) (2, 210);

**سرچه** – *sircha* (qaychi): Taqi bir sircha aldilar baqirdin o‘sma uzmak uchun (NF, 80b 13) (2, 292);

**سوسمار** – *susmar* (kaltakesak): Ya Muhammad, agar bu susmar tilga kelsa, taqi saning payg‘ambarliqinga tanuqluq bersa men taqi iman keltururman tedi (NF, 81b 11) (2, 312);

**تریغ** – *tarig*: Bizim elda tarig‘din narsa qilurlar (NF, 182a 17) (2, 345);

**ترس** – *tars* (mahalliy o‘g‘it): Aydilar: “Ya shayx, bu bag‘qa hali besh yuz araba tars karak” tedilar (NF, 124b 3) (2, 347);

**چغان** – *chag‘an* (chiyabo‘ri): Baqr, bir chag‘an yugru keldi (NF, 197b 16) (1, 512);

**جامدان - chamadan** (jomadon): Ekki kishi kelib bir chamadanni amanat qoztilar (NF, 102b 1) (1, 513);

**غالي - g'ali** (gilam): Sulayman parilarga buyurub bir g'ali toqitnish erdi (NF, 106a 1) (1, 687).

### Kamol Ummiyuning "Devon"'i

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, ma'naviy merosimizni o'rganish doirasi ancha kengaydi. Xalqimizni qadimiylar qo'lyozma yodgorliklar bilan tanishtirish borasida ham ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishildi. Jumladan, Zardusht, Najmuddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Husayn Boyqaro, Ubaydullaxon (Ubaydiy) va Muhammad Rahimxon – Feruz kabi buyuk bobokalonlarimiz va ularning asarlari bilan tanishish aynan mustaqilligimiz davrlariga to'g'ri keldi.

Yuqorida nomlari keltirilgan allomalarining hayoti va ijodi sobiq shoh'ro davrida mavjud bo'lgan taqiqilar sababli yetarlicha o'rganilmadi. Endilikda, mustaqillik va erkin sikrash sharoitida mustabid tuzum davridagi noto'g'ri talqin va yanglish fikr oqibatlarini to'g'rilash imkoniyatlari yuzaga keldi. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligida, nomi ilgari uncha tanish bo'limagan o'nlab adiblarimiz va ularning ijodi yurtimiz ahliga taqdim qilindi.

Biz adabiy merosini o'rgangan XV asrda yashab o'tgan Kamol Ummiy ham turkiy tilda ijod qilgan adiblarimizdan hisoblanadi. Kamol Ummiy vatanimiz tarixidagi eng ziddiyatli davr bo'lgan XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida bir vaqtlar Jo'ji ulusiga mansub bo'lgan Oltin O'rda muzofotida yashab, ijod etgan. Shu sabab Kamol Ummiyining nomi tarixiy manbalarda ham, bizga ma'lum bo'lgan tazkiralarda ham uchramaydi. Bizda mavjud bo'lgan Kamol Ummiy qalamiga mansub devon (she'riy to'plam, manbaning o'zida risola deb yozilgan) Muhammad Fotih valadi Oxund vali al-Marhum al-Ufoviy lojal Mullo Abdurahmon bin Usmon al-Qorg'oliy tomonidan 1833-yilda bosma (Qozon bosmasi) usulida chop qilingan. Devonda adibning tug'ilgan yurti to'g'risida ma'lumot berilmagan. Sho'ir she'riyati bilan tanishar

ekanmiz, Ummiyning g'urbatda, o‘z yurtidan uzoqda – musofirlikda yashagan ma'lum bo‘ladi:

G‘aribam, g‘urbata galdim elimdan,

Saydi shahrim xarob o‘ldi zulmdan. (135-bet)

Yozilish uslubi va tiliga ko‘ra, Ummiy she’riyati, shayx ul-mashoyix Ahmad Yassaviy hikmatlarini eslatadi. Tasavvufiy istilohlar va ularga berilgan izohlar shuni ko‘rsatadiki, Kamol Ummiy tasavvufiy hol va maqomlardan yaxshi xabardor bo‘lgan.

Kamol Ummiyning tilini poetik va eng asosiysi tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilib chiqargan so‘nggi xulosamiz – shoirning vatanini Xorazm deb, uning o‘zini esa xorazmlik bo‘lgan deb hisoblashga to‘la asos bo‘ladi. Risolaning hech bir joyida Kamol Ummiy o‘zini xorazmlikman deb atamaydi. Biroq, biz mavjud barcha dalillardan foydalangan holda Kamol Ummiyning tug‘ilgan yurti Xorazm (Shimoliy Xorazm) bo‘lsa kerak, degan farazni ilgari surdik va ushbu farazimizni asoslashga harakat qildik.

Shuningdek, shoirning ismi va adabiy taxallusi xususida o‘z mulohazamizni bildirdik. Shoirning ismi borasidagi ma'lumot quyidagi misralarda keltirilgan:

Qullaring kamtaridur Ismo'il,

Na vor Ummiy Kamol esa laqabi.

Turkiy madaniy meros o‘zining uzoq va boy tarixiga, mundarijasiga ega. Bu meros istiqlol sharofati bilan keng va ochiq o‘rganila boshlanganligi ayni muddao bo‘ldi. Turkiy badiiy meros, xususan, o‘zbek she’riyatining shakllanishi va taraqqiyisida Oltin O‘rda xonligida ijod etgan Sayfi Saroiv, Is’hoq Xorazmiy, Qutb Xorazmiy va boshqalarning alohida o‘rni bor. Bu va yana qator turkig o‘y adiblar sirasida hali nomi unchalik ma'lum bo‘lmagan Kamol Ummiy – Ismoil XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yashagan. Undan bizgacha 47 varaqdan iborat meros etib kelgan. Risola deb atalgan ushbu manbadan 110 ta g‘azal, 5 ta masnaviy va 7 ta murabba’ ushbu ijodkorga tegishlidir.

Kamol Ummiyning merosi, turkiy xalqlar adabiyoti vakili sifatida shoir ijodidagi asosiy mavzular va obrazlar, badiiy mahorat va til qurilishi masalalari tadqiq qilingan. Devonning yaratilishi va zamonamizga yetib kelishida XIX asr tatar adibi Qorg'oliyning alohida hissasi bor.

Kamol Ummiy she'rlari asosan o'g'uz lahjasida, mazmun va uslub jihatidan Ahmad Yassaviy ta'sirotida bitilgan. Bu va boshqa dalillar shoirning asli xorazmlik ekanidan dalolat beradi. Shoir 1413-yilda marsiya yozganligi aytildi, Qorg'oliy esa, risolani 1833-yilda Qozon shahrida nashr qildirgan.

Shoirning "Dushar", "Etmading", "Q'lum vor", "Uchun" kabi qator ma'rifiy she'rlari diqqatga sazovor.

So'yla, ey bulbul, bukun toza gul chog'dir,

Xab bezandi, na ki, sorusi, qizil, og'dir...

misralari adibning tabiat bilan oshno ekanidan darak beradi.

Kamol Ummiyning ijodini o'rganish, uning ma'nnaviy xazinasidan bahramand bo'lish maqsadida muallif tomonidan risola nashr qilingan<sup>1</sup>. Unda shoirning she'riy namunalaridan parchalar keltirilgan. Keltirilgan she'rlarda Kamol Ummiyning jonli tilini, matnda u qo'llagan so'zlar imkon qadar asl holida berilgan. Matnni o'qishda yuzaga chiqadigan ba'zi qiyinchiliklarni nazarda tutib, risola so'nggida ayrim tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning lug'ati ilova qilingan.

Kamol Ummiy XIV asr turkiy xalqlar adabiyotining vakili sifatida Xorazmida tug'ilib, Oltin O'rda xonligida yashab ijod etgan mutasavvuf shoir hisoblanadi. U mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrdagi mavjud ziddiyatlar, musofirlik va xalqning og'ir turmush sharoitlari jarayonida yashadi. Kamol Ummiyni she'riyat bilan shug'ullanishiga sabab bo'lgan narsalarning barchasi uning asarida aks etib turibdi.

### Lug'at

Bisha, bishi, boqi, varta', choh, dum, joh, juz, zarg, zih (zehi), kox, koh, kudurat, kunj, ko'tah, maosh, nesh (nish), oyin, ol, pesh, pur, resh, ryo, rish,

<sup>1</sup> Матинёзов А. Камол Уммий. – Рисола. – Урганч, 2006. – 49 б.

*roy, roh, sad, sipar, sipoh, taboh, timor, uluv, uyutmoq, xazoyin, xuffosh, cho'x, eya, yasoq, o'd, qahrabo, qur, hasham.*

### Hofiz Xorazmiyning «Devon»i

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining xorijiy mamlakatlardagi adabiy merosimizni o'rganish va toplash maqsadida muntazam ravishda olib borgan arxeografik ekspeditsiyalarining birida 1975-yil 26-martdan 26-maygacha Hindiston dorulfununlari, kutubxonalari, davlat arxivlari va muzeylaridagi sharq qo'lyozmalarini xazinalarida o'tkazildi<sup>1</sup>. 1975-yili 18-may kuni Haydarobod shahrining Solorjang muzeyi fondidan №4298 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Devon-i Hofiz ba zabon-i turkiy” nomli qo'lyozma topildi. Muallifning ismi Abdurrahim, taxallusi esa Hofiz ekanligi g'azallardagi misralardan ma'lum bo'ladi. Natijada qo'lyozmaning fotonusxasi Toshkent shahriga keltirildi. Qo'lyozmadagi varaqlar soni 586 bo'lib, uning umumiy o'lchovi 15x26 santimetrdir. Hoshiyasiz faqat matnning o'lchovi 12x18 santimetr atrofidadir. Har betda, satrlar soni 15 tadan 17 gacha. Qo'lyozmaning 1, 58, 59-betlari va hoshiyasidagi turli yozuvlar devonga aloqasizdir. 59-forsiy g'azallar tushirib qoldirildi<sup>2</sup>. 91-forsiy g'azal tushib qoldirildi<sup>3</sup>. 671-g'azaldan so'ng 674 g'azal boshlanib ketgan. Bu holatga izoh berilmagan<sup>4</sup>.

Shoirning Xorazmda turkiy tilda she'r aytgani uning ushbu baytida aks etgan:

Teng bo'la bilmas edi Hofiz bila Xorazmda,  
Turkiy ayta tirilur bo'lsa bu damda Sanjariy. (993.2.226).

Hofiz Xorazmiyning Xorazmda qadr topmagani, shu sababli shoir Sheroz shahriga borib yashab ijod qilgani quyidagi misralardan ma'lum bo'ladi:

Hofiz, saning qadringni gar Xorazm ahli bilmasa,  
Azm-i Iroq aylab ravon, ohang-i Sheroz etgasan. (689.2.73).

<sup>1</sup> Хоразмий Ҳофиз. Девон. I китоб. – Тошкент, 1981. – 4-бет.

<sup>2</sup> Хоразмий Ҳофиз. Девон. I китоб. – Тошкент, 1981. – 51-бет.

<sup>3</sup> Хоразмий Ҳофиз. Девон. I китоб. – Тошкент, 1981. – 67-бет.

<sup>4</sup> Хоразмий Ҳофиз. Девон. I китоб. – Тошкент, 1981. – 65-бет.

Hofizg'a navo tegmasa Xorazmda, andin,  
Qilg'ay edi ohangi Hijoz ila Sipahon. (775.2,116).

Kech bu Xorazmdin ravon, Hofiz,  
Tilar ersang Iroq-u ham Sheruz. (445.1,250).

Hofiz Xorazmiy garchi Sheroz shahrida mashhur shoir Hofiz Sheroziy fors tilida ijod qilgan bo'lsa-da, Hofiz Xorazmiy ham Hofiz taxallusi bilan turkiy tilda g'azal bitishni o'ziga maqsad qilib oladi:

Hofizni ko‘rung ushbu zamon turk tilinda,  
Gar kechdi esa forsa ul Hofiz-i Sheruz. (446.1,251).

Lug'at

(sarqit) (D:906), subton (D:900), subul (D:609), so‘ron (so‘zon) (D:830), so‘g‘alur (fe‘l) (D:11), tayaron (D:326), teli (D:1025), tobanda (D:727), tobishi mahtob (D:892), umsunur (fe‘l) (D:990), unnob (annob) (D:540), xavro (D:1025), xadal (D:588), xushgavor (D:352), xo‘ (D:748), xo‘jastafol (D:600), xo‘sha (D:263), chavgon (D:47), changol (D:689), chatar (fe‘l) (D:928), chosh (D:682), shabafro‘z (D:442), shabdo‘sh (D:551), shang (D:275), shat (D:501), shash (6 soni emas) (D:210), shashdar-i g‘am (D:945), shaq (D:521), shahmot (D:99), shahna (D:864), sheva (D:581), sheri xudoy qanbari (D:218), shimos (D:209), shir (shira) (D:420), shifta (D:259), shona (D:581), shumpoy (D:619), Qaysar-u kay (D:1023), qanchug‘a (D:634), qaton (D:473), qafo (D:751), qiyr (D:368), qirbon (D:49), qor-u qiyr (D:945), qullob (D:892), quroza (D:349), g‘abg‘ab (D:265), g‘azanfar (D:359), g‘amando‘z (D:442), g‘amom (D:661), halvo (D:874), hamxobayi bolin (D:624), harjoy (D:967), hashmolud (D:768), hast (D:641), himom (D:659), holparishon (D:834), humoy (D:1033).

Xulosa qilib aytganda, ushbu asarlarning eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili rivojidagi o‘rni va ahamiyati kattadir. Ularning leksikasini o‘rganish, lug‘aviy birliklarini etimologik, genealogik, komponent tahlillarini amalga oshirish, tarqalish arealini belgilash, ma’no taraqqiyotini o‘rganish tilshunosligimizning muhim masalalaridan biridir.

### **2.3. Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari va xorazm turkehasi manbalarি**

Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari sirasiga Misr mamluklari saltanatida 250 yil davomida yaratilgan arab-qipchoq lug‘atlari, grammatikaga oid risolalar hamda tarjima asarlari kiradi. Ushbu manbalar qipchoq tillari tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Misrda yaratilgan Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklarida qipchoq va o‘g‘uz so‘zlashuv tillarining elementlari aks etgan. Misrga kelib qolgan turkiy tilli mamluklar etnik tarkibiga ko‘ra, qipchoq va o‘g‘uzlardan iborat bo‘lgan.

Mamluklar sultanati (1260-1517) davrida Misrga Oltin O'rdanining keng mintaqalaridan qipchoq tilli aholining katta guruhi kirib keladi. Oltin O'rda (1269-1459) tarkibida bo'lган mintaqalardan biri Shimoliy Xorazm (1269-1389) edi. Xorazmlik aksar olim va adiblar Oltin O'rda poytaxti Saroy shahrida ijod qilib, nom qozonganlar. Qipchoq va o'g'uzlardan iborat bo'lган Xorazm turklarining Misrga ilk ko'chishi Mamluklar sultonini xorazmlik Sayfiddin al-Muzaffar Kutuz (vaf. 1260) davrida sodir bo'lган. Jumladan, Sulton Kutuzning 100 minglik armiyasida turkman qo'shini, qipchoqlardan iborat askarlar guruhi ham bo'lган.

XIV asr o'rtalarida Xorazm va Oltin O'rdada kechgan ichki nizolar xorazmlik olim va adiblarning Misrga ko'chib kelishiga sabab bo'lган.

Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari tili, mutaxassislar fikricha, yagona bo'lмаган. Mamluklar sultanatida hukmron qipchoqlar bilan bir qatorda boshqa turkiy qabilalar, asosan, o'g'uzlar, turkmanlar qarluq qabilalari ham yashagan. Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari tilida turkiy tillarning uch dialekti mavjud bo'lган:

- 1) sof qipchoqcha;
- 2) sof o'g'uzcha;
- 3) aralash qipchoq-o'g'uzcha (Halasi-Kun T.).

Turkiy tillarning o'rta asrlar davri mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari sirasiga birinchi navbatda, Mamluklar sultanatida XIII-XIV asrlarda yaratilgan leksikografik va grammatic asarlar kiradi. Ular Mamluklar davlatida o'rta asr arab va turk filolog olimlari tomonidan yaratilgan. Ushbu nodir turkiy tillarning qipchoq va o'g'uz yodgorliklari ilk qipchoq (eski turkiy) tili fonetik sistemasining tiklanishi hamda qipchoq va o'g'uz guruhi kiruvchi bir qator zamonaviy turkiy tillarning shakllanish va rivojlanish tarixini o'rganish uchun muhim manbalar hisoblanadi.

Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklariga, shu yodgorliklarning xorazm turkchasida yozilgan qo'lyozma manbalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar

jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lif muassasalarida olib borilmoqda.

Xorazm turkchasi – Xalqaro standartlashtirish tashkilotining dunyo tillari indeksiga ISO 639-3 raqami bilan kiritilgan. Mamluklar davri Misrda yaratilgan xorazm turkchasida yozilgan qo'lyozma manbalar T.Halasi-Kun, A.Najib, E.Fozilov, Aysu Ata, Z.M.Islomov<sup>1</sup> singari turkolog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan.

Bugungi kunda o'zbek tilining shakllanish va rivojlanish tarixini o'rghanish maqsadida 1260-1517-yillar oraliq'i Misrda hukmronlik qilgan Mamluk sultonlari davrida yaratilgan mamluk-qipchoq yozma yodgorliklarining asosini tashkil qiluvchi xorazm turkchasida yozilgan qo'lyozma manbalarni tadqiq qilish muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklarining xorazm turkchasida yozilgan qo'lyozmalari jamlangan holda nashr qilinib, ilmiy muomalaga kiritilishi zarur.

Bizningcha, ushbu ishni ikki bosqichda olib borish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqichda tanlangan qo'lyozma manbalarning tili qiyosiy tadqiq qilinishi lozim. Dastlab manbalar fonetik jihatdan tahlilga tortiladi. Manbalar arab yozuvi satr osti va ustti diakritik belgilari (tanvin) bilan qo'llangani sababli qo'lyozmalardagi so'zlarni nafaqat to'g'ri o'qishga, balki harf va tovush munosabatlарини, pozitiv va postpozitiv o'zgarishlarni aniqlash ham mumkin. Pirovardida manbalarning til xususiyatlarini Oltin O'rda, Qrim va Misrdagi o'g'uz-qipchoq tillaridan farqli tomonlarini tadqiq qilinadi.

<sup>1</sup> Halasi-Kun T. Die mameluk-kiptschakischen Sprachstudien und die Handschriften in Stambul // Korosu Csoma Archivum. – Budapest, 1940. – Bd. 3. – Th. 1. – S. 80-83; Наджиб Э. Тюркоязычный памятник XIV века "Гулистан" Сейфи Саран и его язык. – Алма-Ата: Наука, 1975; Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века: на материале "Хосрау и Ширин" Кутба. – М.: Наука, 1979; Фазылов Э. Староузбекский язык: Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. – Т.: Фан, 1966-1971; Исломов З.М. Махмуд Замахшарийнинг "Муқаддамату-л-адаб" асаридаги туркӣ феъллар таҳлили: Филол. фанлари номзоди дисс. – Т., 1993. – Б. 161; Махмуд Замахшарийнинг "Муқаддамату-л-адаб" асарининг кўлэзма манбалари ва арабча-туркӣ феъллар сўзлигининг йигма илмий-таккидий матни (Тошкент кўлэзмалари асосида): Филол. фанлари доктори дисс. – Т., 1998. – Б. 234.

Ikkinci bosqich 1360-1394-yillar oralig'ida Misrda yozilgan va ko'chirilgan xorazm turkehasidagi qo'lyozmalarining transkripsion matni tayyorlanib, chop qilinishi lozim.

Natijada Misrda yaratilgan mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari manbalarida aks etgan XIV asrlar xorazm turkchasing turkiy tillar tarixida tutgan o'rmini belgilash imkonini paydo bo'ladi. Bu esa, o'zbek tili tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, XIV asrlardagi xorazm turkiy yozma yodgorliklari geografiyasi o'rganiladi. Bu manbalarning o'sha davrda yozilgan boshqa turkiy tillardan ayricha, farqli va o'xshash jihatlari tadqiq qilinadi.

XIII-XIV asrlar Misr Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklarining xorazm turkchasida yozilgan muhim manbalardan ayrimlari quyida keltirilgan:

1. Mahmud ibn Ali al-Xorazmiy. Nahj ul-farodis (1358). – Diniy epik asar. – /Muhammad ibn Husrov Xorazmiy/. – Misr, 1360. – B. 444. – Fond: İstanbul Süleymaniye Kütüphanesi, Yeni Jomi kismi, 879 num.
2. Qutb Xorazmiy. Husrov-u Shirin (1341). – Lirik doston. – /Berka Faqih/. – Iskandariya, 1383. – B. 118. – Qo'lyozmaning yagona nusxasi. – Fond: Paris Bibliothèque Nationale, MSS. Turcs A.S. 312.
3. Sayfi Saroyi al-Xorazmiy. Guliston-i bit-turkiy. – Epik tarjima asar. – Misr, 1391. – B. 186. – Qo'lyozmaning yagona nusxasi. – Fond: Academic Library of Leiden in the Netherlands under the number 1355.
4. Sayfi Saroyi al-Xorazmiy. Suhayl va Guldursun. – Liro-epik doston. – Misr, 1394. – Str.164. – Yagona nusxa. – Fond: O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti, inv. №311.
5. Mahmud az-Zamaxshariy al-Xorazmiy. Muqaddamat ul-adab. – Arabiy-forsiy-turkiy lug'at. – A nusxa: / Sivasli Abdülvahid bin Abdülmecit/. – Qohira, 1367. – Fond: İstanbul Süleymaniye Kütüphanesi, Yenicami kismi, Hatice Turhan yazmasi, 322 num.; B nusxa: / Ahmed bin Muhammed Şems el-Hiyvaki el-Horezmi/. – Qohira, 1394. – B. 149. – Fond: İstanbul Beşiraga Kütüphanesi, 648 num.

Mamluk-qipchoq yozma yodgorliklari sirasiga kiruvchi yana ba'zi muallifi ma'lum yoki noma'lum bo'lgan qo'lyozma manbalar ham borki, ularni xorazmcha manbalar bilan bog'liqligini faqat o'rghanish va tadqiq qilish orqaligina aniqlash mumkin:

Nº	Asar nomi, janri va yaratilgan sanasi	Muallif ismi, nisbasi	Kitobat yili, joyi, kotibi hajmi	saqlanayotgan joyi, fondi va raqami
1	" <i>Kitobu majmu'i tarjumoni turkiy va arabiyy va mo'g'o'liy va forisiy</i> " – muallifi noma'lum arabcha-forscha-turkcha-mo'g'ulcha lug'at. 1247 yil	noma'lum	1247 (hijriy) Misr 76 varaq	Academic Library of Leiden in the Netherlands under the number 517 Yagona nusxa
2	" <i>Guliston-i bit-turkiy</i> " fors tilidan nasriy tarjima. 1391 yil	Sayfi Saroyi (Xorazmiy)	1391 (hijriy 793) 186 varaq	Academic Library of Leiden in the Netherlands. Yagona nusxa
3	" <i>Kitobu bulg'at al-mushtoq fi lug'at at-turk val-qifchoq</i> " Turkiy-qipchoqcha lug'at. XIV asr	Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh at-Turkiy	XIV asr o'tralari	Fransiya Paris Bibliothèque Nationale. Yagona nusxa
4	" <i>Kitob fil-fiqh bi lison at-turkiy</i> " Islom huquqiga oid asar. 1421 yildan oldin yaratilgan		1421 (hijriy 824) yildan oldin 420 varaq	Türkiye Millet Kütüphanasi, Feyzullah Efendi kismi, 1046 num.. (1051 num.) Yagona nusxa
5	" <i>Munyat il-G'uzot</i> " harbiy sohaga oid asar.		115 varaq	Türkiye Topkapı Sarayı Müzesi Kütüphanasi III. Ahmed kismi, 3468 num. Yagona nusxa
6	" <i>Kitob at-tuxfat uz-zakiyya fil-lug'at it-turkiyya</i> " arabiyy-turkiy lug'at va turkiy grammatikaga oid risola. XIV asr	Muallifi noma'lum	XIV asr 90 varaq	Türkiye Istanbul Beyazit Veliyuddin Efendi Kütüphanasi, 3092 num. Yagona nusxa
7	" <i>Kitob ul-idrok li lison il-atrok</i> " turkiy tilga oid asar. 1312 yil	Abu Xayyon Andalusiy	1312 (hijriy) Qohira (Misr)	
8	" <i>Irshod ul-muluk vas-</i>	Berka	1387	Türkiye

	<i>salotin</i> " 1387 yil	Faqih	(hijriy 789) Iskandariya (Misr)	Ayasofya Kütüphaneleri, 1016 num. Tabriz
9	<i>"ad-Durrat ul-Mudiya fi lug'atit-turkiyya"</i>			
10	<i>"Iskandarnoma"</i> nasrda yozilgan tarixiy doston.			
11	<i>"Kitob-i majmu'-i tarjuman-i turkiy va ajami va mo'g'aliy"</i> turkiy-arabiy grammatika va lug'atdan iborat asar. 1343 yil	Halil bin Mahmud Ko'naviy	1343 Halil bin Mahmud Ko'naviy	
12	<i>"ash-Shuduri adhaliyya val kitab ul-Ahmadiyya fi lug'at it-turkiyya"</i>			
13	<i>"Anvar ul-Mudiva"</i>			
14	<i>"Qavoidi lisoni turkiy"</i>			
15	<i>"Kitobi Beylik"</i>			
16	<i>"al-Qavonin ul-kulliya li zabit il-lug'at it-turkiyya"</i> XIV-XV asrlar oraliq'i		XIV-XV asrlar oralig'i	

#### 2.4. O'zbek shevalari: substrat qatlam.

O'zbek tili o'tmishda yaqin aloqada bo'lgan eroniylardan biri qadimiy xorazmiy tilidir. Qadimiy xorazm tili va qadimgi Xorazm yozuvini O'rta Osiyo xalqlari tarixida ma'lum rol o'ynagan. Ammo, qadimiy xorazmiy tili va eroniylar til xarakterida bo'lgan qadimiy xorazm tili, uning turkiy tillarga ta'sirini, undan o'zbek tili leksikasiga kirib qolgan elementlar fanda deyarli o'r ganilgan emas. Ammo, o'zbek tili leksikasida, ayniqsa, xalq shevalari lug'at tarkibida bu tilning ayrim elementlari saqlangan<sup>1</sup>.

Ma'lumki, VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyoga kelib o'mashgan turkiy qabilalarning tillari mahalliy qadimgi eroniylar tilli xalqlarning tillari bilan qo'shilushi yoki aralashushi natijasida, keyinchalik eski o'zbek va yangi uyg'ur tillarini shakllanishiga asos bo'lgan chig'atoy adabiy tili hosil bo'lgan. O'zbek va yangi uyg'ur tillari turkiy tillarning xorazmiylar, so'g'diyilar, baqtriyaliklar,

<sup>1</sup> Узбек тили лексикологияси. – Тошкент: "Фан" нашириёти, 1981. – Б. 95.

saklar va boshqa eroniy xalqlarning tillari bilan o‘zaro munosabati natijasida yuzaga kelgan<sup>1</sup>.

V.V.Bartoldga ko‘ra, xorazmiylar XI asrda ham boshqa eroniy xalqlar uchun tushunarsiz bo‘lgan va keyinchalik Xorazmnинг asta-sekin turkiylasha boshlashi oqibatida muomaladan chiqib ketgan o‘z lahjasida yozishda va so‘zlashishda davom etganlar<sup>2</sup>. Uning fikricha, bu til oqibatda forsiy til emas, balki turkiy til ta’sirida muomaladan chiqqan. Xorazm tilining qoldiqlari, shubhasiz faqat xivaliklar va turkmanlarda saqlanib qolgan sun’iy sug‘orish tizimi sohasiga oid ba’zi (*arna* – katta kanal, *yob* – kichik kanal) terminlar hisoblanadi<sup>3</sup>. V.V.Bartold, xorazm tilida yozilgan na badiiy yodgorliklar, na hujjatlarni bizgacha etib kelmaganini afsus bilan yozgan edi<sup>4</sup>.

A.N.Samoylovichning ta’kidlashicha, “Xorazmda qadimdan yashagan va eroniy xalqlarga mansub bo‘lgan qadimgi xorazmliklar, manbalarning guvohlik berishicha, XIII asrga kelib, o‘z tillarini yo‘qotganlar va o‘g‘uzlar bilan aralashib ketganlar”<sup>5</sup>. Binobarin, bu holat o‘g‘uz tipidagi tillarda va o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasida xorazmiy asosga ega so‘zlar saqlanib qolganligi mumkin degan xulosaga kelishga undaydi. Holbuki, XI asrdayoq, Mahmud Qoshg‘ariy: “O‘g‘uzlar forslar bilan juda aralashib ketganlari uchun bir qancha turkcha so‘zlarni unutib, ularning o‘rniga forschcha so‘zlarni qo‘llaydilar” deb yozgan edi (DLT I, 106). Bizningcha, matndagi “forslar” so‘zini “eroniy xalqlar” ma’nosida tushunish kerak. Xorazmiylar dastlab, o‘g‘uzlar, keyinchalik boshqa turkiy qabilalar bilan aralashib ketganligi uchun ularning tiliga “xorazm turkchasi” sifatida qaralgan. XV asrda Alisher Navoiy “xorazmiycha turkiy til” deganda o‘sha davr xorazm tili, shevasini nazarda tutgan<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Народы мира, т. I: Народы Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1962. – С. 115-116.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч. I. – М.: 1963. – С. 193.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч. I. – М.: 1963. – С. 122.

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч. I. – М.: 1963. – С. 459.

<sup>5</sup> Самойлович А.Н. Очерки по истории туркменской литературы. – Сб. «Туркмения», I. – 1929. – С. 133.

<sup>6</sup> Алишер Навоий. Мажолис ун-нафони. – Тошкент, 9-бет; Алишер Навоий асарлари тилларининг изохли лугати. – Т. III. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1984. – Б. 415.

Yuz yillar davomida kechgan Xorazmni turkiylashish jarayoni xorazm tilini bosqichma-bosqich O'rta Osiyo turkiy tillari bilan aralashib ketishiga olib keldi. Bu jarayon XV asrga kelib nihoyasiga yetadi<sup>1</sup>.

Akademik Sh.Shoabdurahmonov o'zbek dialektologiyasida hal qilinishi kerak bo'lgan ishlarning asosiylaridan biri sifatida o'zbek shevalarining shakllanish tarixida qardosh va qardosh bo'Imagan tillar elementining ishtiroki va ular orasidagi til munosabatlarini aniqlash deb ta'kidlagan edi. Dialektolog olim bu borada, jumladan shunday degan edi: «O'zbek tilining barcha sheva va lahjalarida turkiy qabila tillariga xos xususiyatlar bilan bir qatorda turkiy bo'Imagan tillarda so'zlashuvchi etnik elementlarning ham ta'siri bordir. Mana shu ikki asosiy faktor o'zbek xalqining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynab, o'zbek shevalarini rang-barang bo'lishiga olib keldi»<sup>2</sup>.

Xorazm shevalarini o'rgangan tadqiqotchilar, xorazm tiliga oid ba'zi so'zlar substrat qatlama sifatida o'zbek tilida va xorazm shevalarida, shuningdek voha toponimiyasida saqlanganib qolganligini ta'kidlaydilar. Professor F.Abdullayev o'zining xorazm shevalariga bag'ishlangan ishlari, bu mavzuga bir necha marotaba e'tibor qaratgan edi. Xususan, F.Abdullayev, «O'tmishda Xorazm hududida turli-tuman etnik guruhlarning mavjud bo'lishi, mahalliy aholining antropologik tipida, urf-odatida, shuningdek tilida ham ma'lum iz qoldirishi kerak edi. Sheva leksikasida bu hodisa yaqqol ko'rindi. Xorazm shevalarida arab va tojik tillariga aloqador bo'lган shunday leksik elementlar borki, ular markaziy o'zbek shevalaridagi arab-tojik leksik qatlamidan farq qiladi. Bundan tashqari, xorazm shevalarining leksikasi hozircha bizga uncha aniq bo'Imagan leksik qatlamga ham egadir, bunday so'zlar qadimgi xorazmliklar tilidan kirib qolgan»<sup>3</sup>, deb ta'kidlaydi. Olim, xorazm shevalari leksikasida anchagina so'zlar borki, ularning asli manbasi hozircha aniq emas, deb misol tariqsida bir qancha so'zlarni keltiradi: *yap*, *arna* (anhor), *pət'k*

<sup>1</sup> Хорезмийский язык. Иранские языки Средней Азии. – В кн.: Народы мира. Т. I. Народы Средней Азии и Казахстана. – М., 1962. – С. 140.

<sup>2</sup> Узбек халк шевалари лугати. – Тошкент: «Фан», 1971. – Б. 391.

<sup>3</sup> Абдуллаев Ф. Узбек тилининг xorazm шевалари, I. – Тошкент, 1961. – Б. 236.

(ship), *tələk* (boloxona), *payyr* (xamirturush), *ədən* (poygoh), *dalan* (yo'lakxona), *xaraz* (tegirmon), *lab'r* (changak)<sup>1</sup>. U bu so'zlarni shevalarga qadimgi xorazmliklar tilidan kirgan bo'lsa kerak deb fikr bildiradi.

Professor F.Abdullayevdan keyin xorazm shevalarini tekshirgan deyarli barcha tadqiqotchilar bu mavzuga u yoki bu darajada fikr bildirib o'tganlar. O.Madrahimov o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga bag'ishlangan tadqiqot ishida shunday yozadi: «Qadimgi xorazmliklar va so'ngroq tojiklar bilan turkiy qabila – urug'larning o'zaro tarixiy-madaniy va tarixiy-etnografik munosabatlari nihoyat darajada murakkab va deyarli hech ishlasmagan sohadir, mahalliy shevalardagi qadimgi xorazm tili leksikasidan o'tib qolgan leksik elementlar haqidagi aytilgan fikrlar ham ko'pincha faraz, taxmin xarakteriga ega bo'lib, masalani tugal hal etishdan uzoqdadir»<sup>2</sup>.

Tadqiqotchi Y.Jumanazarov, qadimgi Xorazm qabilalarining izi butunlay yo'q bo'lib ketmaganligini, hozirgi Xorazm aholisi nutqida qadimgi xorazm qabilalarining ko'pgina so'zlari saqlanib qolganligini yozadi<sup>3</sup>.

Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarini o'rgangan tadqiqotchilarning ishlarida ham xorazm tili bo'yicha qaydlar uchraydi. Jumladan, A.Ishaev o'zining tadqiqotlarida Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida qadimgi xorazm tiliga oid leksik qatlam mavjudligini ta'kidlaydi<sup>4</sup>. E. O'rozov janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalariga oid monografiyasida «Xorazm shevalarida, shuningdek, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida va qoraqalpoq tilida qadimgi eron elementlari va tojik-fors tillariga oid so'zlar uchraydi...» deb qayd qiladi<sup>5</sup>.

Xorazm tiliga oid so'zlar voha toponimiyasi va folklorida ham saqlanib qolgan. Toponimist Z.Do'simov «...Xorazm shevalari leksikasini, xususan,

<sup>1</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг хоразм шевалари. I. – Тошкент, 1961. – 141-бет.  
<sup>2</sup> Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўгуз лахжаси лексикаси. – Тошкент: «Фан», 1973. – 49-бет.

<sup>3</sup> Жуманазаров Ю. Ўзбек адабий тилининг жанубий Хоразм диалекти. – Тошкент: «Фан», 1971. – 11-бет.  
<sup>4</sup> Ишаев А. Мангит шеваси лексикасин тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1960. – №5. – 64-67 Б.; Ишаев А. Из лексики узбекских говоров Каракалпакии // Вопросы тюркологии. – Т., 1965. – С. 116.

<sup>5</sup> Уррозов Э. Жанубий Қаракалпогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: «Фан», 1978. – 70-бет.

uning toponimiyasini kuzatish mazkur shevada qadimgi xorazmiy tili elementlari saqlanib qolganligini ko'rsatdi» deb ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Xorazm dostonlarini tadqiq etgan folklorshunos olim S.Ro'zimboyev «Janubiy Xorazm doston ijrochilarining nutqida qadimgi xorazmiy tiliga oid ba'zi xorazmiy so'zlar uchraydi» deb fikr bildiradi<sup>2</sup>.

Tadqiqotchi D.Yo'ldoshev «...Xorazm shevalarida substrat qatlam deganda XIV asrlargacha iste'molda bo'lgan, keyinchalik turkiy tilning to'la g'alabasi sabab o'lik tilga aylangan xorazmiy tilidan «meros» so'zlarni tushunamiz», deb hisoblaydi va xorazm shevalari tadqiqotchilarining asosiy ishi sifatida «xorazmiy tilidan qolgan deb bilishimiz mumkin bo'lgan so'zlarni etimologik izohlash va ularni xorazmiy so'zlar ekanligini isbotlashga qaratilgan»ligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

Professor O.Madrahimov Xiva shevasiga oid ishida bu sheva leksikasidagi eron tillari guruhiba mansub so'zlar haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: «...Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Xorazmda XIII asrgacha ikki tillilik – xorazmiy va turkiy davom etib kelgan. XIV asrga kelib qadim xorazmiylar etnik turkum sifatida tarix sahnasidan o'chib ketadi. Ularning so'z boyligi esa mahalliy xalq tiliga, asosan o'g'uz tiliga singib qolgan. Biroq bu so'zlarning qaysi biri fors-tojik tiliga, qaysi birisi qadimgi xorazmiylar tiliga mansub ekanligini aniqlash uchun maxsus ilmiy-tadqiqot olib borish kerak»<sup>4</sup>.

Tilning lug'at tarkibini tarixiy-etimologik, ya'ni so'zlarning genetik manbalariga ko'ra tahlil qilish o'zbek xalqi tilining o'tmishta qanday qardosh tillar, shuningdek, qardosh bo'limgan chet tillar bilan aloqada va hamkorlikda bo'lganini, bu tilda qaysi tillarning ta'siri mavjudligini aniqlashga ham

<sup>1</sup> Дүсімов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: «Фан», 1985. – 11-бет.

<sup>2</sup> Рузимбаев С. Специфика, типология и поэтика хорезмских дастанов. – АДД. – Ташкент, 1990. – С. 41.

<sup>3</sup> Йўлдошев Д. Хоразм шеваларида субстрат катламга мансуб баъзи сўзлар хакида. – Филологик тадқиқотлар. – Маколалар тўплами. – Урганч, 2004. – 23-25 Б.

<sup>4</sup> Мадрахимов О. Ўзбек тили ўгуз лаҳжасининг Хива шеваси. – Урганч: «Хоразм», 1999. – 17-18-бетлар.

ko‘maklashadi<sup>1</sup>. Bu borada ayniqsa, dialekt va sheva materiallarini tadqiq qilish katta natija berishi mumkin.

Tilshunos olim E.Begmatovning ta’kidlashicha, “turkiy urug“ va qabilalar tili juda qadimiy davrlarda O‘rta Osiyoda azaldan yashab kelgan “eroniy tillar” bilan aloqada bo‘lgan. O‘rta Osiyoda, jumladan hozirgi O‘zbekiston hududida yashovchi xalq eroniy tillar guruhiga kiruvchi mahalliy til lahjalarida gaplashgan. Bu eroniy urug‘-qabilalar, xalqlar – so‘g‘dlar, saklar, massagetlar, baktriyalilar, parfiyanlar, parkaniylar, xorazmiylar va boshqalarning tili bo‘lgan<sup>2</sup>.

R.Yo‘ldoshev: “Qadimgi xorazmiy tili O‘rta Osiyo xalqlari tillarida muayyan darajada o‘z izini qoldirgan. Xorazmiy tiliga mansub deb hisoblanadigan ko‘pchilik so‘zlarning fors-tojik tilida ham uchrashini bu tillarning bir oilaga mansubligi bilan izohlash kerak” deb hisoblaydi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1981. – Б. 56.

<sup>2</sup> O’sha manba. –Б. 56.

<sup>3</sup> Йўлдошев Р. Беруний – тицашунос. – Урганч, Урду нашри, 2011. – Б. 18.

XULOSA

O'zbek tili o'zining shakllanishi va rivojlanishi davrlarida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan boy tarixga ega turkiy tillar sirasiga kiradi. Ushbu monografiyada o'zbek tilining shakllanish davri miloddan oldingi II mingyllikning o'rtalaridan boshlanishi tilga olinadi. Tarixan O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlar, urug' va qabilalarning o'zaro muloqoti turlicha tillarda bo'lgan. Bu xalqlar tillaridan ba'zilari endilikda "o'lik til" hisoblanadi. Ona Vatanimiz o'zining shonli tarixi davomida hamisha o'zga yurt vakillarini o'zining jozibasi bilan jalb qilib kelgan. Xalqlarning buyuk ko'chishi jarayonlari bizning ota-bobolarimizni Old Osiyo, Ural va Volga bo'ylariga borib o'z madaniyati va til unsurlarini boshqa xalqlar madaniyati va tili bilan aralashib ketishiga sabab bo'lgan bo'lsa, ba'zi hollarda ayrim xalqlar va qabilalar Markaziy Osiyoda muqim yashab qolganlar. O'zbek tili ajdodlarimizning tili bo'lmish qadimgi turkiy tilning munosib davomchisidir. Turon zaminda yashagan turkiy qavmlar, jumladan, o'zbeklar ham tarixan ijod bilan, ilm-fan bilan shug'ullanib kelganlar. Xalq og'zaki ijodi namunalarini yaratib, adabiy asarlar ijod qilgan, qomusiy lug'atlar tuzgan. Ushbu boy merosni o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. O'zbek tilining shakllanish tarixini mutaxassislar bir necha davrlarga bo'lib o'rganganlar. O'zbek tilining rivojlanishini ham bir qancha bosqichlarda tadqiq qilingan. Qo'lingizdagagi ushbu asar o'zbek tilining shakllanishi va rivojlanishini tarixan ma'lum bir lingvogeografik hudud ko'lamida o'rganish yo'lida bir tajriba xolos. Maqsad o'zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi davlarini olis tarix qatlariда pinhon yotgan qatlamlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Shu ma'noda tarixan Xorazm lingvogeografik hududi doirasida Quyi Amudaryo, Orolbo'yı mintaqalarida miloddan oldingi davrlardan milodning XV asrigacha bo'lgan muddatda muomalada bo'lgan turkiy til va lahjalar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar sultanatida, keyinchalik Jo'ji ulusi va Oltin O'rdada yaratilgan asarlar til xususiyatlari tahlil qilindi. Xorazm hududida yashagan aholi vakillarining uzoq vaqt davomida Bulg'or turklari bilan iqtisodiy, madaniy va diniy sohalarda olib

